

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI

QO‘CHQOROVA AYSHA OLTIBAYEVNA

O‘smir qizlar tarbiyasi va kitobxonlik

Monografiya

Samarqand 2024

Qo'chqorova Aysha Oltibayevna. O'smir qizlar tarbiyasi va kitobxonlik. Monografiya. – Samarkand: SamDTU nashr uyi, 2024. – 118 b.

Monografiyada o'smir yoshlar tarbiyasi va kitobxonlikning shakllanishi va rivojlanishi, pedagogik asoslari, kasbiy ijtimoiylashuvni ta'minlash shart-sharoitlari, pedagogik tizim samaradorligi, kasbiy ijtimoiylashuvini ta'minlashning darajalari va mezonlari haqida so'z yuritilgan. Mazkur monografiya pedagogika fanlari bo'yicha mutaxassislarga, ilmiy tadqiqotchilarga, bakalavr va magistr'larga mo'ljallangan.

Ma'sul muharrir:
p.f.d. prof. M.M. Maxmudova
Taqrizchilar:
p.f.n. prof. K.Y. Xasanova
p.f.n. prof. M. Tursunova

Mazkur monografiya Samarqand davlat tibbiyot universiteti ilmiy kengashining 2024 yil _____dagi –son yig'ilishida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etildi.

Qo'chqorova Aysha Oltibayevna, 2024

Samarqand davlat tibbiyot universiteti, 2024

MUNDARIJA

I BOB. O‘SMIR QIZLARNING MA’NAVIY-AXLOQIY

DUNYOQARASHINI KITOBXONLIK ASOSIDA

SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI 2

1.1-§. Ma’naviy-axloqiy dunyoqarash tushunchasi va uning mazmun-mohiyati..... 2

1.2-§. O‘smir qizlar ma’naviy - axloqiy dunyoqarashini shakllantirishning
etnopedagogik asoslari 24

1.3-§. O‘smir qizlarning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini kitobxonlik asosida
shakllantirishning pedagogik – psixologik xususiyatlari..... 31

I bob bo‘yicha xulosa 44

II BOB. O‘SMIR QIZLARNING MA’NAVIY-AXLOQIY

DUNYOQARASHINI KITOBXONLIK ASOSIDA SHAKLLANTIRISH

MAZMUNI, SHAKL VA METODLARI..... 47

2.1-§. O‘smir qizlarning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda Sharq
allomalari qarashlarining o‘rni 47

2.2-§. O‘smir qizlarning sharqona ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini
shakllantirishda urf-odatlar va xalq og‘zaki ijodining mazmuni 63

2.3-§. O‘smir qizlarni kitobxonlik asosida sharqona ma’naviy-axloqiy qarashlarini
shakllantirishda Sharq va G‘arb pedagogikasining qiyosiy tahlili..... 75

II bob bo‘yicha xulosa 93

III BOB. O‘SMIR QIZLARNING MA’NAVIY-AXLOQIY

DUNYOQARASHINI KITOBXONLIK ASOSIDA

SHAKLLANTIRISHNING SAMARADORLIGI 96

3.1-§. O‘smir qizlarning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirish bo‘yicha
sinov-tajriba ishlari metodikasi..... 96

UMUMIY XULOSALAR 104

TAVSIYALAR 106

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI 108

I BOB. O‘SMIR QIZLARNING MA’NAVIY-AXLOQIY DUNYOQARASHINI KITOBXONLIK ASOSIDA SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1-§. Ma’naviy-axloqiy dunyoqarash tushunchasi va uning mazmun-mohiyati

Ma’lumki, o‘zbek xalqining bir necha ming yillar davomida yaratgan, avaylab – asrab kelayotgan axloq odob durdonalarini, boy qadimiy merosini, milliy qadriyatlarimiz yutuqlarini o‘rganish va unga amal qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Chunki, faxrimiz bo‘lgan Sharq allomalarimiz Kaykovus, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhoy Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahridin Muhammad Bobur, Abdulla Avloniy kabi jahonga mashhur ma’rifatparvar shoir va yozuvchilarning ma’naviy-ahloqiy qarashlari, ular naql qilgan rivoyatlari yosh avlodlarimiz uchun ahloq-odob sabog‘idir.

Sharqda pedagog olimlar asrlar davomida bola tarbiyasiga, ma’naviy-ahloqiy qarashlariga katta e’tibor berganlar. Bu tarbiya masalalari Sharq olimlari tomonidan yaratilgan asarlarda o‘z ifodasini topgan. Jumladan, mashhur hind masali “Kalila va Dimna”, Nizomul Mulkning “Sayohatnoma”, Nosir Hisravning “Saodatnoma”, “Ro‘shnoma”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk”, Ahmad Yugnakiyning “Hibbatul haqoyiq”, Alisher Navoiyning “Mahbubul qulub”, “Vaqfiya”, Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yohud ahloq” kabi asarlari shular jumlasidandir.

Shuningdek, o‘zbek adabiyoti tarixida nom qozongan shoirlar va yozuvchilardan Abulqosim Firdavsiy, Tusiy, Rudakiy, Nosir Hisrav, Sakkokiy, Abdurahmon Jomiy, Muhammad Rizo Ogahiy, Munis Xorazmiy va boshqalar o‘zlarining badiiy asarlarida ajoyib ta’limiy, axloqiy, tarbiyaviy fikrlarini, tushunchalarini ifoda etganlar.

Ma’lumki, insoniyat o‘z hatti-harakatidagi, xulqidagi yo‘nalishlar, eng muhim belgilar mujassamlashib, shaxs faoliyatida, uning kamol topishida xulq-axloq qoidasining asosi bo‘lib xizmat qiladi.

O'rta Osiyo xalqlari sharqona ma'naviy-axloqiy qarashlarga boy va betakror an'analarga egadir, yuqoridagi fikrlar tasdig'i sifatida ilk manba, Qur'oni karim va hadisi shariflarni misol qilib olishimiz mumkin. Unda tilga olingan axloq, odob, ma'rifatga oid ibratli maslahatlar, hikoyalar asrlar davomida ajdodlarimiz ma'naviy kamolini ko'tarish uchun xizmat qilib kelmoqda.

Insoniyat olamida go'zal xulq egalari ko'plab mavjud bo'lganligini manbalar tasdiqlaydi. Shu o'rinda Payg'ambarimiz Rasululloh bunday xislatlarning timsoli sifatida e'tirof etiladi. Bu haqda alloma Muhammad Hisoriy shunday yozadi: "U kishining husni-xulqlari har jihatdan kamolotga yetgan, mukammal edi. Alloh taolo Nur surasining to'rtinchi oyatida payg'ambar alayhissalomni maqtab "Sen chindan ham yuksak ahloq egasisan", - degan. Hazrati Oysha raziyallohu anhu: "Payg'ambar alayhissalomning xulqi Qur'on edi. U Qur'on mamnun bo'lgan narsadan mamnun bo'lar, g'azablanganidan g'azablanardi", - deydi. Payg'ambar alayhissalomning o'zlari "Men go'zal axloqlarni kamolga yetkazish uchun yuborildim", - deganlar. Anas esa yuqoridagi ta'riflarni davom ettirib, "Rasululloh eng go'zal ahloq egasi edi. Muhammad alayhissalom xuddi boshqa payg'ambarlarga o'xshash ma'naviy va axloqiy barkamollikka erishgan edilar. Ular muboraklikka, payg'ambarlikka tanlanib Ollohning nuri dillarini yoritish bilan fazlu kamolot cho'qqisiga ko'tarildilar. Payg'ambarlikka xos bunday go'zal axloq va xislatlar behisob", - deydi[54, 60-61]..

Yoki, Imom Al-Buxoriy "Axloqning yaxshi bo'lishi, taomning pokizaligi, rostlik va omonatga xiyonat qilmaslik – mana shu to'rt xislatni Olloh Taolo senga bergan bo'lsa, dunyoviy ishlardan chetda qolgan bo'lsang ham, zarari yo'qdir", - deb yozadi [28, 201-61].

Diqqat qilsak, yuqoridagi e'tiroflar butun jahon ma'naviyati saltanatida o'z o'rinlariga ega bo'lgan buyuk allomalarning axloq, go'zal xulq haqidagi fikrlari hech bir davrda zavol topmaganligini ko'rsatadi. Ayni paytlarda ham bu fikrlar bugungi kun talabiga mos tarzda qalamga olingan deb ham o'ylaysiz. Sharqona ahloq haqida so'z borar ekan, zardo'shtiylarning muqaddas kitobi "Avesto"da ham

qadimgi turk yozma bitiklarida ham hech qachon qadr-qimmati yo‘qolmaydigan fikrlarni uchratish mumkin.

Bulardan tashqari, sharqona ahloq mavzusiga o‘zbek xalqi orasida keng tarqalgan pandnomalar, o‘gitlar va odobnomalarda, sharqona pedagogikada, diniy – falsafiy risolalarda, allomalar meroslarida keng o‘rin berilgan. Jumladan, eng qadimiy ta’limiy, axloqiy manba sifatida e’tirof etilgan “Qobusnoma” XI asrda yaratilgan bo‘lib, uning muallifi Kaykovus bu asarini “Sana 475 da boshladim”, – deya ma’lumot beradi. U bu asarini keksayganda yozadi va o‘g‘liga bag‘ishlaydi. “Qobusnoma” 44 bobdan iborat bo‘lib, deyarli har bobida inson shaxsi, tarbiyasi borasida to‘xtalib o‘tadi. Ayniqsa, yoshlarning ilm o‘rganish masalasiga Kaykovus alohida diqqat qiladi. Uning fikricha ilm olish insonni har tomonlama kamol toptiradi deya e’tirof etiladi.

Muallifning tarbiya borasidagi fikrlari orasida, diqqatga sazovar tomoni shundaki, uning faqat o‘g‘il bolalardan tashqari, qiz bolalar tarbiyasiga oid fikrlari ham muhim ahamiyatga egadir.

“Agar qizing bo‘lsa, uni mastura doyalarga topshir, toki yaxshi parvarish qilgaylar” (Qizing) katta bo‘lgandan keyin muallimga topshir “Balog‘atga yetgandan so‘ng... unga shafqat va marhamat ko‘rgazgil, chunki qiz otaning asiri bo‘lur. O‘g‘il otasiz bo‘lsa ham, u o‘ziga ish topa oladi. Qiz ojiz va bechora bo‘ladi. Har nimagaki ega bo‘lsang, oldin qizga bergil va uning mol halini tuzatgil”, [34, 59-60]. - deydi.

Bu bilan muallif, qiz bolalar ham ilmu ma’rifatda, kasb-hunarda o‘z zamonasida muhim o‘rin egallashlari mumkinligiga ishora qiladi.

“Qobusnoma”da o‘smir qizlarga kelajak avlodni tarbiyalovchi inson sifatida qaraydi va ularning ilmsizligi va harakatsizligi tarqqiyotni ortda qoldirilishiga sabab bo‘ladi. Shunday ekan, asarda tilga olingan ta’limiy, tarbiyaviy mulohazalar bo‘ljak onalarimizga o‘rnak bo‘ladigan qimmatli manba sifatida qaramoq lozim. Muallif, asarda aytilgan nazariy, ilmiy mulohazalarini hayotiy va amaliy misollar vositasida yoritib beradi. Chunki, u xalqning turmush tarzini sinchkovlik bilan kuzatgan va umumiy xulosalarini, qiziqarli bo‘lishini ta’minlashda, hayotiy

hikoyalar, maqolalar va donishmandlarning hikmatli soʻzlaridan oʻrni bilan foydalangan.

Buyuk alloma Abu Nasr Farobiy esa, inson kamoloti uchun muhim ahamiyatga ega boʻlgan axloqni bir muncha keng, atroflicha izohlab berdi. Uning fikricha inson axloqining bosh omili sifatida inson aʼzolarining mukammalligida, teran, zukko fikrligida, oʻtkir xotira, zehnlilikda, nutqiy ravonlikda, bilimlilikda, tartib intizomlikda, haqqoniylikda va boshqa insoniy fazilatlarining umumlashmasidan axloq hosil boʻladi deb hisoblaydi[16, 78-6et].

Darhaqiqat, birgina axloq soʻzida insoniy fazilatlarining umumlashmasi, jamlamasi mavjud boʻladi. Bu fazilatlar majoziy maʼnoda ikki jinsga-erkak va ayolga nisbatan ishlatiladigan boʻlsa, axloq soʻzining maʼnosi naqadar koʻlami keng ekanligini anglash mumkin.

Masalan, yigit kishi uchun diyonatli, gʻayratli, shijoatli, ilimli, intizomli, vijdonli, sadoqatli boʻlish eng muhim axloqiy fazilatdir.

Qiz bola uchun esa, yigitlarga xos fazilatlarining ayrimlari qisman tegishli boʻlish bilan bir qatorda, ularning oʻzlariga xos axloqiy aqidalari mavjud.

Har bir oilada voyaga yetayotgan farzandning ijodkori ona hisoblanadi. U farzandlar uchun oʻz kuch-gʻayratini, mehri-muhabbatini ayamaydi. Ayniqsa, oilada boʻy koʻrsatayotgan qizlarning axloqli, odobli, iffatli, hayoli, sabrli, intizomli qilib tarbiyalash ona zimmasiga tushadi.

Chunki, oilaviy munosabatdagi samimiylik oiladagi kattalarga ham, bolalarga ham taʼsir etadi, ularning rivojlanishlariga yordam beradi. Har bir oilaning azaliy oʻz anʼanalari boʻlganidek, Sharq xalqlarining ham oʻziga xos milliy anʼanalari, urf-odatlar mavjud. Bu anʼanalar milliy va tarixiy, madaniy, ijtimoiy, umumbashariy anʼanalar bilan ham maʼlum maʼnoda bogʻliq boʻladi. Gap oilada bola tarbiyasi haqida borar ekan, har bir farzandga xoh oʻgʻil boʻlsin, xoh qiz bola birinchi oʻrinda ularga hunar, adab, bilim berish ota-onadan farzandga merosdir.

Zero, Alisher Navoiy farzandlarni tarbiyalash haqida fikr yuritir ekan: “Yosh bolaga nisbatan eng zarur ish, balki uni kichkinaligidan parvarish qilishdir.

Qatrani sadaf qilgani uchun odamlarning boshiga chiqib sharaf topdi... Tarbiyaning yana biri unga ilmu adab o'rgatish uchun muallim chaqirishdir" [76, 704-6er].

Buyuk shoir aytgan fikrlar, bevosita qiz bolalarni tarbiyalashga ham dahldor bo'lib, ularni barcha ro'zg'or ishlarini yuritishga o'rgatishni, odobli va bilimli bo'lishini nazarda tutadi.

Yana bir muhim ahloqiy masala, o'smir qizlar uchun zarur bo'lgan shirinsuxanlik madaniyatini shakllantirishdan iboratdir. Chunki, qiz bolaning aqli va dunyoqarashini, fikr tuyg'ularini, bilimi va o'zini tutish madaniyatini, saviyasini tafakkurini ma'lum darajada so'zda ifoda etadi. So'z, muomala madaniyati, yuz va ko'z, tilning ko'rki hisoblanadi. Muomala madaniyatida so'z aqldan kuch, tildan ixtiyor oladi. Insonning odobi dastavval uning tilida, keyin tili orqali bilimida ko'rinadi.

Oilaning ko'rki bo'lgan qiz bolaning muomala madaniyati uning did farosatidan, fahm va odobidan darak beradi. Bu muhim axloqiy tarbiyaning e'tiborga molik jihatlaridan biridir. Muqaddas Qur'oni Karimda: "U biror kalimani so'zlay boshlar ekan, yonida uning so'zlarini taftish qiluvchi nazoratchi turadi", – degan oyat mavjud.

Oyatning mazmuni shundan iboratki, og'izdan chiqayotgan har qanday so'zlar, odamlar orasida tezlik bilan o'z bahosini oladi. Shunday ekan, ayniqsa qiz bola yoqimli, foydali, zaruriy mavzularda so'zlamog'i, o'zining did va farosatini, odobini namoyon etadigan fikrlarni namoyon etmog'i lozim[71].

Buyuk mutaffakir Mahmud Qoshg'ariy o'zining "Devoni lug'atit turk" asarida, so'zlash odobi, axloqi xususida ham mulohaza yuritar ekan, avvalo so'z qudratini yuksak baholaydi, inson til orqali o'zining yaxshi va yomon fazilatini namoyon etadi, o'zaro munosabatlar jarayonida shaxs sifatida shakllanishini alohida e'tirof etadi.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, qiz bolaning shirin muomalasi, uning jismoniy ko'rinishini go'zallashtiradi, atrofdagilarga quvonch bag'ishlaydi.

Bu ajoyib fazilatlarni o'zlashtirish, xushmuomalalik madaniyatini shakllantirishda so'z sehri katta ahamiyatga egadir. So'z sehri esa, bebaho xazina kitoblarda jamlangan.

Donishmandlar kitobni, inson qo'llariga qiyoslashadi. Chunki, u sizni nazorat qiladi va siz xohlagan ishni amalga oshiradi. Yana, kitoblar bilim manbai bo'lib, inson ulardan xohlagan sohaga doir ma'lumotlarni topa oladi. Eng muhimi, oldiga qo'ygan maqsadini amalga oshirish uchun ilk qadam singari bebaho ko'makchidir va qimmatli xazinadir.

Odatda balog'at yoki o'smirlik yoshidagi yigit – qizlar kitobga oshno bo'lsa, o'zlarining orzu – o'ylariga xamohang qahramonlar bilan xilvatda suhbat quradi. Bu hol har kuni kattalardan eshitadigan pandu nasihatdan kuchliroq ijobiy ta'sir qilganligi tajribada sinalgan.

Aslida, kitob ham odam kabi turmush hodisalaridan saboq beradi va ovozsiz gapiradigan beminnat suhbatdoshdir. Ayni shu haqiqatni anglagan ajdodlarimiz kitobga mehr qo'yganlar va sevib mutolaa qilganlar. Kitobni o'ziga yaqin oshno hisoblagan allomalar, olgan ilmlari uchun, hayotni o'rganganlari uchun, o'zlaridagi yaxshi xislatlarga ega bo'lganliklari uchun kitobdan minnatdor bo'lganlar va qimmatli oliy xazina sifatida e'zozlaganlar.

Mashhur shoir Abdurahmon Jomiy kitob haqida shunday yozadi: Kitobdan yaxshiroq do'st yo'q,

G'amho'ring bo'lgay u g'amosh zamonda,

U bilan qol tanho, hech bermas ozor,

Joningga yuz rohat beradi takror.

Bilimdonlar so'zi bordir bu bobda,

“Bilimdon go'rda-yu ilmi kitobda”,

Agar yolg'iz esang hamdam kitobdir,

Bilim subhidagi nur ham kitobdir.

Inson uchun kitob mutolaasi, hayotida uchraydigan kishilar bilan muomalada muloqot qilishga o'rgatadigan hayotiy ko'rgazmali qurol hamdir.

Kitob mutolaasiga, xususan ayollar ma'rifatida tutgan o'rni haqda Sharq allomalarining asarlarida qimmatli ma'lumotlarni uchratish mumkin.

Tabiiyki, kitob mutoalaasi, o'smir qizlarda hayo, ibo, iffat, andisha kabi insoniy fazilatlarini tarbiyalaydi va muhim tarbiyaviy vosita ekanligini uqtiradi.

Alloma hakim Ibn Sino tili bilan aytganda “Insonda doim turadigan husn va latofat hayo ila iffatdur, hayosiz yuz jonsiz jasad kabitur”.

Darhaqiqat, qiz boladagi hayoni dilni ravshan qiladigan nurga qiyoslash mumkin. Yana iffat, hayo ko‘proq qizlar, ayollar uchun olmosdan qimmat, injudan qadrli ziynat va fazilatdir. Aynan ana shu aqidaga amal qilgan Sharq allomalari, dono xalqimiz turli hikoyat va rivoyatlarni yaratganlar.

Shu o‘rinda, Sharq xalqlarining, mashhur “Ming bir kecha” kitobida asosiy qahramon, Sharq go‘zali Shahribonu tilidan hikoya qilingan ibratli hikoyatlarni misol qilib olishimiz mumkin. Hikoyatlarni so‘zlovchi sifatida ayol kishining tanlanishi ham, uning birinchidan aql zakovati tan olinganligini tasdiqlasa, ikkinchidan Sharq ayoliga bildirilgan hurmat va ehtirom belgisi ekanligini anglab olish qiyin emas. Shahribonu tomonidan hikoya qilingan bir rivoyat diqqatga sazovardir. Hikoyat “Kanizak qissasi” deb nomlanadi. U kichik, mo‘jazzgina bo‘lishiga qaramay, mazmun mohiyati jihatidan katta ma’rifiy-ta’limiy, axloqiy ahamiyatga egadir. Shuning barobarida hikoya qahramoni, hayoli, iboli, bilimlik dono kanizak qiz hisoblanadi. Hikoya bevosita Sharqda mashhur ilm – ma’rifat homiysi bo‘lgan, Xorun ar-Rashid (763-809) davri va uning nomi bilan bog‘liqdir.

Hikoyada aytilishicha, bir savdogarning Abdulhasan nomli o‘g‘li otasidan qolgan mol-mulkni qisqa vaqt ichida sarflab tugatadi.

Natijada bisotida bir kanizidan boshqa hech vaqosi qolmaydi. Hojasining tang ahvolda qolganini ko‘rgan kanizak, og‘ir vaziyatdan chiqishning yo‘lini o‘ylay boshlaydi. Shunda, u hojasiga qarata: “Meni halifa Xorun ar Xonuran – Rashid huzuriga olib boring va ming oltin qiymatida sotishingizni ayting”; - deb aytadi. Shuningdek, mening qiymatim ming oltindan ham qimmat turishini uqtiring. Bunga sabab, mening ilmim chuqurligini, qunt bilan o‘rganganimni, ishonmasa imtihon qilishini so‘ragin”, –deya uqtiradi. Abdulhasan kanizni olib Xonuran ar –Rashid huzuriga boradi va u tayinlagan so‘zlarni takrorlaydi. Xalifa kanizdan qanday ilmlarni bilishini so‘raganida u bilgan ilmlarini sanab beradi va xalifani hayratda qoldiradi. Kanizak ilmlarni dastlab arab tilining nahv (grammatikasini chuqur o‘rganishidan boshlaganligini, keyinchalik she’riyat, fiqh

va tafsir, lugʻat va musiqa, ilmi sitora va shammora (yulduz va quyosh ilmi), ilmi sanoq, qismat va masohat (yer oʻlcham) ilmlarini oʻrganganligini aytadi. Shuningdek, kanizak din ilmini yaxshi bilishini, Qurʻonni yetti xil qiroat bilan oʻqishini, hadislarining koʻpini yod bilishini ham hisoblab beradi. Aniq fanlardan handasa ilmi, riyoziyot, falsafa, mantiq, maoniy, shantranjni chuqur bilishini aytadi. Xalifa kanizakni, qorilar, olimlar, tabiblar, munajjimlar, faylasuflar, qoʻyingki, oʻsha davrda mashhur boʻlgan olimu ulomalar ishtirokida imtihon qiladi.

Alqissa, hamma imtihondan aʼlo darajada oʻtgan kanizak xalifadan bir necha ming tilloni olib, hojasining davlatini tiklaydi.

Hikoya, xalq tomonidan toʻqilgan afsona yoki rivoyat boʻlishi mumkin. Lekin, xalq ayol kishilarda ham ilm – fanni oʻrganish qobiliyati borligini, aynan bu ilmlarning sohibasi ayol – kanizak ekanligini, hikoya qilishar ekan, xalqimizning Sharq xotin-qizlariga boʻlgan hurmat va ehtiromi belgisi ekanligini isbotlab turibdi.

Darhaqiqat, kanizak oʻzlashtirgan ilmlar majmuasi asrlar davomida maktab, madrasalarda oʻrganilganligi haqiqatdir. Eng muhimi hikoyatda ilgari surilgan fikrda, kanizning mazkur ilmlarni oʻrganish uchun mustaqil, har sohaga oid kitoblarni oʻqiganligini, tinimsiz izlanganligini uqtirishdan iboratdir. Haqiqatdan ham, har qanday zamonda ham ilm-maʼrifatni qadrlagan xonadonlar qizlarini savodli, ziyoli, bilimli qilishga intilganlar. Dastlab, ichkarida xususiy tarzda ochilgan qizlar maktablarida savod chiqarganlar. Qizlarga saboq beradigan otin oyilar, asosan oʻqimishli, madrasa koʻrgan akasi, otasi, bobosi qoʻlida ilm oʻrganganlar yoki ular ham xususiy ustozlar qoʻlida taʼlim olganlar. Shu nuqtai nazardan oladigan boʻlsak, otin oyi, muallimlarning bilim berish saviyasi u taʼlim olgan darajada muhiti bilan bogʻliq boʻlgan.

Ichkarida otin-oyilar oʻz shogirdlariga imkon qadar arab yozuvini, Qurʻon va hadis ilmini, adabiyot, qisman aruz nazariyasini oʻrgatganlar. Mashgʻulot jarayonida Sharq adabiyoti namunalarini oʻqishga eʼtibor qilganlar.

Eng muhimi, o'g'il bolalar maktablaridan farqli o'laroq qizlarga asosan, odob, ahloq borasidagi tarbiyaga oid ma'lumotlar berib borilgan. Muallimalik kasbini tanlaganlarni Farg'ona, Toshkentda "Otin-bibi", "Otinoyi", Buxoroda "Bibixalifa" yoki "Bibi otin", Xorazmda "Elti bibi" nomi bilan ataganlar va ularga hurmat, ehtirom ko'rsatganlar.

Balog'at yoshidagi qizlarga ta'lim bergan, ustozlik qilgan otinbibilar yurtimizning barcha hududida uchraydi. Ular o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, qizlarga ta'lim berishga harakat qilganlar. Hatto maxsus ta'lim maskanlari ham faoliyat olib borgan. Shu o'rinda qadimiy tariximizning yorqin sahifasini tashkil etgan, ilk xotin-qizlar madrasasi, uni bunyod etgan shaxs ham ayol kishi ekanligini tasdiqlovchi tarixiy ma'lumotlarni keltirish mumkin. Bu Surxondaryo viloyatida mavjud bo'lib, Qirq qiz qal'asi nomi bilan yuritiladi. (Hozirda bu ta'lim maskanining qoldiqlari saqlangan). Qirq qiz qal'asi haqida, unda o'rganilgan ilmlar, qizlarga o'rgatilgan kasb – hunarlar xususida xalq orasida turli rivoyatlar, qissalar, hattoki dostonlar yaratilganligi haqidagi ma'lumotlar mavjud. Rivoyatlardan biri, bevosita shu qal'ada yashagan dushman hujumini qaytargan qahramon qiz Guloyim va uning qirq dugonalari haqidadir.

Bu qal'a tarixi bilan bog'liq ayrim ma'lumotlar manbalarda ham uchraydi. Surxon vohasidan yetishib chiqqan mashhur alloma Yusuf Hayom ibn at-Termiziyning onalari Ummu Gulsum va uning dugonasi Binni Tanzilaning aytishicha, "Otam ibn Varoq at-Termiziy va hayotimning sururi –umr yo'ldoshim ibn Hoshimiyning padari buzrukvorlari, ya'ni qaynotam, bu qal'ani menga in'om etganlar. Undan so'ng men bu qal'aga qirqdan oshiq qizlarni turli mamlakatlardan jamlab, har biridan qirq imtihon olganman. Ularning qobiliyati va iqtidoriga qarab, qirq mavzudagi qirqa ilmni o'rgatganman. Bundan turli har xil hunarlarni, ayniqsa ilmi befanda (bichish – tikish, otda yurish)ni o'rgatganman. Farzandim va jiyanim (akamning qizi) Ruhaydoga o'z qizimni omonatga topshirdim. Unga shu qal'a va ilmim ham oxiratgacha o'lmas ilm bo'lishini ta'minlashini buyurdim" qabilidagi ma'lumotni hikoya qilib berdi [96].

X-XI asrga kelib, Ruhaydo va Xuraydalar bu joyni avval maktab, so'ngra madrasa, bugungi kun tili bilan aytganda, ayollar akademiyasiga aylantirishgan.

Qizlarga ilm berish bilan bog‘liq maskanlardan yana biri, masjid-madrasa Buxoro viloyatining Jondor tumanida joylashgan. U ham ma‘rifatparvar ayol tomonidan barpo etilgan bo‘lib, u ham “Qirq qiz” nomi bilan yuritiladi. Yuqoridagi ma‘lumotlardan ko‘rinadiki, Sharqda millatning taraqqiyoti xotin-qizlarning ma‘rifatida, ilmiy dunyoqarashida, ma‘naviyati va mafkurasida ekanligini, shuningdek, kelajakning, millatning tayanch onalari ekanligini tasdiqlab turibdi. Yana, kelajak avlodni aqlli, tarbiyali, yaxshi xulq va sog‘lom e‘tiqod egalari bo‘lishlarida ham ko‘proq onalar xizmatiga bog‘liq ekanliginin avlodlarimiz teran anglaganlar.

Shu boisdan, qizlarni o‘smir yoshidan tarbiyasiga e‘tibor berganlar, ilmiy bo‘lishlari uchun, kitob o‘qishga da‘vat etganlar. Darhaqiqat millatni xor va taraqqiyotdan ortda qoldiradigan narsa onalarning ilmsizligi va harakatsizligida. Bugungi kunda Forobiy, Ibn Sino, Imom Buxoriy kabi olimlar nega yetishib chiqmayapti? Chunki, ulug‘ olimlarni ulug‘ onalar tarbiyalaydi, - deydi Sharqshunos olim Rizouddin ibn Faxriddin o‘zining “Mashhur xotinlar” (Tarixda nomi chiqqan ayollar) nomli asarida [93].

Muallif yana bir o‘rinda Sharqda ulamo mansabidagi zotlarning ko‘pchiligi: “Qizlarni maktabda o‘qitish, ularga yozuv – chizuvni o‘rgatish kerak emas”, - deya shariat nomidan jar solishayotganlarga qarshi chiqib, nafaqat yozuv-chizuv, balki ularni kitobxonlikka jalb etish lozimligini aytadi.

Chunki, kitobxonlik qizlarga ta‘lim usuli, tarbiya nizomi, go‘zal ahloq, muomala usuli, o‘zini tutabilish odobi, zehnni poklash yo‘llarini o‘rgatadi. O‘smir qizlar savodxonligi va zarurati bilan bog‘liq manbalar, ma‘lumotlarga duch kelamiz. Shu o‘rinda, mashhur tarixchi, ikki tilda ijod qilgan shoira Dilshodi Barnoning maktabdorlik faoliyati bilan bog‘liq ma‘lumotlar diqqatga sazovordir. U 50 yildan ortiq muallimlik qilib, qizlarga xat – savot o‘rgatgan, ta‘bi nazm qizlarga she‘riyat ilmidan dars bergan. “Hamdam va hamsuhbatlarim zehnli sohibi nazm yosh shoiralar bo‘lib, 51 yil maktabdorlik qildim. Maktabda a‘lo va o‘rta o‘quvchilardan doimo 20-30 qiz ta‘lim olar edi. 891 qizni savodli qilib chiqardim. Bulardan yaqin to‘rttdan bir qismi tab‘i nazmi bor oqila qizlar edi”, - deydi

Dilshodi Barno o'zining "Tarixi muhojiron" asarida [39]. U shogirdlari orasida: "Anboroy sakkizdan o'n to'rt yoshgacha adab ta'limiga mashg'ul bo'ldi. Bu sakkiz yashar qizcha yoshligiga qaramay, hazrat Navoiy g'azaliyotlarini o'rganishga behad qiziqardi. Umidim borki, qizcha katta shoira bo'lg'usidir" [39]. Haqiqatdan ham Dilshod otin umid qilganidek, uning shogirdi Anbar otin nomi bilan katta shoira bo'lib yetishdi va o'zbek adabiyoti tarixida o'zining betakror ijodiy merosi bilan o'rin oldi. "Qizlar maktablarida o'qitish tartibi haqida pedagog olim U.Dolimov quyidagi ma'lumotlarni keltiradi. "Qizlar maktablarida ham hijo (bo'g'in-hosil usuli) qo'llanilgan. Abjad hisobi haqida ma'lumot berilgan. Abjaddan keyin "xaftiyak" o'rgatilgan "xaftiyak"da 13-14 kichik-kichik suralar jamlangan bo'lib, "Qur'on"ni o'qish va yodlash uchun bir bosqichdir. Shuningdek, "Chor kitob" o'qitilgan va kitob o'qib tugatilgach, forsiy va turkiy adabiyotning buyuk namoyondalaridan Xo'ja Hofiz, Alisher Navoiy, Bedil, Fuzuliy, So'fi Olloyor va boshqa ijodkorlarning asarlarini o'qiganlar" [47].

Yuqorida tilga olingan ma'lumotlardan ko'rinadiki, o'smir yoshidagi qizlar tahsil olgan maktablarda mumtoz adabiyot namunalarini o'rganish eng muhimi, mustaqil kitobxonlik masalasi yaxshi yo'lga qo'yilganligidan darak beradi.

Ma'lumki, o'zbek xalqi – o'tmishdan eng ko'p shoira yetishtirgan bo'lib, ular qizlar maktablarida savod chiqarmaganlarida, mustaqil kitobxonlik qilmaganlarida, podshohlar saroyiga mansub bo'lgan Gulbadanbegim, Zebuniso, Nodirabegimlarini, XIX asrning o'zida Uvaysiy, Mahzuna, Dilshodi Barno, Muazzamxon, Muattarxon, Anbar otin, Qambarniso, Mutriba, Nozimaxonim kabi o'nlab mashhur shoiralar qayerdan yetishib chiqqan bo'lar edi?

Sharq allomalaridan biri, pedagogikaga oid qator asarlar yaratgan Abdulla Avloniy o'z ahloqiy – ta'limiy asarlarini yaratar ekan, Sharqda mashhur bo'lgan o'zbek va tojik allomalarining asarlaridan ijodiy foydalanadi. Bu asarlar uning pedagogik ijodining taraqqiyoti uchun katta zamin hozirlaydi.

Uning "Turkiy guliston yoxud axloq" kitobi 64-bobdan iborat bo'lib deyarli har bir bobi ta'lim - tarbiya masalasiga bag'ishlanadi va biri ikkinchisini to'ldiradi, takomillashtiradi, yozuvchi bola tarbiyasi haqida so'z yuritir ekan, tarbiya

bolaning xulqiga, xulq atvoriga kuchli ta'sir etishini alohida ta'kidlaydi. Ota-onalar o'z bolalarini turli tarbiya usullaridan foydalanib, kamolga yetkazishga chaqiradi.

“Ahloq tarbiyasi, – deydi Abdulla Avloniy, - insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi axloqiy tarbiyadir” [13].

Darhaqiqat, olim axloqiy tarbiya haqida fikr bildirar ekan, Abdulla Avloniyning Sharq pedagogikasi fanini yaxshi bilganidan, bu sohada kuchli va keng ma'lumotga ega bo'lganidan dalolat beradi. Buni biz, allomaning pedagogikaga birinchi marta Sharqona to'g'ri ta'rif berganidan ham bilib olishimiz mumkin. U “Pedagogika o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash to'g'risidagi fandir”, -deya nomlaydi. Haqiqatdan ham bola tarbiyasida, u yashab turgan sharoit, muhit, kishilarning tutgan o'rni nihoyatda kattadir. Bu sohada ayniqsa oila, maktab sharoiti ham muhim ahamiyatga egadir. Shuning barobarida, ayniqsa balog'at yoshidagi qiz bolalar ahloqiga, ma'naviyatiga xulq-atvoriga kuchli ta'sir etadi.

Ta'lim bilan tarbiya bir-biri bilan uzviy bog'liq bir butun jarayon hisoblanadi. Sharq xalqlarining asrlar mobaynida orttirgan tajribalaridan kelib chiqib, balog'at yoshidagi qiz bolalarning, ahloqiy, ma'rifiy, ma'naviy tarbiyasini ramziy ma'noda uch toifaga bo'lish mumkin:

Birinchisi: Bu toifaga oq bilan qorani bilmaydigan, farqiga bormaydigan qiz bolalar kiradi. Ular tabiatida yomonlik, axloqsizlik, shakllanmagan. Bunday qizlarga pand-nasihat tez ta'sir qiladi. Shu bois ularni to'g'ri yo'lga solish, tushuntirish oson yo'l bilan amalga oshiriladi.

Ikkinchi toifa qizlar, atrofidagi kattalar, do'stlarining ta'siri natijasida oq qorani ajratadigan bo'ladilar. Ular fikridagi qisman hosil bo'lgan ikkilanishlar tufayli, yaxshilik, ezgulik sari qadam qo'yishlari bir oz qiyin kechadi. Ular ayrim hollarda o'zlaridagi kamchiliklarning xato ekanligini tushunadilar. Bunday qizlarni tarbiyalash birinchisiga nisbatan qiyinroq kechadi. Ammo ularga doimiy ravishda kattalar har tomondan nasihatlar va tanbehlar berib borilsa, e'tibordan chetda qoldirilmasa yaxshi xulqli qilib tarbiyalash mumkin.

Uchinchi toifaga mansub o'smir qizlar tarbiyasi bir oz murakkab bo'lib, ular voyaga yetayotgan oila muhiti bilan bog'liqdir. Chunki bunday oilada, kattalar

tomonidan muttasil nohaq ishlarni haq deb bilib kelish odat tusiga kirgan va shunga o'sib kelayotgan qizlarni ishontirgan. Yoki, yomonlik qilsalar ham o'zlaricha yaxshilik deb hisoblaydigan oilalarda oddiy hodisa deya qaraganlar. Bu hol o'smir qizlar ruhiyatiga vaqt o'tishi bilan singib boradi. Bunday qizlarni axloqli qilib tarbiyalash ancha mushkuldir. Shuning uchun ham xalqimiz azaldan yaxshi va yomon xulqlarning hosil bo'lish sabablarini oilaga bog'laydilar. Ularning aytishlaricha, axloqsiz, odobsiz, onadan tug'ilgan va razil, vijdotsiz ota qo'lida tarbiyalangan qizlardan yaxshilik kutish qiyin deb hisoblaganlar.

Haqiqatdan ham chiroyli xulq xuddi oftobga o'xshaydi. Oftob muzni eritgani kabi, chiroyli xulq ham barcha yomonliklarni eritib yuboradi.

Xalqimizda yana bir buyuk hikmat bor: "Ota-onasi o'lgan odamni emas, odob-ahloqi bo'lmagan odamni yetim de".

O'zbek xalqi o'zining axloqiy-estetik madaniyatini qadimdanoq afsonaviy obrazlarda ifodalab kelganiga guvoh bo'lamiz. Milliy qahramonlarimiz – Shiroq, To'maris, Alpomish, Jaloliddin Manguberdi kabi obrazlar orqali o'z xalqiga fidokorlik, vatanga mehr-muhabbat, mardlik va fidokorlik, do'stlik va sadoqat kabi xislatlar hayotiy tajribalar asosida xalqning ma'naviyatiga singdirib kelingan. Ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida yaratilib kelinayotgan deyarli barcha asarlarda ta'lim, tarbiya va odob-axloq uning asosiy mazmunini tashkil etib kelgan. Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da keltirilgan oila va shar'iy nikoh odoblari, ota-onalar va farzandlar munosabati, ularning burch va vazifalari, uylanish va kelin tanlash xususidagi g'oyatda qimmatli fikrlar bugunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Shuningdek, "Avesto"da oila-nikoh munosabatlari, oilaviy burch va farzand tarbiyasi xususida bir qator fikrlar bayon qilingan[56]. Xalqimiz uchun ma'naviyat elchilari hisoblanmish Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy, Abu Muhammad Abdulloh ibn Abd ar-Rahmon ad-Dorimiy asSamarqandiy Beruniy, Ibn Sino, Xorazmiy, Farg'oniy kabi ko'plab muhaddislar yetishib chiqqan. Buyuk allomalarning yaratgan asarlarida odob-axloq va ilmga munosabatga alohida e'tibor berilgan. Ajdodlarimizning nafaqat asarlari, balki ularning o'zlari ham

ta'lim va tarbiyada barchaga o'rnak bo'la oladigan insonlar sifatida mashhur bo'lganlar. Bu insonlarning buyuk allomalar sifatida shakllanishida, albatta, ularning oilaviy muhiti asosiy rol o'ynagan. Allomalarning ota-onasi yoki yaqin qarindoshlari buyuk insonlarni yoshligidanoq ilm olamiga olib kirishda asosiy sababchi bo'lgan. Manbalarda yozilishicha, Imom Buxoriyning (810-870) onasi nihoyatda oqila, diyonatli va fozila ayol bo'lib, o'g'lining ko'zi zaifligidan qattiq tashvishga tushgan va doimo uning ko'rish qobiliyatini qaytarish uchun duoda bo'lgan. Otasidan erta ayrilgan Imom Buxoriyning asosiy tarbiyachisi va ilm yo'liga boshlovchisi onasi bo'lgan. U farzand sifatida onasini juda hurmat qilgan va boshqalarni ham ota-onasini qadrlashga da'vat qilgan. Imom al-Buxoriy ahamiyatiga ko'ra Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi ma'naviy manba deb e'tirof etilgan "Al-Jome' as-Sahih" va undan keyingi "Al-adab al-mufrad" ("Adab durdonalari") asarlarida axloq, odob, farzandlarni ota-onaga hurmatda bo'lishga, onani e'zozlashga, mehr-oqibatli, ilm o'rganishga, pok va iymonli bo'lishga da'vat etgan. Imom al-Buxoriy madrasada toliblarga dars berish bilan bir qatorda, ularga maoshlar ham belgilagan. Manbalarda miskinlar va ilm ahlini doimo moddiy tomondan qo'llabquvvatlaganligi alohida qayd etilgan. Uning pokiza va diyonatli inson sifatidagi tavsifi ko'plab zamondoshlari tomonidan e'tirof etilgan. Shuningdek, o'zining shaxsiy hayotida ortiqcha dabdaba va behuda sarf-xarajatlarga yo'l qo'ymagani va nihoyatda sabr-toqatli inson ekanligi alohida qayd etilgan[57]. Imom Buxoriyning shoh asari "Al-Jome' as-Sahih" bashariyatga qoldirilgan tengsiz ma'naviy meros bo'lib, islom dinida Qur'oni Karimdan keyin e'zozlanadigan ikkinchi manbadir. "Al-Jome' as-Sahih" ham diniy, ham dunyoviy ahamiyatga molik asardir. U har bir insonni o'zi va mahzabidan qat'i nazar iymon-e'tiqodli bo'lishga, halollik, poklik, rostgo'ylik fazilatlarini qalbiga singdirishga, hayotini ezgulik, savob ishlarga bag'ishlashga, o'zidan yaxshi nom qoldirishga da'vat etadi. Oila, farzand tarbiyasi, otaonalar hurmatini joyiga qo'yish, ilm-ma'rifatli bo'lish, Vatanni sevish xususida shunday ajoyib g'oyalar va ta'limotlarga boyki, ular o'z ahamiyatiga ko'ra umumbashariy qimmatga egadir. Unda kundalik turmush muammolari, odob-axloq, kiyinish, muomala, rasm-

rusmlar, savdo-tijorat singari inson bolasi har kun duch keladigan, jamiyatni yuksaltirishga ko'maklashadigan masalalar ifodalangan[19]. Bu qisqa ma'lumotlar Imom Buxoriyning bebaho asarlari haqida emas, balki uni iqtidorli talaba, yuksak saviyali ustoz, pokiza va oliyjanob inson sifatidagi qirralarini ochib beradi. Uning bunday bebaho xislatlari dunyoda buyuk alloma sifatida shakllanishiga zamin bo'lib xizmat qilgan bo'lib, zamonamizning bugungi kundagi yoshlariga ibrat vazifasini o'taydi. Manbalarda Al-Hakim at-Termiziy (820-932) oilasi haqida bir qancha ma'lumotlar uchraydi. Uning onasi va bobosi hadis ilmining yetuk bilimdonlari hisoblangan. Otasi Ali ibn al-Hasan esa o'z davrida hadis ilmining taniqli olimlaridan biri bo'lib, Hakim at-Termiziy: "Alloh taolo mening ustozim-volidimdan judo qilganda men sakkiz yoshda edim. Uning sa'y-harakatlari bois men ilm olishga shunday berilib ketgandimki, kitob mutolaa qilish men uchun asosiy mashg'ulot bo'lib qolgan edi. Vaholanki, mening tengqurlarim o'yin-kulgu va vaqtixushlik bilan band bo'lar edilar. Volidamning ijtihodlari tufayli men shu yoshimda "Ilm al-osor"(hadis ilmi) va "Ilm ar-ray" (xanafiy mazhabi fiqhi) bilimlarini to'liq egallab olgan edim" [58], – degan so'zlari uning ilm cho'qqilarini egallashda otasining o'rni qay darajada ekanligidan dalolat beradi. Hakim at-Termiziy ota-onasining yolg'iz farzandi bo'lib, 27 yoshida do'stlari bilan Bag'dodga o'z ilmini mukamallashtirish maqsadida safarga o'tlanadi. Lekin onasining betoblighi tufayli uni tashlab keta olmaydi. Manbalarda uning oilaparvar va insoniylik xususiyatlari, oltita farzandi, fozila va oqila ayoli haqida ma'lumotlar keltirilgan[59]. Abu Nasr Forobiy (873-950) O'rta Osiyoning buyuk mutafakkiri, islom falsafasining yirik vakili, insonparvarlik va axloq ta'limotini yaratgan allomadir. Faylasufning falsafiy, ijtimoiy, siyosiy, axloqiy qarashlarida insonparvarlik ruhi sezilib turadi. Ayniqsa, uning "Fozil odamlar shahri", "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Fuqarolik siyosati", "Buyuk kishilarning naqllari", "Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola" kabi asarlarida insonparvarlik haqida qimmatli fikrlarni ilgari surgan. Forobiy ta'lim faqat so'z va o'rganish bilan, tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshirilishini aytadi va tarbiyani har bir xalq, millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ish-harakat, kasb-

hunarga o'rganishdan iborat, deb hisoblaydi. "Baxt-saodatga erishishning birdan bir yo'li barcha ezgu ishlarni xayrli niyatlar ila bajarish, fazilatli amallarga tayanish barobarida razolat va baxtsizlik kelib chiqarish mumkin bo'lgan ishlardan o'zini tiya bilishidir" [16], – deydi mutafakkir. Abu-l-Lays as-Samarqandiy (911-985) fiqh ilmida yuksak martabaga erishgan alloma bo'lib, u ma'rifatli oilada tavallud topgan. Uni ilmga bo'lgan qiziqishini dastlab otasi uyg'otgan. Abu-l-Lays avlodlari ham ilm ahillaridan tashkil topgan. Oiladagi ilmiy muhit uni kelajakda 30 dan ortiq islom ilmlarining barchasini o'zida qamrab olgan fiqh, tafsir, hadis, zuhd bo'yicha asarlar yaratishiga zamin bo'lib xizmat qilgan[60]. Ibn Sino ta'lim-tarbiya va axloqqa oid "Tadbir al-manozil" ("Turar joyni boshqarish choralari"), "Risola fi ilm al-axloq" ("Axloqqa oid risola"), "Risola fi al-ahd" ("Burch haqida risola"), "Risola fi tazkiyat an-nafs" ("Nafsni pokiza tutish to'g'risida risola"), "Siyosat al-badan" ("Badanni boshqarish"), "Kitob al-ansof" ("Adolat haqida kitob"). "Al-urjuza fit-tibb" ("Tibbiy urjuza") asarlari mavjud. Ibn Sinoning "Axloq haqida risola" asarining qo'l yozmalaridan biri O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik institutining kitob fondida mavjud bo'lib, bu asar 1908-yili Misrda Ibn Sinoning "Hikmat va tabiatga oid to'qqiz risolasi" kitobi ichida (152-156-betlar) nashr qilingan. Ibn Sino o'zining "Axloq haqidagi risola"sida axloqiy xislatlardan or-nomus, sha'n, qadr-qimmat, qanoat, saxiylik, g'ayratlilik, sabr-toqat, halimlik, sirni saqlay bilishlik, ilm-ma'rifatli bo'lish, ochiqlik, vijdonlilik, do'stlik, sadoqatlilik, kamtarlik, saxiylik, adolatlilik kabi shaxs ma'naviyatining toifalariga ta'rif berib chiqadi. Masalan, "G'ayratlilik" g'azabiy quvvatga mansub, bunda inson har qanday og'riq va alamlarga befarq qaraydi. "Qanoat", ya'ni mo'tadillikka ta'rif berib, Ibn Sino uni tana uchun normadan ortiq ozuqani iste'mol qilishdan saqlanish yoki xulq normalariga to'g'ri kelmaydigan ishlarni qilmaslik deb tushuntiradi. "Sabr" insondagi shunday quvvatdirki, u orqali inson boshiga tushgan yomonlikdan xoli bo'ladi. "Vijdonlilik" tez fahmlash, his orqali berilgan biror narsaning haqiqiy ma'nosiga tez etishdir va turli xil yomon ishlardan o'zini tiyib turishdir. "Rahmdillilik" – omadsizlikka uchragan yoki boshqa og'ir kulfat tushgan

insonlarga hamdard bo'lish. Ibn Sinoning axloq va odob borasidagi qarashlari uning shoh asarlari bo'lmish "Tib qonunlari" [20], "Ash Shifo"larning deyarli barcha qismlarida, shuningdek, uning badiiy asarlarida, ayniqsa, tibbiy poemasi "Hayy ibn Yaqzon", "Qush risolasi"da ham o'z aksini topgan. Ibn Sino o'zining "Uy-joy tutish tadbiri" haqidagi asarida ayollarning o'n etti xislatini sanab ko'rsatadi. Unga ko'ra, dastlab ayol oqila va imonli, sharm-hayoli va or-nomusli, didli va farosatli, orasta, o'z eriga sadoqatli, itoatkor, dilkash, bexarxasha, pokiza, vazmin, muloyim va o'zini tutib olgan jiddiy va ulug'vor, har bir xatti-harakatida yaxshi xislatlari sezilib turadigan tejamkor, erining og'ir damlarida unga malham bo'la oladigan mushfiq-u mehribon bo'lishi kerak. Demak, Ibn Sino bu yerda ayollarning donoligini maqtaydi. Uningcha, agar ayol oqila bo'lsa, o'z erining ishonchli do'sti va hamdardi bo'la oladi, u bevafolikni qoralaydi, oilani halokatga olib boradigan narsa, o'sha bevafolik, deydi. Abu Rayhon Beruniy (973-1048) fan olamida, tafakkur xazinasida alohida o'ringa ega bo'lgan ilmiy meros qoldirgan olimlardan hisoblanib, uning "Minerologiya", "Hindiston", "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" kabi asarlarida tafakkurga, ilmga, falsafaga, ta'lim-tarbiyaga, mehnatga oid hamda kasbhunarlarni egallashning ahamiyati to'g'risida fikrlari bayon qilingan. Abu Rayhon Beruniy butun umrini ilmga bag'ishladi. "Aql va ma'rifatda hali unga o'xshash biror kishi davron yarata olgani yo'q", – deb yozgan edi XIII asr tarixshunosi Yoqut. Abu Rayhon Beruniy doimo mehnat va ilm insonni ulug'laydi degan fikrni ta'kidlab kelgan. Jumladan, o'zining "Minerologiya" asarida: "Mehnatsiz shon-shavkatga, martabaga erishgan kishi hurmatga loyiqmi? Yuqori martabaga mehnatsiz erishgan kishi farog'at soyasida yashaydi, yaxshi kiyinadi, ammo ulug'lik libosidan mahrum, yalang'ochdir", – degan edi. Agar biz allomalar hayotiga nazar solsak ularning yana bir namunali xislatiga duch kelamiz. Bu ularning bir necha tillarni mukammal o'zlashtirgani, shu bilan bir qatorda bir necha madrasalar va ko'plab ustozlar qo'lida ta'lim olganligidir. Ta'lim olish va ilmiy izlanishda ular uchun hech qanday masofa yoki hududning ahamiyati bo'lmagan. Mashxur ustozlar yashagan har qanday hudud ilm ahlini doimo o'z bag'riga tortgan. Abu Abdulloh Muhammad Ibn Muso al-

Xorazmiy butun dunyo ilm-fanini zabt etgan qomusiy olimdir. Uning riyoziyot va falakiyot faniga asos solgani o'z zamonasida ham, hozir ham barcha olimlar tomonidan tan olinmoqda. Bo'lg'usi yirik olim oldin mantiqiy fikrlash malakasini oshirgan, asosiy e'tiborini til o'rganishga qaratgan. Natijada Xorazmiy o'z tili bilan bir qator turk, arab, fors va yahudiylar tillarini puxta egallagan. Uning bir qancha tillarni mukammal bilishi dunyo olimlarining asarlarini o'rganishda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Yana shunday allomalardan biri islom huquqi, ayniqsa, xanafiy mazhabi rivoji yo'lida bebaho ilmiy meros qoldirgan Burhoniddin Marg'inoniy (1123-1197) bo'lib, Marg'inoniy iste'dodi tufayli buyuk faqih darajasiga ko'tarildi va shayxulislom nomiga sazovor bo'ldi. Bu alloma nafaqat o'zi, balki o'g'li Imoduddin ibn Burhoniddin al-Marg'inoniyni yetuk faqih va she'riy iste'dod egasi bo'lishiga hamda nevarasi Muhammad Abdulfath Jaloluddin al-Farg'oniyni ilm sohasi bilan shug'ullanishiga sabab bo'ldi (u 1253-yilda Samarqand shahrida sud mahkamalariga doir asarini yozgan) [18]. Alouddin as-Samarqandiy o'z davrining yetuk faqihi bo'lib, ilm-fan rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shgan. U haqidagi ma'lumotlar juda oz bo'lishiga qaramasdan, uning asarlari Movarounnahrda fiqh sohasiga katta hissa qo'shganligi va o'z maktabini yarata olganligiga guvoh bo'lamiz. U o'z asarlarida hadislardan ham asos sifatida foydalanganligi qayd etadi. Bu allomaning yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, u o'z qizi Fotimani yoshlik chog'laridanoq ilmga o'rgatgan. Qiroat, arab grammatikasi, fiqhdan dars berib, uning buyuk faqiha olima bo'lib etishishiga sabab bo'lgan[61]. Fotimaning bironta yozma asarlari haqida ma'lumot bo'lmasada, u o'z davrining ilmga chanqoq ayol timsolini yaratdi. Bu ma'lumotlar o'rta asrlarda Movarounnahrda ayollar va ilm-fanga bo'lgan munosabatlari qay darajada rivojlanganligidan dalolat beradi. Allomalar yurtining yana bir farzandi Xoja Bahouddin Naqshband (1318-1389) valiy inson bo'lib, o'z davrida ko'plab yuksak xislatli odamlarni tarbiyalagan va bebaho ma'naviy meros qoldirgan ulug' zotdir. Naqshbandiy asosiy tarbiya usulini suhbat deb bilib, suhbat orqali inson qalbiga kirib borish mumkin, deb hisoblagan. U odamlar ichra xilvatda bo'lishni rad etgan holda, biror bir kasb-hunar bilan mashg'ul bo'lib, Ollohning nomini qalbda

ushlashni targ'ib etgan. Uning "Dil – ba yor-u, dast – ba kor", ya'ni Oллоh qalbingda, qo'ling mehnatda bo'lsin, degan shiori ham aynan shu mazmunni o'zida mujassamlashtirgan. Allomalarning hayoti o'zining ko'p qirrali xususiyatlari bilan keyingi avlodlarga doimo o'rnak bo'lib kelgan. Ular mehnatsiz hayotni va kasb-hunarsiz insonlarni qadrlamaganlar va o'zlari ham hunarning biror turi bilan shug'ullangan. Masalan, Ali Romitaniy – to'qimachi, Muhammad Bobo Samosiy – bog'bon, Bahouddin Naqshband – naqqosh, to'qimachi va chorvador, Xoja Ubaydulloh Ahror chorvador va savdogar, Amir kulol – kulol, uning o'g'li Amir Hamza esa ovchi bo'lgan[62]. Ular hunarsiz kishilarni, hatto shogirdlikka ham qabul qilmaganlar.

Xoja Bahouddin Naqshband: "Elning yukini yengillashtiring, elga yuk bo'lmang", – degan hikmatli so'zlari insonlarga o'z xalqiga ortiqcha yuk bo'lmaslik, aksincha, unga madadkor bo'lib, jamiyat rivojiga o'z hissasini qo'shishga da'vat etgan. Temuriylar davrida ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar ancha yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarilgan. Sohibqiron Temur yosh avlodni tarbiyalashdagi maorifning beqiyos ahamiyatini anglab, masjid qoshidagi maktablar va madrasalarga keng o'rin berildi. U diniy tarbiyaga o'ziga xos bo'lgan islohotchi sifatida yondashdi va maktab tizimiga katta e'tibor berdi. Mirzo Ulug'bek o'z pedagogik qarashlarida bolalarning jismonan sog'lom, xarbiy xunarni puxta egallagan, jasur, mard bo'lib yetishuviga alohida ahamiyat beradi. Uning fikricha, ta'lim-tarbiyada matematika, falakiyot fanlari bolaning aqliy qudrati va qobiliyatini o'stirishda muhim vosita bo'lsa, tarix va adabiyot fanlari esa bolalarning vatanparvar bo'lib yetishishlariga xizmat qiladi. O'rta asr Sharq mutafakkirlarining ma'naviy-axloqiy qarashlari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmay, balki qayta-qayta asarlarni mutolaa qilishni talab qilmoqda. Chunki, birinchidan, mashhur allomalarning shaxsiy hayoti, buyuk insoniy fazilatlarini, ikkinchidan, mehnatni ulug'lovchi, halollik, insonparvarlik, ilmga chanqoqollik, kasb-hunar egallash va komillikka intilish kabi g'oyalari bilan sug'orilgan asarlarining tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir. Ular jahondagi globallashtirish

jarayonida milliy urf-odatlar, qadriyatlarni saqlab qolish va jaholatga qarshi ma'rifat sifatida to'g'ri yo'l tanlashda bebaho ma'naviy meros bo'lib xizmat qiladi.

Ajdodlarimiz qadimdan bola tarbiyasi, ayniqsa, qiz farzandning kamoli, istiqboli haqida qayg'urganlar. Zero, qiz bola bo'lajak ona. Ham jismonan, ham ma'nan sog'lom onalardan sog'lom farzand dunyoga keladi.

Islom dini ta'limotida qiz bola tarbiyasiga katta e'tibor qaratilgan. Imom Buxoriy "Al-adab al-mufrad" kitobida quyidagi hadisni naql etgan. Jobir ibn Abdulloh (roziyallohu anhu) aytadi: "Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam): "Kimning uchta qizi bo'lib, ularni o'z qo'lida tarbiyalab, katta qilsa, jannatga kirishi muqarrardir", dedilar. Shunda bir kishi: "Yo Rasululloh! Uning qizi ikkita bo'lsa-chi?" deb so'radi. U zot (sollallohu alayhi va sallam): "Ikkita bo'lsa ham", dedilar".

Qiz bolani har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, unga hamisha g'amxo'rlik qilishning ahamiyati yuksak, oqibati xayrlidir. Oyshadan (roziyallohu anho) rivoyat qilinadi. "Bir kuni mening huzurimga ikkita qizini (etaklab) bir ayol tilanchilik qilib kirib keldi. Mening huzurimda bitta xurmodan boshqa narsa yo'q edi. Men xurmoni bersam, ayol uni ikkiga ajratdi-da, ikki qiziga berdi. Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam) kirganlarida bu haqda xabar bersam, u zot: "Kim mana shu kabi qiz farzand bilan imtihon qilinsa (sinalsa), qizlarini chiroyli parvarish etsa, uning uchun jahannamdan parda bo'ladi", dedilar" (Muttafaqun alayh).

Qiz bola tarbiyasi shunchalar muhimki, inson farzandlari uchun sovg'a olib kelgan bo'lsa, uni tarqatishni avvalo qizlaridan boshlashi haqida ko'rsatmalar bor. Faqih Abul-lays as-Samarqandiy "Tanbeh al-g'ofiliyn" asarida quyidagi hadisni naql etgan. Anas ibn Molikdan rivoyat qilinadi: "Payg'ambar (sollallohu alayhi va sallam) aytdilar: "Kim bozordan farzandlariga hadya keltirsa, u sadaqa qilgan kishi kabi bo'ladi, hatto uni ularning og'ziga soladi. Tarqatishni qizlardan boshlasin, chunki Alloh taolo ayollarga yumshoqlik qildi. Kim ayollarga yumshoqlik qilsa, Allohdan qo'rqib yig'lagan kishi kabidir. Kim Allohdan

qo'rqib yig'lasa, uni Alloh kechiradi. Kim qizlari bilan xursand bo'lsa, Alloh qiyomat kuni uni xursand qiladi".

Ota va oila ahllari qizlari uchun yaxshi xulqli, taqvodor kuyov qidirishlari lozim. Uning boyligi va molini ko'zlashlari kerak emas. Agar sovchi qo'yuvchi xulqi yaxshi, taqvoli, sharaflil, muruvvatli, ilimli va ko'rkam bo'lsa, qanday yaxshi. Bu yigit turmush qurish ne'matiga va qiz unga hadya qilinishiga arziydi. Ular yaxshilik bilan turmush quradi va agar kelinning ba'zi ishlarini yoqtirmay qolsa, unga chiroyli muomalada bo'laveradi. Oysha (roziyallohu anho) dedilar: "Nikoh qullikdir. Shunday ekan, har biringiz o'zining izzatlisini (qizini) qanday joyga berayotganiga qarasin". Xalqimizda biror joyga sovchi bo'lib borganda, "Qulchilikka keldik" degan iborani ishlatish odati bor. Bunda nikohdan so'ng kimdir xoja, boshqa birov qulga aylanishi emas, balki nikoh mas'uliyatining yuksak ekani nazarda tutilgan. Ya'ni, nikohga quldek mehnat va xizmatni talab etadigan, o'ta jiddiy masala sifatida qaralgan.

Bo'lajak kuyovning millati, kelib chiqishi yoki dunyosiga emas, avvalo, oqil va solih bo'lishiga e'tibor qaratish zarurligi ta'kidlangan. Sha'biy (rahimahulloh) aytadilar: "Kim izzatlisini (qizini) fosiqqa nikohlagan bo'lsa, boshini yoribdi". Bir kishi Hasan Basriydan so'radi: "Qizimni kimga erga beray?" Imom javob berdilar: "Allohdan qo'rqqanga ber. Agar u qizingni sevsa, hurmat qiladi, agar yomon ko'rib qolsa, zulm etmaydi".

Oqil odam qizini o'ziga munosib, nomusini saqlaydigan, u bilan qarindoshlari qanoatlanadigan va qizini baxtli qila oladigan erga nikohlaydi. Shuningdek, qizini nikohga tayyorlashga ham muhim vazifa sifatida qaraydi. Zero, nikoh qiz bola uchun onalik saodati sari yo'l ochar ekan, unga jiddiy munosabatda bo'lish har bir oqil insonning burchidir. Imom G'azzoliy "Ihyou ulumiddin" kitoblarida Asmo binti Xorijaning turmush qurayotgan qiziga nasihatlarini keltiradilar: "Qizalog'im, o'sib-ulg'aygan uyingdan chiqding va o'zing tanimaydigan va oldin yaqin bo'lmagan kishining uyiga ketding.

U uchun yer bo'l, senga osmon bo'ladi.

U uchun o'rin bo'l, senga ustun bo'ladi.

U uchun cho'ri bo'l, senga u qul bo'ladi.

Unga xiralik qilma, yoqtirmay qoladi.

Ya'ni, hadeb undan har narsani talab qilaverma, zada bo'ladi.

Undan uzoqlashma, esdan chiqarib qo'yadi.

Senga yaqin bo'lsa, unga yaqin bo'l.

Sendan uzoqlashsa, undan uzoq bo'l.

Uning burni, qulog'i va ko'zini muhofaza qil, sendan faqat shirin hidlasin, faqat go'zal so'z tinglasin va sening chiroyingni ko'rsin".

Mazkur rivoyatda qiz bolani nikohga tayyorlashning ibratli tomonlari mujassam. Afsus, ba'zi onalar turmushga chiqayotgan qizlariga oiladagi ustunlikni qo'lga olish, er va qaynonaga bo'sh kelmaslik haqida "nasihat" qiladilar. Bu ishning noto'g'riligi "U uchun yer bo'l, senga osmon bo'ladi, u uchun o'rin bo'l, senga ustun bo'ladi", misralari ko'rsatib turibdi. Ya'ni, kelin kuyovga qanchalik muhabbat va sadoqat ko'rsatsa, kamtarlik bilan muomala qilsa, unga ham kuyovdan shunday iliqlik va samimiylik qaytishi tabiiy.

Fussilat surasi 34–35-oyatlarida yomonlikni yaxshilik bilan daf etish borasida bunday ko'rsatma bor: "Yaxshilik bilan yomonlik barobar bo'lmas. Siz (yomonlikni) go'zalroq (muomala) bilan daf eting! (Shunda) birdan siz bilan o'rtalaringizda adovat bo'lgan kimsa qaynoq (qalin) do'stdek bo'lib qolur. Unga faqat sabrli zotlarga erishurlar, unga faqat ulug' nasiba egasigina erishur".

Demak, ayol o'z turmush o'rtog'iga qanchalik yaxshi munosabatda bo'lsa, bu hol oilaning mustahkamlanishi, kelajakda erdagi ba'zi qusurlarning bartaraf bo'lishida va uning tom ma'nodagi oila boshlig'i sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Zotan, qizlarni tarbiyalash va ularga nikoh mas'uliyatini anglatish mustahkam va barqaror oilalar qurilishi uchun muhim qadamdir.

Demak, inson uchun axloq-odob buyuk insoniy fazilat sanalar ekan, balog'at yoshidagi qizlarimizga ayni shu haqiqatni tushuntirish, ularning tashqi va ichki dunyosining qadri odob bilan birga ekanligini anglatish har bir tarbiyachining vijdoniy burchidir.

1.2-§. O‘smir qizlarning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishning etnopedagogik asoslari

Darhaqiqat, ayniqsa o‘smir yoshlarimizga hayotda o‘z o‘rinlarini topishlari uchun qanday asarlarni o‘qish lozimligini ko‘rsatib berishimiz uchun ota-ona, o‘qituvchi, kutubxonachi va yaqin kishilari ma’suldir.

Chunki, kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodni ma’naviy yetuk shaxs sifatida tarbiyalashda zarur bo‘lgan imon, e’tiqod, insonparvarlik, axloq-odob saboqlari xazinasini kitob olamida jamlanganligini yaxshi bilamiz.

Ma’lumki, insonning asl qiyofasi uning shirinso‘zligi, mehribonligi, olijanoblighi singari sifatlari bilan namoyon bo‘ladi. Bu ijobiy xislatlari bevosita go‘zal so‘zlarni ishlatishi orqali, go‘zal nutqi vositasida amalga oshiriladi. Kitob olamida esa bu ijobiy so‘z jamlanmasi mujassamlangan bo‘lib, ulardan foydalanish uchun kitob mutolaasi muhim manbadir. Bu xislat esa ma’naviyat bilan bog‘liq bo‘lib har qanday insonning u ruhiy, aqliy olamini ifodalovchi tushunchadir. Shunday ekan, har bir shaxsning aqliy zakovatini yorituvchi ilmga intilish orqali, jamiyatda asosiy o‘rin tutgan faoliyat bilan amalga oshiriladi.

Bir so‘z bilan aytganda, kitob insonshunoslikka yo‘l ko‘rsatadigan, ijobiy ma’noda hayotda ko‘zlagan maqsadini belgilab beradigan ma’naviy-ma’rifiy xazinadir.

“Ma’naviyat atamasining ko‘lami nihoyatda keng bo‘lib, bevosita inson uchun zarur bo‘lgan falsafiy dunyoqarash, huquqiy ilmga ega bo‘lish, ilmiy, badiiy tafakkur dunyosi haqida tasavvur hamda ahloqiy, diniy ilmlarning bilimdoni bo‘lish bilan izohlanadi.” [72].

Aslida, balog‘at yoshidagi yigit-qizlar, eng murakkab, anglab bo‘lmas kechinmalarni boshidan kechirayotgan, tez o‘zgaruvchan fe‘l-atvori namoyon bo‘ladigan, o‘zlarining tashqi ko‘rinishlariga bino qo‘yadigan o‘tkinchi his-tuyg‘ularga beriladigan davrni o‘tayotgan bo‘ladi. Olimlar aynan ana shu davrni ikki toifaga ajratib ilmiy talqin qiladilar. Ya’ni, zohiriy va botiniy, tashqi va ichki ko‘rinish shakliga asoslanib ularning ma’naviyati, ahloqi, dunyoqarashiga baho

beradilar. Ayniqsa, hayotiy tajribaga ega bo'lmagan o'smir yoshlarda tashqi va ichki ko'rinish sodda va samimiy ko'rinishda asta-sekinlik bilan shakllanib boradi. Keyinchalik, bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan ichki va tashqi ko'rinishning o'ziga xos ko'rinishlari namoyon bo'la boshlaydi.

Tabiiyki, oiladagi milliy va umuminsoniy qadriyatlar birligi, ma'naviyat-axlokiy qadriyatlar ustivor bo'lsa, eng asosiy ichki ma'naviy olami boyib boradi. Tashqi olamiga uning bo'yi-basti, ko'rinishi, kiyinishi, hatti-harakati husni, malohati va boshqalar kiradi. Ichki olami esa uning yashashdan maqsadi, fikr yuritish, orzu-istaklari, intilishlari, his-tuyg'ularini o'z ichiga oladi. Insonning ana shu ichki olami ma'naviyatdir" [72].

Darhaqiqat yuqorida keltirilgan fikrlar ilmiy manbalar asosida izohlangan bo'lib, insonning ichki ma'naviyatini qisqa yoritib bergan. Bu mulohazalar bevosita va bilvosita har bir inson uchun muhim tarbiya mezonidir.

Xususan, ayniqsa yoshlarning ichki ma'naviyatini shakllantirish muhim ahloqiy-ma'naviy jarayon hisoblanadi. Eng muhimi, ularning yashashdan maqsadini uqtirishi, va shu omil orqali komil inson uchun zarur bo'lgan fazilatlarni singdirish eng asosiy ma'naviy ta'limotdir.

Komil inson va ularni tarbiyalash xalqimizning azaliy, tarixiy, o'ziga xos urf-odat va an'analarida, hayotiy qadriyatlarida, ma'naviy, adabiy meroslarida, madaniy asori-atiqalari va yodgorliklarida mujassamlashgan.

Eng muhimi, ma'naviy ma'rifatga ega insonning qobiliyati, iste'dodi, o'z yurtining, jamiyatning faxri, iftixori, obro'-e'tibori hisoblanadi. Ayniqsa, balog'at yoshidagi yigit-qizlarning sog'lom aqli, fikri va yaxshi hulqi jamiyatning asosiy ma'naviy boyligidir.

Tabiiyki, ma'naviy-ma'rifiy boylikning har tomonlama ravnaq topishida eng muhim manba bu bevosita kitobxonlik, ommaviy axborot manbalari hisoblangan gazeta jurnallar, internet tarmoqlariga kiritilgan yangi ilmiy-nazariy ma'lumotlar bilan uzviy bog'liqdir.

Bu manbalar inson fikriy olamini boyitish barobarida, unga ruhiy oziq kuch-qudrat bag'ishlaydi. Oilada voyaga yetayotgan o'smir qiz-yigitlarning tarbiya

olayotgan muhiti, ota-onalarning ularga munosabati, oilada o'rnatilgan tarbiya uslublari bevosita ko'p jihatdan ularning o'zaro munosabatlarida aks etadi. Birinchidan, o'smirlarning ota-ona, buva-buvi, aka-opa yaqinlari davrasida o'zaro mehr-muhabbatini his etmasa, keyingi mustaqil hayot bosqichlarida yo'qotilgan oilaviy mehr o'rnini hech narsa bosaolmaydi. Aynan ana shu davrda ayniqsa o'smir qizlar tarbiyasiga keskin ta'sir qiladigan mehrsizlik bo'lgan hatti-harakatlar o'z natijasini ko'rsatishi mumkin. Bu esa, ularning ma'naviyatsizligiga qo'yilgan qadamlardan biri hisoblanadi.

Shunday ekan, o'smir yoshdagi qizlarning tug'ilib o'sgan oilasi, uni o'rab turgan muhitning ma'naviy keng mushohada dunyosi, saviyasi qanchalik yuqori bo'lsa, unda voyaga yetayotgan farzandning ma'naviyati shunchalik kuchli bo'ladi.

Mana shu o'rinda ahloqiy dunyoqarash bilan bog'liq mulohazalar ham o'smir qizlar dunyoqarashiga oid ma'lum tarbiyaviy omillardan biridir.

Uning mazmun – mohiyatiga e'tibor qaratar ekanmiz, "axloq" atamasi arab tilidan olingan bo'lib, xulq so'zining ko'pligini ifodalaydi. Ya'ni kishilar orasidagi munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos qoidalar majmuasi bo'lish bilan birgalikda ma'naviy tarbiya sohasiga oid insoniy tushunchadir.

Aslida, axloq inson munosabatlarining yozilmagan, biroq el-yurt tomonidan qabul qilingan "oltin qoidalar"dan biri hisoblanadi. Eng muhimi, o'smir qizlar axloqi bilan bog'liq munosabatlar zahirida, ularning hayotda o'z o'rinlarini topishida asos bo'lib xizmat qiladi.

Axloqiy tarbiyaning eng asosiy mezonlaridan biri, o'z hatti-harakatlarini anglash va izga solish, bir so'z bilan aytganda o'zligini his qilishda tabiiyki kitobxonlikning o'rnini beqiyosdir. Bu o'rinda badiiy adabiyot, san'at namunalari, buyuk tarixiy shaxslar hayoti aks etgan asarlar, ibratli hikoya va rivoyatlar yosh avlodni axloqiy ma'rifatini oshirishda bebaho xazina hisoblanadi.

Axloq tushunchasi o'zbek halqining qoni, ruhiyatiga singib ketgan nozik tuyg'u hisoblanadi. Shuning uchun ham u halqimizning urf-odatlarini, an'analari, xalq og'zaki ijodi namunalari, adabiyoti va turmush tarzida aks etgan milliy qadriyatdir.

Shu o'rinda shoir Ahmad Donishning o'z farzandlariga nasihat qilib, "Suratlaringni emas, siyratlaringni tuzatinglar, o'smir, balog'at yoshidagi qiz" degan edi. Ahloqiy mulohazalar yodga tushadi. Shoir aytganidek insonning tashqi go'zalligidan uning ichki, ma'naviy ruhini bilish mumkin. Har qancha go'zal va chiroyli bo'lmasin uning axloqi buzuvchi bo'lsa u el e'tiborini qozona olmaydi. Ayniqsa, ular o'sha yoshda o'zining beg'ubor go'zalligi bilan kishilar e'tiborini o'ziga tortadi. Aynan ana shu davrda, ularning odobiga, so'ziga, o'zini tutishiga alohida e'tibor qilish davri ham hisoblanadi [17, 4116et].

Shuni unutmaslik kerakki, qizlar uchun latofatli bo'lish insoniy fazilatdir. Bu fazilat sirtdan qaraganda juda oddiy bir ko'rinishdan iborat bo'lib, aslida esa katta ma'naviy-axloqiy tarbiya mezonini sanaladi.

Aytaylik, latofatli balog'at yoshidagi o'smir qiz, ro'parasida kelayotgan erkak kishi nazariga tushmaslikning oddiy, ammo sharqona qabul qilingan ya'ni, o'zini chetga olish, erkak kishining yuziga tik qaramaslik, iloji boricha ularning nazariga tushmaslik kabi qoidalaridir. Bu qoidani o'zga millat, g'arb yoshlariga tushuntirishning iloji yo'q. Chunki bu qoida ular uchun bir muncha notanish holatdir. Shuning uchun ham, bizning qizlarimizga, aniqrog'i Sharq xalqlariga xos bo'lgan, chuqur odob qoidasining mezonini nihoyatda keng bo'lib, chuqur axloqiy mazmunga ega. Shuning uchun ham, Sharq ayollarining iffati, odob-axloqi, did-farosati va nazokatini boshqa millat xalqlarining axloqiy tarbiya hayotida aynan uchratish qiyin.

O'zbek xalqining qiz farzandlarga iltifoti o'zgacha bo'lib, azaliy udumlarning ildizi nihoyatda qadim zamonlarga borib taqaladi.

Shu boisdan bo'lsa kerakki, hadislarda ham Muhammad payg'ambarning hayoti va faoliyati, shuningdek, uning diniy va axloqiy ko'rsatmalarini o'z ichiga olgan kitoblaridan ham qizlar haqida, ularni boqib, voyaga yetkazganlar haqida juda iliq gaplar aytilgan. Chunonchi, ikki qiz farzandni boqib, tarbiyalab voyaga yetkazgan odam bilan Men jannatda birga bo'laman. Yoki "Kimki uchta qiz farzandni o'stirib, tarbiyalab, voyaga yetkazib, munosib joylarga uzatsa, uning mukofoti jannatdir", deyiladi.

“Oilada” qizlarning o‘shish jarayonini kuzatib borish uning har bir harakatini nazorat qilish azaliy udumlarga ko‘ra ota-onalar e‘tiboridan chetda qolmagan. Ana shunday e‘tiborli damlarning ko‘pchiligi xalqda yurtimizning ayrim hududlarida “to‘y” atamasi bilan yuritilib tengdoshlari, onalari, amma, xolalari hamda qo‘ni-qo‘shnilari, qarindosh-urug‘lari ishtirokida to‘y qilib berilgan va o‘sayotgan qizlarning siqiq ko‘ngillarini ko‘tarishga, ularga erk berishga, quvnoqlik, tengqurlari davrasida u yoki bu munosabat bilan o‘tkaziladigan yig‘inlarda ishtirok etishlariga imkon yaratganlar.

Ana shunday qizlar yig‘inlaridan ayrimlari xalqimiz urf-odatlarida hanuzgacha saqlanib qolgan. Ko‘pgina joylarda ular o‘sha hududlarga xos kishilarning an‘anaviy taomillariga mos nomlar bilan yuritilib kelingan. Bu haqda tadqiqotchi Hayot Ismoilovning “O‘zbek to‘ylari” deb nomlangan risolasida o‘smir qizlar tarbiyasida o‘zbek xalqining milliy marosimlari va urf-odat, rasm-rusumlarida aks etgan qiziqarli ma‘lumotlarni keltiradi.

“... “Sarandoz to‘y”-unga ko‘ra qizlar yetti yoshdan boshlab boshlariga ro‘molni teng ikkiga buklab solib, bo‘ynidan yoki peshonasidan bog‘lab yuradilar. Ro‘mol aksariyat hollarda oq goho qizil rangdagi matodan tayyorlangan bo‘ladi. Ana shu azaliy udumlarga ko‘ra qizlar o‘n bir yoshgacha yurganlar”.

Yurtimizning boshqa hududlarida ham qizlar o‘n ikki yoshga yetganlaridan boshlab “Boshro‘rov” deb nomlangan, do‘ppisimon bosh kiyim kiyganlar. Shu boshro‘rovga o‘ralgan bir-ikki qizil ipakli yoki chit matodan tayyorlangan ro‘molni salla shaklida o‘raganlar, ikki uchi qizlarning orqasiga, sochi ustiga tashlab qo‘yiladi. Qashqadaryo viloyatining ayrim tumanlarida o‘ziga to‘q, boy-badavlat xonadonda voyaga yetayotgan qizlar uchun nihoyatda qimmatbaho matolardan tikilgan, taqinchoqlar bilan bezatilgan bosh kiyim “Boy bosh” deb yuritilgan. Boy xonadonning qizlarini bu bosh kiyimni kiyintirishda xotin-qizlar yig‘ilishib kichik to‘y-tantana bilan nishonlashgan.

Kambag‘al oila qizlari uchun mo‘ljallangan kiyimboshlar sodda, oddiy matolardan tayyorlangan bo‘lib, bunday bosh kiyimlar nomlari ham “kambag‘al bosh”deb atalgan.

Eng e'tiborli tomoni shundaki, "Bosh o'rov" ya'ni "Sarandoz"ni kiydirish marosimi uchun bir nikohli, pok va halol, uzoq umr ko'rgan, uvali-juvali ayollar duolar o'qib, amalga oshirganlar [40].

Yuqorida xalqimizning tarixiy urf-odatlari zahirida juda katta ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ma'no mujassamlangan. Eng e'tiborli tomoni shundaki inson a'zosining qadrli qismi bo'lgan boshga nisbatan alohida hurmat bilan qaralgan va boshyalang yurish ma'qul emasligi, ayniqsa, qizlarning bosh kiyimda bo'lishlari azaliy qadriyat va udum hisoblangan. Shunga ko'ra, ota-ona, qarindosh-urug', mahalla ko'y, qizlarni yoshligidanoq bosh kiyimda yurishlariga alohida e'tibor berganlar.

Hatto, o'smir qizlarni bosh kiyimi, kiygan kiyimlariga qarab, ularning yoshi, qaysi toifaga mansubligi aniqlangan.

Bir so'z bilan aytganda, qizlarning balog'at yoshi bilan bog'liq xalqimiz tomonidan kashf qilingan urf-odatlari, milliy qadriyatlar asrlar sinovidan, xalqimizning ulkan tajribalaridan o'tganligidan so'nggina chiqarilgan xulosalardan iboratdir.

Bu xulosalar zahirida, o'zaro oilaviy totuvlikka, kelajak taqdirini belgilashda, qiz bolalar ham oilaning bir shaxsi sifatida e'zozlanganligidan darak beradi.

Islom dinida qabul qilingan va belgilangan oyatlar, suralar va bebaho hadisi shariflarda mulohazalar mavjud odob-ahloq mezonlari bilan ham chambarchas bog'liqdir. Chunonchi, "Qur'oni karim" inson kamolotining asosiy dasturi hisoblanar ekan, unga amal qilgan har qanday insonni yuqori cho'qqiga ko'tarishning yo'l va tadbirlari ko'rsatilganligi bilan qimmatlidir. Undagi har bir oyat kishining kundalik hayotida belgilab berilgan odob-axloq mezonlari ham qayd etilgan bo'lib, ularga og'ishmay amal qilish lozimligi uqtirilgan. Ya'ni, odob insoniy fazilat ekanligi, kishi qadrini baland qiluvchi qimmatli sifat ekanligi bot-bot takrorlangan.

Shunday ekan, odob bilan aql bir-biriga bog'liq, ijobiy xislat bo'lib, har ikkalasi mavjud bo'lsagina u kamol topadi.

Halqimizning asriy tajribalari jamlangan “Hikmatnoma”da: “Adab ikki xildir: Hikmat adabi va xizmat adabi, Hikmat adabi poklik va to‘g‘ri yo‘lga yetaklaydi, hizmat adabi esa, badavlatlik va obro‘ga yetkazadi,”¹-deb bejiz aytilmagan. Aslida, shunday ekan, axloq-odob haqidagi hikoyatlar, naql va rivoyatlar ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan bo‘lib, yoshlarimizning ma’naviy qadriyatlarini shakllantirishda hamisha muhim ahamiyat kasb etib kelgan.

Aslida ham falsafiy dunyoqarash, ilmiy-badiiy tafakkur bevosita islom dini tarixi bilan uzviy o‘zaro bog‘liqdir.

Mana Islom dini tarixi o‘n to‘rt asrdan buyon insoniyatning kattagina qismini, jumladan xalqimizni ezgulikka, insoniyatni tinchlik- xotirjamlikka chorlab keladi. Eng muhimi, dinimizning umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib qilishdagi o‘rni va ahamiyati shuningdek, islom hayot falsafasi ekanligi asrlar davomida isbotlangan haqiqatdir. Eng muhimi, jamiyat, oila a‘zolarini eng yuksak bashariy fazilatlar egasi qilib tarbiyalashdagi diniy e‘tiqodlarning o‘rni beqiyosdir. Bu ezgu omallarning hayotdagi ahamiyatini vatandosh ulamolarimizning din taraqqiyotiga qo‘shgan buyuk hissalaridan bilib olishimiz mumkin.

Ayniqsa, oilada yoshlarimizni milliy istiqlol ruhida tarbiyalashda, umuminsoniy qadriyatlar qatorida islom axloqi asoslarini ham zamon talablari zahirida foydalanish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bebaho manba hisoblanadi.

Shu o‘rinda, Movarounnahru Xurosan diyorining azaldan ma’rifat va dinu diyonat o‘chog‘i, ulamo va fuzalolar yurti ekanligini eslashning o‘zi muhim ahamiyatga egadir. Bu davr bevosita Amir Temur shajarasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, sohibqiron oilasining asosiy ta’lim-tarbiyaviy dasturi diniy e‘tiqod asosida amalga oshirilgan. Ayniqsa, uning avlod-ajdodi xususan farzandlari muqaddas Muhammad payg‘ambarimizning hadislarida aytilganidek oilada “Otaga itoat qilish –Tangriga itoat qilishdir. Uning oldida gunoh qilish –Tangri oldida gunohkor bo‘lish bilan barobardir”, - degan aqidaga hamisha amal qilib kelganlar.

Haqiqatdan ham bu muqaddas manbalar, ajdodlarimizning o‘git-nasihatlari insoniyatning qolaversa, oila deb atalmish muqaddas qurg‘onning ezgulikka va tinchlik - xotirjamlikka chorlab kelmoqda.

Eng e'tiborli tomoni shundaki, Islom dini, ayollarga alohida shaxs sifatiga qarab, diniy, aqidalar asosida alohida hukmlarni joriy qilgan. Ya'ni, ularning shaxsini himoya qilish, davlat ishlarida ishtirok etish, ilm olish va erkin fikrlash huquqini bergan. Shuningdek, ular ongi tafakkurini bilimini, madaniyati-ma'rifatini oshirishga imkon bergan. Natijada ma'rifiy-ma'naviy jihatdan diniy e'tiqodga ega ayollar qaramlikdan, mu'telikdan qutilish imkoniga ega ham bo'lganlar.

Mazkur diniy-ma'rifiy qadriyatlarning ijobiy tomonlari bugungi kunlarda ham ayrim oilalarda saqlanib kelayotganligi katta ahamiyatga molik holdir. Tabiiyki, har qanday ko'rinishdagi milliy axloq tushunchasi oiladagi muhitda rivojlanib shakllanib boradi. Ahloq ma'lumki, ma'naviyatning tarkibiy qismi ekanligi tufayli oilada voyaga yetayotgan o'smirlarning ma'naviyatini shakllantirish darajasini aniqlash muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Halqimizning asriy tajribalari jamlangan "Hikmatnoma"da: "Adab ikki xildir: Hikmat adabi va xizmat adabi, Hikmat adabi poklik va to'g'ri yo'lga yetaklaydi, xizmat adabi esa, badavlatlik va obro'ga yetkazadi," [77]. – deb bejiz aytilmagan. Aslida, shunday ekan, ahloq-odob haqidagi hikoyalar, naql va rivoyatlar ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan bo'lib, yoshlarimizning ma'naviy qadriyatlarini shakllantirishda hamisha muhim ahamiyat kasb etib kelgan.

1.3-§. O'smir qizlar ma'naviy - ahloqiy dunyoqarashini kitobxonlik asosida shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari

O'smir qizlar ma'naviy - axloqiy dunyoqarashlarini kitobxonlik asosida shakllantirishda psixologik yordam ko'rsatish muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Ma'lumki, o'smir qizlar ruhiyatidagi o'zgarish, sezilarli darajada bo'lmasada ayrim muammolarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, xalqimizning azaliy udumlaridan "Otalarga g'amxo'rlik" tuyg'usi mavjud bo'lib, hozirgi pedagogik ilmda "Paternalizm" atamasi bilan nomlanadi. Ya'ni, bu atama lotin tilidan olingan bo'lib, "Pater- ota paternus-otalarcha" ma'nolarini bildiradi.

O'smir qizlarni ma'naviy, ahloqiy dunyoqarashlarini shakllantirishda eng asosiy psixologik xususiyatlarini shakllantirishda, oilada ota-onaning obro' - e'tiborliligi, farzandlar tarbiyasi va oila farovonligidagi o'z o'rnini va buning oila a'zolari tomonidan ongli ado etilishi bevosita psixologik maslahat berish imkoniyatini vujudga keltiradi.

Bundan tashqari, oiladagi keksalar, qariyalar tomonidan yoshlarga beriladigan psixologik yordam birdan o'z ta'sirini namoyon etmasligi mumkin. Ammo, oiladagi o'zaro inoqlik munosabatlari asta-sekin o'z ta'sirini namoyon etib borishi tajribada sinalgan. O'smir qizlarga shu o'rinda otalarcha g'amxo'rlik muhim pedagogik-psixologik ahamiyatga ega bo'ladi.

Ayrim hollarda o'smir qizlar hayotida, atrofdagi yaqinlariga ma'lum bo'lmagan ruhiy o'zgarish vujudga kelganda psixolog - mutaxassisga murojaat qilishga, uning maslahatini olishga to'g'ri keladi. Misol uchun o'smir qiz yaqin kishisini yo'qotgan, biror noxush vaziyatdan g'am - qayg'uga duch kelgan bo'lsa, yoki yaqinlari bilan jiddiy ziddiyatga borgan bo'lsa, psixolog - mutaxassis uni o'sha noxush xolatdan chiqarishga harakat qilishi kerak.

Eng, avvalo mijoz bo'lgan o'smir qizni, emosional holatini yengillashtirishi, ular bilan oddiy, sodda, chin yurakdan yondashishi vositasi orqali suhbatlashishi lozim bo'ladi. Odatda, o'smir qizlar o'zini qiynayotgan muammolar haqida hamma bilan ochiq-oydin suhbatlashavermaydi.

Mutaxassis bilan bo'lgan sokin va psixologik yo'nalishdagi mulohazali suhbat, o'smir qizni qiynayotgan muammolarni aniqlash imkoniyatini yaratadi. U beixtiyor qalbida kechayotgan iztirobini birma-bir so'zlab berayotganligini sezmay qoladi.

O'smir qizlar ruhiyatini o'rganishda, psixolog - mutaxassisning e'tibor qaratishi lozim bo'lgan yana bir muhim holat mavjud. Bu yosh mijozining unda sodir bo'lgan barcha o'zgarishlar ma'suliyatini o'z zimmasiga olishi bilan bog'liqdir.

Ma'lumki, psixolog, pedagogning faoliyatini asl maqsadi, o'sib kelayotgan, o'smirlik yoshlik davrida, ularning har tomonlama, ahloqiy, ma'naviy -ma'rifiy

jihtadan shakllanishi, rivojlanishi va psixologik salomatligini muhofaza qilish uchun psixologik – pedagogik shart-sharoit yaratishdan iboratdir.

Ayniqsa, o‘smir qizlar shaxsini individual xususiyatlarini, qaysidir sohaga doir qiziqish va layoqatlarini, qobiliyatlarini rivojlantirishda psixologik imkoniyatlardan unumli foydalanish muhim pedagogik ahamiyatga egadir.

Hozirgi kunda ko‘p uchraydigan salbiy illatlar bu yosh yigit – qizning holatini, vaziyatini nazorat qilish, pedagog, psixolog, mahalla faollari, oldida turgan o‘ta muhim ijtimoiy pedagogik – psixologik zaruratga aylanmoqda.

Ayniqsa, o‘smir qizlar voyaga yetayotgan salbiy oilaviy muhit sabab, o‘zlari uchun qulay, ko‘ngillari taskin topadigan sharoitni, imkoniyatni qidirishga intiladi. Masalan, yoshlikning eng beg‘ubor tuyg‘usi bo‘lgan ilk muhabbat, unga sirdosh bo‘lgan do‘st, keyinchalik uni yashirin orzular og‘ushiga yetaklaydigan xayoliy orzular balog‘at yoshidagi qizlarni o‘z domiga torta boshlaydi. Ularning yurish – turishlari, o‘ziga e‘tibor berishlari sekin – asta o‘z ta‘sirini namoyon etadi. Qizlardagi bu o‘zgarishni kuzatish va nazorat qilish, avvalo oilada onalar, maktabda o‘qituvchilar, mahalla –faollari e‘tibor bermog‘i lozim.

Chunki, salbiy oila muhitida voyaga yetayotgan qizlar, o‘zlariga najot beruvchi sevgi tuyg‘usi, kechirib bo‘lmas xatolarga yetaklashi mumkin.

Sevikli payg‘ambarimiz sallallohu alayhu vassalom sahobalariga:

“Axlatxonada bitgan guldin ehtiyot bo‘ling”, - dedilar. Ashob: “Ahlatxonada bitgan gul, kim ey Allohning Rasuli” deb so‘radilar: “Yomon muhitda , islomiy tarbiyadan uzoq, ahloqsiz bir oilada yetishgan ayol”, - deb javob beradilar. Bu fikrlar sharaflil hadislardan olingan bo‘lib, bugun balog‘atga yetayotgan qizlarimizga ham taalluqlidir.

Haqiqatdan ham, noqobil oilaning begunoh farzandi, beg‘ubor muhabbatning domiga tushgan qattiq zarbaga uchrashi mumkin.

Aslida, tabiat qizlarni latif, beg‘ubor qilib yaratadi. Ammo hayot qiyinchiliklari ularni sinovdan o‘tkazadi. U dastlab ota – onasining bag‘rida o‘n yetti – o‘n sakkiz yil yashab, shu oilaning urf – odatlarini, hayot tarzini,

dunyoqarashini tanasiga singdirib, ota – onaning kasbi – korini o‘rganib voyaga yetadi.

Ayrim ma’rifatli xonadonlarda yaxshi bir odatlarga, keksalar tomonidan o‘rni bilan aytib boriladigan an’analarga duch kelasiz, ya’ni bu sharqona pedagogika deb atash mumkin bo‘lgan, halqimiz tomonidan farzandlar uchun aytiladigan hikmatli so‘zlar, buyuk allomalarning ibratli mulohazalaridan ishtibohlar keltirish urf bo‘lganini ko‘rish mumkin. Chunki, bu hikmatli, ibratli so‘z yoki iboralar, maqollar ajdodlarimizning bizga qoldirgan aqliy me’rosidir. Oilaviy, ruhiy, ma’naviy tarbiya, birinchi navbatda oilada amalga oshirilishini nazarda tutish kerak.

Oilada udum bo‘lgan meros o‘tmishda ham, o‘z qimmatini yo‘qotmagan xazinadir. Halqimizda “Yetti o‘lchab bir kes” degan maqol bor. Bu maqol zahirida katta ma’no mavjud bo‘lib balog‘at yoshidagi o‘smir qizlarga har doim aytadigan pandu – nasihatdan ko‘ra, yuqoridagi maqol vositasida, uning ma’nosini sharhlash yo‘li bilan, qiladigan ishlarining o‘ziga ham, o‘zgalarga ham zarar yetkazmasligi uchun puxta, pishiq qilish lozimligini uqtiradi. Yoki halqimiz “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan maqolni bot-bot ishlatadi.

Tabiiyki, o‘smir qizlarga psixologik yordam berishda mutaxassis o‘z mijozining shaxsiy qiziqishlariga, qobiliyatiga, ruhiy holati va salomatligiga alohida e’tibor bermog‘i lozim.

Odatda, o‘smir qizlarning ruhiy holatiga oiladagi muhit, iqlim ba’zan salbiy, ba’zan ijobiy o‘z ta’sirini ko‘rsatib turadi. Ayniqsa oiladagi salbiy muhitning kelib chiqish sabablari shaklida bo‘lishi mumkin. Pedagog yoki psixolog, oiladagi salbiy holatni o‘rganish va bartaraf qilishning maqbul yechimini topishi lozim.

Kuzatilgan natijalarga ko‘ra, salbiy muhit mavjud bo‘lgan oilalarda voyaga yetgan o‘smirlar fe’l – atvorida jizzakilik, yoki aksincha, loqaydlik va beparvolik illati yuqori darajada bo‘lib, ularning ma’naviyatini pedagogik mahoratga tayangan holda o‘ziga xos usullarni ishlab chiqishni taqozo qiladi.

Bugungi kunda, salbiy muhit tufayli ba'zan tiklab bo'lmaz xatolar, halokatlar, o'z joniga qasd qilish, erta homiladorlik kabi illatlar ko'zga tashlanib turadi. Bu holatning asosiy boisi, o'smir qizlarning tasavvurida ilk muhabbat huddi quyoshday yoki otashday o'zining jalb qiluvchi, o'ziga tortuvchi najotdek tuyuladi. Aslida, o'smirning inon ixtiyorini sehrlab qo'ygani bois, o'z - o'zini boshqara olmaydi, ilk muhabbat tuyg'usini his qilgan o'smir qizlar o'zlari tushunmaydigan qandaydir sirga, ularning ixtiyoriga tobe bo'lmagan qudratli kuchga duch keladi. Eng e'tiborli tomoni shundaki, u ko'ngil qo'ygan o'zi tengi o'smir, yoki kattaroq yigitning muhabbatiga javoban izhori chinakammi yoki o'tkinchimi buni o'ylamaydilar va farq qilishmaydilar. Chunki, shashqaloqlik sabab, ular bu his – tuyg'u haqiqiymi yoki soxtami buni o'ylab o'tirishmaydi. Natijada sohta hirsii tuyg'uning qurboniga aylanadilar. Bir so'z bilan aytganda aldanadilar. Chunki, hirs bu hayvonlarcha ro'parasidagi qizga tashlanishi, odam bolasiga yarashmaydigan xunuk, tuban ishlar qilish, zo'rlik yo aldov nafsini qondirish ya'ni nafs balosidir.

Yigitlar bunday nodon qizlarni o'z tuzog'iga ilintirish payida yuradi. Aynan ana shu aldov tuzog'iga ilingan o'smir qizlar ertami – kechmi salbiy oqibatlarga ro'baro' bo'ladi. Eng yomoni, mazkur salbiy muhabbat oqibatlari el – yurt, qarindosh urug'lar ko'zi oldida ro'y beradi. Oilaviy muhiti og'ir, farzandlari tarbiyasiga bee'tibor oilaning o'smir qizlari shunday salbiy holatga duch kelsa, halqimiz o'smir qizga oilasi bilan birga qo'shib baho beradi. Irodasi zaif, tushunchasi past, odamiylik fazilatlaridan mahrum, oqibat tuyg'ulari uchun begona, kalabin, qadamini ko'rib – bilib bosmaydigan ko'zi ochiq ko'rlarnigina yo'ldan adashtiradigan o'smir qizlarni to'g'ri yo'lga solish avvalo ota-onaning, o'qituvchilarning qolaversa mahalla – kuyni, psixolog mutaxassislarining vazifasidir.

O'smir qizlarni muhabbat borasida to'g'ri yo'lga solish, yuqorida tilga olingan jamoa zimmasida bo'lish bilan bir qatorda, ularni kitobxonlikka jalb qilish vositasi bilan ham amalga oshirish mumkin.

Chunki, kitoblarda ifodalangan haqiqiy muxabbatni soxta muhabbatdan farqlash, chin muhabbatni pok saqlashni avlodlarga vasiyat qilib ketgan ulug‘ donolar tilidan qalamga olingan qimmatli o‘gitlar bugungi yoshlarimiz uchun ham o‘z qimmatini yo‘qotmaydi.

Agar inson uchun muqaddas bo‘lgan chin muhabbat bo‘lmaganda hazrat Alisher Navoiy o‘zining o‘lmas asarlarini, Abdulla Qodiriy o‘zining asarida Kumushbibi bilan Otabegini muhabbat timsoli sifatida yaratmagan bo‘lar edi. Yoshlarimiz kattalarning o‘gitlariga e‘tibor bersa haqiqiy muhabbat tarannum etilgan asarlarni o‘qisa, hayotida uchragan yigit bilan tanishgan dastlabki kunlardan boshlab, hamma ixtiyorini ko‘ngil ra‘yiga berib qo‘ymay, aql mayliga quloq osgan bo‘ladi. Yoshlikda, o‘ylamay qo‘yilgan qadamning, fojining yetkazgan jarohati bir umr bitmaydi. Kechagina g‘am – g‘ussadan yiroq o‘ynab – kulib yurgan bir begunoh qiz boshiga buncha, hatto o‘z joniga qasd qilgan noxushlikni ravo ko‘rgan aybdorlar avvalo ota – onaning befarqligi bo‘lsa, uni atrofidagi o‘qituvchilar, mahalla kuy, qarindosh – urug‘lar bo‘lib qoladi. Qolaversa, o‘smir qizning aqlsizligi, ma‘naviy – ma‘rifiy aqlsizligi ham asosiy sabablardan biridir.

Yoshlarimiz kitobxonlikka mehr qo‘ysa asarlardagi haqqoniy hayot aks ettirilgan voqealardan voqif bo‘ladi, chunki har bir asarning manbai – hayotning o‘zi ekaniga amin bo‘ladi.

Darhaqiqat, kitobxonlikka jalb etish ham xalq pedagogikasining uzviy qismini tashkil etadi. Bu manba xalq paydo bo‘lgan davrdan boshlab xalq donishmandligi va odabnomasining bu nodir sohasi ijtimoiy maishiy-ahloqiy hayotning barcha tomonlarini, xalq og‘zaki ijodi, qadrshunoslik, udumshunoslik va marosimshunoslikning yetakchi yo‘nalishlarini, diniy-ahloqiy ta‘limotini qamrab olishi bilan xarakterlidir. Demak, o‘zbek xalq pedagogikasi yoshlar ongiga ma‘naviy-axloqiy tarbiyani singdirish, shuningdek, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagog va psixologlarning kuzatishlari va o'rganishlariga ko'ra o'smir qizlar ruhiyatida xayol qilish va shu orqali o'z orzu – o'ylarini bayon qilish hissi kuchli bo'lar ekan. Bu masala yuzasidan ham allomalar o'z fikr mulohazalarini o'z asarlarida bayon etgan.

Jumladan buyuk alloma Abu Nasr Farobiy o'z asarlarida yuqoridagi inson ruhiyati bilan bog'liq fikrlarini asrlar osha bayon etgan.

“Ba’zida inson fe’li ko‘proq xayol surishga bog‘liq bo‘ladi, - deb yozadi Farobiy, - Bu shundayki, inson bir narsani boshqa biror narsada bor, deb tasavvur qiladi. Hatto, bu yoshda uning borligi yolg‘on bo‘lib, faqat xayol qilingan taqdirda ham, bu harakat fe’lni amalga oshiradi.

Chunonchi, odamlar aytishadiki agar kishi biror narsaga nazar solsa u narsa uning xushko‘rmaydigan narsasiga o‘xshagan bo‘lsa u holda uning tasavvuriga, o‘yiga o‘sha zahotiyoq bu narsaga nisbatan xushko‘rmaslik hissi paydo bo‘ladi. Shu bilan haligi kishi o‘zini avaylab – asrab chetlashib chetlashib yurishga urinadi [16].

Olimning yuqorida keltirgan fikrlarida teran ma’no mavjud bo‘lib, u insonning necha yoshda bo‘lishidan qat’iy nazar, xayollari tufayli hayotda adashgan har bir inson uchun o‘git va nasihatdir.

Ayniqsa, yoshlar ruhiyatida mavjud bo‘lgan xayolparastlik, o‘ziga yoqadigan, bo‘lib turadigan voqealar, ularda uchraydigan insonlar, ular bilan bo‘ladigan munosabatlarni tasavvuriga keltiradi va hayotda uning oqibatini o‘ylamay xatoliklarga yo‘l qo‘yadilar.

Naql qilishlaricha, har bir odamning hayot yo‘li insoniyat bosib o‘tgan hayot yo‘lini, tarixini, ba’zan avlodlardagi irsiy fe’l atvorni aynan takrorlar ekan, bu so‘zlar ma’lum darajada haqiqatni ham ifoda qiladi.

E’tibor bering, bola tug‘iladi, ona allasini eshitadi, harf o‘rganadi, fikrlaydi, xayoliy orzularga beriladi, sekin – asta atrofidagi odamlarni taniydi va ularga baho beradi, hayoti bir maromda davom etadi. Agar barcha odamlar hayoti shu tarzda

davom qiladigan bo'lganda edi, hayoti va taqdiri yaxshilik va ezgulikka bag'ishlaganda edi, dunyoni go'zallik egallagan bo'lar edi.

Afsuski halqimiz ta'biri bilan aytganda, "Bir palakda, ming xil hamak" deganlaridek, ba'zi oila yoshlari bir parcha latta – putta, moda ketidan quvib, go'zallikni his qilmaydigan, undan zavqlanishmaydigan yoshlarimiz siyrak bo'lsada uchrab turibdi.

Bu nima – didsizlikmi yoki ma'naviy qashshoqlikmi, aslida har ikkalasi ham bo'lib, madaniyatsiz oilada, befarqlik bilan voyaga yetgan yoshlarimizdagi kechirib bo'lmaydigan nuqsondir.

Shu o'rinda, bir tasavvur qiling bir balog'at yoshidagi o'smirni kimsasiz, noma'lum orolga tashlab ketishsin. Demak, u umrini yolg'iz kun kechirish bilan o'tkazadi. Negaki, bu kimsasiz orolda uning insoniy tuyg'ularini tushunadigan, unga hamrox bo'ladigan, hamdard bo'ladigan biron odam yo'q. U qanday odamga aylanadi. Odamlar yaqinlari orasida bo'la turib bir maqsadni ko'zlamagan, didsiz, farosatsiz kimsadan qanday odam yetishib chiqadi. Aslida, inson go'zallikni qadrlay bilsa ma'naviy olami boy bo'lsa, insoniy tuyg'ularni tushina bilsa o'shandagina tom ma'noda tirik inson sanaladi. Bu insoniy hususiyat faqat hayotga teran ko'z bilan qarashni o'rgatadigan narsa kitob mutolaasidir. To'g'ri, yoshlarimiz kitobni ba'zan ermak uchun o'qiydi, biroz xordiq chiqarish uchun o'qiydi, ayrim kitobxonlar boshqa mashg'uloti bo'lmaganidan, vaqt o'tkazish uchun kitobdan nimanidir o'rganish uchun yoki biron asardagi qahramonlarining taqdiriga qiziqib kitob o'qiydi.

Bunday qaraganda diqqat qilsangiz, har xil kitobxonlar borligini bilasiz. Lekin, muhimi kitobni qay ko'rinishda yoshlarimiz o'qimasin foydadan holi emas.

Pedagog va psixologlarning e'tirof etishlaricha, xulq – atvori, axloqi buzuqlar, jamiyatga zarar keltiradiganlarning aksariyati bolaligi va yoshligida yaxshi o'qimagan, yaxshi tarbiya ko'rmagan, axloqi mayib bo'lib voyaga yetganlar ekan. Psixolog yosh o'smir qizga maslahat berar ekan, xalq pedagogikasi, uning mustahkamligi, oila hayotiga tayyorlash kabi masalalarni ham inobatga olmog'i

lozim. Shuningdek, kitob o'qish targ'ibotiga ham e'tibor bermog'i lozim. Chunki, kitob bilan oshno bo'lgan yigit - qizlarimiz unda tasvirlangan voqealar, haqqoniy hayotni aks ettirishdan voqif bo'ladi, har qanday asarning manbai ham hayotni ifodalashdan iborat ekanligini anglaydi.

Kitob qanday mavzuda bo'lmasin ularining har birida yosh kitobxonlar tarbiyasida ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi chuqur ma'no mavjud bo'ladi. Ayniqsa, o'smir yoshidagi qizlarning psixologik ruhiyatiga, o'zlari tengi yoshdagi qahramonlar tasvirlangan voqealar, ularning ko'ngliga mos hatti-harakatlariga e'tibor beradi. Bu o'rinda ayniqsa, xalq badiiy og'zaki ijodi asosida o'ziga xos mazmundagi asarlar va ularning umumta'lim maktablarining o'quv dasturiga kiritilganligi bejiz bo'lmay, balki katta ma'naviy-ma'rifiy maqsad inobatga olingan.

Hamid Olimjonning "Oygul bilan Baxtiyor", "Semurg", shuningdek G'afur G'ulomning "Shum bola", Oybekning "Qutlug' qon", Cho'lponning "Kecha va kunduz", Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" va boshqa shu kabi asarlar shular jumlasidandir.

O'smir yoki balog'at yoshidagi kitobxonlarni nazarda tutib qirg'iz yozuvchisi Chingiz Aytmatov ular uchun muhim bo'lgan jihatlarni tilga olib o'tar ekan, avvalo o'z yurti tarixini bilish ko'hna asotirlarni, klassik adabiyotda aks etgan ma'naviy biografiyani bilmagan o'quvchi ruhan qashshoqlikka maxkum va ular har bir zamon hayotini anglashga ojiz bo'lib qolishlarini kuyunchaklik bilan e'tirof etadi.

Aslida, bolalikning "Oq qanotli qushlari" – afsonalar ham qadimiy miflar ham, sarguzasht ertaklar ham, sehrli ertaklar ham, shu bugunning manzaralarini, hayotini, shu bilan birga hozirgi zamon muammolari uchun xizmat qilishini qisman yoshlar anglagan holda hayoliy –fantastik orzular og'ushida tasavvur qiladilar. Keyinchalik balog'at yoshiga yetganda o'zlarini xayolan o'sha qahramonlar o'rnida tasavvur qiladilar, hayotida ilk uchragan muammolarni o'sha qahramonlar singari sehrli tarzda hal bo'lishini orzu qiladilar. Chunki

muammolari oson hal bo'lgan qahramonlar hamisha ezgulik tantanasining guvohi bo'lishadi. Yomonlikning mag'lub bo'lishiga doir fikrlarni bilib oladilar.

Eng muhimi asardagi qahramonlar vositasi orqali ifodalangan didaktika, u faqat pand – nasihatlardan iborat bo'lsa asarlarning tarbiyaviy ta'siri zaif bo'lishi ham aniq. Bu fikrlar sosiologlar, psixologlar, pedagoglar, nafosatshunoslarning kuzatuvlarida asoslab berilgan. Negaki fan va texnika, internet asri shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda axborotning mavqei haddan tashqari kuchayib ketdi. Yoshlar radio eshitadi, televizor tomosha qiladi, dunyodagi voqealardan xabardor bo'lish uchun internet tarmog'iga bog'lanadi. Shu bois, ularni pand-nasihat bilan dunyoqarashini ruhiy holatini o'zgartirish imkoni biroz cheklangan.

O'smir qizlar o'zining tez hayajonlanishi bilan bog'liq ruhiy xolati tez o'zgaruvchan bo'lishiga sabab yuqorida aytilgan zamonaviy texnika asrining ta'siri tufayli psixolog maslahati va yordam zarur ekanligini mutaxassislar e'tirof etmoqdalar. Aslida psixolog ham shu muammolardan kelib chiqib mijozi bilan suhbatlashganda o'smirning ruhiy holatidagi o'zgarishni hal qilishiga harakat qiladi.

Aksari xollarda, o'ta sinchkov bo'lgan o'smir mijozning maqsadini, psixolog tushunmagandek to'g'ri baholamagandek his qiladi. Aytaylik, o'smir qizning bolalik sevgisi qarshilikka uchragani bois, g'am - qayg'u iztirob chekayotgan holatda uning emosional kayfiyatini yengillashtirishga uringan psixologning unga yotig'i bilan tushuntirishga intilishining o'zi ham aslida pand - nasihatning o'zidir. Ma'lumki o'smir qizlarimizdagi o'zbekona hayo, ibo hatto vujudidagi jismoniy o'zgarishlar haqida, ruhiy xolati, undan iztirob chekayotganligi haqida, oiladagi yaqinlariga aytishga iymnadilar. Psixolog bilan samimiy sokin va mulohazali suhbat o'smir qizlarga va uni o'rab turgan muhit, yaqinlari to'g'risida, zaruriy qimmatli ma'lumotlarni berishi mumkin. Eng muhimi, o'smir qizlarda sodir bo'layotgan barcha o'zgarishlar mas'uliyatini psixolog o'z zimmasiga olishi muhimdir. Psixolog yana, o'smir qizlarda ro'y

beradigan holatning asl sababchisi shaxsan o'zi ekanligini anglatishi va aybini tushuntirishi orqali maqsadga qadam bosgandagina ko'zlagan maqsadiga erishishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o'smir qizlar shaxsini shakllantirish, ma'naviy – ma'rifiy, axloqiy jihatlarini tarkib toptirishda va rivojlantirishda oilaning o'rnini beqiyosdir.

Shu bois, xalq pedagogikasi, oila, uning mustahkamligi, yoshlarni hayotga tayyorlash kabi masalalarni hal qilish doimiy ravishda pedagogika, psixologiya fanining diqqat markazida turib kelmoqda. Shuningdek, o'zbek xalq pedagogikasi va uning ta'lim – tarbiya, odob-ahloqqa oid sohalarni yoshlar ruhiyati bilan bog'liq psixologiya fani vositasida qiyosiy o'rganish hamda uning tarbiya shakli va usullari xalq an'analariining ahamiyati xususida tadqiqotlar olib borilmoqda. Hozirgi kunda oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishda xalq pedagogikasining o'rnini va ahamiyati o'zbek oilalaridagi tarbiya imkoniyatlari, oilaviy tarbiyaning ta'sirchan vositalari va ularni amalga oshirishning o'ziga xos usullari amaliyot bilan bog'liq holda ishlab chiqilmoqda.

Ma'lumki, oilada bolalarni ma'naviy-ahloqiy ruhda tarbiyalash, bu jarayonda milliy qadriyat, an'analarning samarasi hamda xalq pedagogikasi va psixologiyasi fanining imkoniyatlarini aniqlash, ulardan unumli foydalanish masalalari ham dolzarb masala sifatida e'tiborga olinmoqda.

Buning uchun, oilada bolani ma'naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalashning mazmunini aniqlash, maqsad va vazifalarini, o'ziga xos xususiyatlarini, maqsadli tarbiya shakllarini va usullarining mukammal tizimini ishlab chiqish lozim bo'ladi.

Bu masala bevosita o'zbek oilasi, ularda yashayotgan jamoaning hayot tarzi, kasb-kori va hayotiy tajriba va an'analari, o'zbek ayollari va o'smir qizlarning oiladagi ijtimoiy-psixologik mavqei, oila a'zolarining bola tarbiyasi va oila muhitiga ta'siri bilan uzviy bog'liqdir.

Shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, sharqona urf-odatlar va ulardan o'rni bilan foydalanish ijtimoiy-falsafiy nuqtai-nazardan tadqiq qilishni talab qiladi.

Shuning bilan bir qatorda, oilada inobatga olingan tarbiya masalasi bevosita quyidagi tamoyillar bilan ham uzviy bog'liqdir, ya'ni ta'lim maskanlarida ilm berish va ilm olish, komil inson uchun muhim bo'lgan fazilatlarni singdirish muhim. Xalq pedagogikasi va psixologiyasi ilmining oldida turgan tamoyillardan muhimi hisoblanadi. Dastlab bu tamoyillar asosan oilada shakllanib boradi.

O'zbekistonda yoshlar tarbiyasi, oila masalalari davlat siyosati darajasida qaraladi. 2018 yilning 2 fevralida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin – qizlarni qo'llab – quvvatlash va oila institutini mustahkamlash faoliyatini tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida" PF – 5325-sonli farmonida boy ma'daniy tarixiy meros an'anaviy sharqona oilaviy milliy qadriyatlar, oilani saqlash va mustahkamlashga xizmat qilishi xususida alohida to'xtalib o'tgan. Shuningdek oilaviy munosabatlarni o'zaro totuvlik va muhabbat, o'zaro ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a'zolarining ma'sulligi hissi asosida ko'rishdan oila a'zolari o'z xuquqlarini to'sqinliksiz amalga oshirishini hamda bu xuquqlarning himoya qilinishini ta'minlashdan iborat ekanligi alohida belgilab berilgan.

Farmonda zamonaviy namunali, ibratli oilalarni shakllantirish, uning ma'naviy axloqiy negizlari va ildizlarini an'anaviy asrlar davomida amal qilingan oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash va qadrlash bo'yicha maqsadli ishlar va tadbirlar olib borish zarurligi ta'kidlangan. Bu boradagi oila, yoshlar tarbiyasi muammolarini hal etishda maxsus fanlarning ilmiy – tadqiqot ob'yektiga kiritish va inobatga olish, e'tirof etilgan nazariy hamda metodologik qarashlarga tayanib izchil tahlil qilish, o'rganish, oilaviy tushunchalarni tizimlashtirish muhim vazifalardan biridir.

Mazkur qaror zahirida teran ma'no mavjud bo'lib, asosiy e'tibor xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash bo'yicha chora-

tadbirlar dasturiga oilada ma'naviy –axloqiy tarbiya, iqtisodiy, huquqiy bilimlar, tibbiy madaniyat, o'zaro oilaviy munosabatlar psixologiyasi kabi tadbir va muammolarni hal qilish hamda yanada takomillashtirish maqsadida qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Oila uchun eng zarur qo'llanma, badiiy – adabiy, ta'limiy- tarbiyaviy, ahloqiy, pedagogik-psixologik, huquqiy, tibbiy mavzularga doir asarlar chop etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyundagi "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ – 3808- sonli qarorida "Oilaning tarbiyaviy – ta'lim salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda an'anaviy oila qadriyatlarini saqlash, oilalarda ma'naviy – axloqiy muhitni yaxshilash" uchun zarur bo'lgan muhim vazifalar belgilab berilgan. Mazkur belgilab berilgan vazifalar yosh avlodda ma'naviy – axloqiy qadriyatlarni va ota –onaga, yaqinlariga o'zaro sharqona hurmatni shakllantirishga qaratilgan. Shuningdek oilaning, ularda voyaga yetayotgan yoshlarning tarbiyaviy madaniy salohiyatini oshirish masalasi alohida uqtirilgan [5].

Shuningdek, Konsepsiyada o'smir yigit – qizlarning oiladagi asosiy vazifalaridan biri, oilaviy va avlodlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni saqlashdagi ishtiroki haqida ham so'z boradi.

Tabiiyki, konsepsiyada tilga olingan chora – tadbirlar zaminida, oilaning ichki va tashqi shaxsiy o'zaro munosabatlari o'smir yoshidagi bolalar uchun muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Chunki, o'zaro ahil oilada, bolalarning nazoratsizligi va qarovsizligi, yoshlar orasida huquqbuzarlik, ahloqiy tarbiasizlik, jinoyatlar sodir etish holatlari kam uchraydi. Shu nuqtai nazardan kelib – chiqib, har bir oila a'zosining bilim va saviyasi darajasini oshirish va mahalla kuydagi ibratli oilalar tajribasidan foydalanish masalalariga e'tibor berish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Sirtidan qaraganda, oila ilmi yoshlar muammosiga doir ma'lumotlar cheksiz ummonni tashkil etadi. Ularning o'ziga xos jihatlarini, qonuniyatlarini, necha yoshda bo'lishidan qat'iy nazar chuqur o'rganish va talqin qilish imkoniyatlariga doir qator chiqarilgan qarorlar aynan shu masalalarga qaratilgan.

I bob bo'yicha xulosa

Olib boridigan tadqiqotlar davomida o'smir qizlarning ma'naviy- axloqiy dunyoqarashlarini kitobxonlik asosida shakllantirish mavzusiga doir quyidagi xulosalar chiqarildi.

1.O'smir qizlarning dunyoqarashlarini shakllantirish, ularining ma'naviy-axloqiy tushunchalarini boyitish asnosida Sharq mutafakkirlari ijodidan foydalanish, xalq og'zaki ijodi namunalari, ularda aks etgan milliy qadriyatlar va urf-odatlar haqida tushunchalar berish, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning muhim shartlaridan biridir.

2.Kitobxonlik uchun maxsus tanlangan asarlardagi o'smir qizlar uchun dolzarb bo'lgan hayotiy muammolar va ularning yechimlariga xos bo'lgan jihatlariga e'tibor berish, ularning ma'naviy-axloqiy tarbiyalarini shakllantirishda xizmat qilishi lozim bo'lgan tomonlariga diqqat qilish va ilmiy pedagogik talqin qilish muhim ahamiyatga egadir.

Shuningdek, ular o'qigan asarlaridagi qahramonlarning ichki ruhiy dunyosiga axloqiy nuqtai nazarda yondashish ko'nikmasini hosil qilish tabiiyki kitobxonlikka mehr qo'yish tuyg'usini uyg'otadi.

3. O'smir qizlar o'qigan kitoblari vositasida turli bahs-munozaralar o'tkazish, kitobxonlar ko'rik-tanlovlari tadbirlarini o'tkazish, asarlarda ko'tarilgan hayotiy muammolar va ularni bartaraf qilish bo'yicha ularning mulohaza fikrlarini tahlil qilish, keyinchalik ular uchun hayot maktabi vazifasini utaydi. Shuningdek, saboqlari hozirgi davr uchun muhim bo'lgan ahloqiy, estetik ma'naviy-ma'rifiy masalalarni anglashga va tahlil qilishga o'rgatadi. Asarlarda qayd etilgan umuminsoniy dunyoqarash tushunchasini va mazmunini anglashga katta yordam beradi.

O'smir yoshidagi qizlarni kitob mutolaasiga jalb qilish va bu masalani yo'lga qo'yish uchun mahalla, maktab, lisey qoshida maxsus kitobxonlik kurslarini tashkil qilish, integrasiyalashgan an'anaviy va zamonaviy kitob targ'ibotlaridan, internet tarmog'idan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish bugungi kun talablaridan biridir.

Ma'lumki, xalq og'zaki ijodi o'zining xalchilligi, sodda va ravonligi bilan inson ruhiyatini tarbiyalashda muhim o'rin tutadi.

Shu bois, oilada o'tkaziladigan to'y va milliy marosimlarda, xalq umumbayram sayillarida folklor dastalari repertuarlarida ishtirok etish ular tomonidan ijro etilgan xalq qo'shiq va termalarini tinglashga jalb etish ham, yoshlarning ishtirokini tashkil qilish ham xalq yaratgan ijod mahsuliga, boyligiga muhabbat tuyg'usini uyg'otadi.

4.O'smir qizlar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashlarini kitobxonlikning asosida shakllantirishdan asosiy maqsad, ularda pyedagogik-psixologik xususiyatlarni takomillashtirishdan iboratdir. Bu tarbiya me'yorlarini belgilashda, o'smir qizlar faol ishtirok etadigan ta'lim maskanlarida mavjud pedagogik, ma'naviy-ma'rifiy resurslardan samarali foydalanish mumkin bo'lgan boy manbalar mavjud.

Bu faol kitobxonlikni yo'lga qo'yish bilan bog'liq ma'naviy-ma'rifiy, g'oyaviy tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazish va ulardan maqsadli foydalanish, bugungi kunda ijtimoiy – gumanitar fanlar erishgan yutuqlar bilan tanishtirib borish, ularning pedagogik – psixologik xususiyatlarini shakllantirishda sezilarli xizmat qiladi.

5.O'smir qizlarni, ular o'qigan kitoblari vositasida, hayot bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning kundalik hayot, yurtimizda erishilgan bunyodkorlik ishlari bilan bog'liq jihatlarini anglatish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda katta xizmat qiladi. Inson uchun muhim bo'lgan onglilik, faollik, mustaqil fikrlash, milliy qadriyatlarni e'zozlash kabi tuyg'ularni ta'minlaydi.

6. O'smir yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida e'tiborsiz qoldirilgan pedagogik-psixologik xususiyatlarni shakllantirish masalasi natijasida milliy

qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizga, asriy an'analarimizga e'tiborsiz qarash tuyg'usini shakllantirdi. Bu holat pedagogik loqaydlikni hosil qilishga olib keldi. Natijada, bu loqaydlik illati o'smir-qizlar madaniyati, xulqiga salbiy ta'sir qildi. Bu illatning oldini olish uchun, yoshlarni ishonchli, samarali natija beradigan ma'naviy-axloqiy tarbiya usullaridan foydalanish, kitobxonlikka jalb etish orqali ularni hayotga tatbiq etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Eng muhimi, o'smir qizlar sevib o'qiyotgan kitoblaridan zavqlanishi, ta'sirlanish tuyg'usi jamiyatdagi odob-axloq me'yorlari, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, urf-odatlarga, an'analarga e'tiqodli bo'lishga o'rgatadi.

II BOB. O'SMIR QIZLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY DUNYOQARASHLARINI KITOBXONLIK ASOSIDA SHAKLLANTIRISHNING MAZMUNI, SHAKL VA METODLARI

2.1-§ O'smir qizlarda kitobxonlikni shakllantirishda Sharq allomalari qarashlarining o'rni

O'smir qizlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashlarini shakllantirish masalasi murakkab pedagogik jarayon bo'lib, ko'p qirrali mazmunga ega bo'lgan tushunchadir. Uni amalga oshirish uchun ma'lum pedagogik xususiyatlarni aniq belgilab olish maqsadga muvofiqdir.

Bu hol bevosita milliy qadriyat bilan uzviy bog'liq bo'lib, oiladagi diniy, ma'naviy, ijtimoiy, milliy qadriyatlar umumlashganda katta tarbiyaviy muhitni tashkil etadi.

Avvalo, o'smir qizlar tarbiyasi bilan bog'liq islomiy qadriyatlarning asosini halollik, poklik, gunoh ishlardan tiyila bilish, atrofdagi yaqinlarining qadr-qimmatini bilish, hayot sinovlariga bardosh berish, eng muhim shukronalik tuyg'usini shakllantirish kabi insoniy fazilatlar tashkil etadi.

Ma'lumki, o'smir qizlar o'z hayot yo'lini belgilash ostonasida turganligini to'g'ri yoki egri yo'lni tanlashi shaxsan o'zlariga bog'liq ekanligini uqtirish, ota-ona, mahalla ko'y, yaqinlarining zimmasidagi ma'suliyat hisoblanadi.

O'smir qizlarning ma'naviy – axloqiy, ma'rifiy dunyoqarashlarini shakllantirish tizimini quyidagicha izohlash mumkin. Ya'ni, bosh tizim va yordamchi tizim asosida:

Ma'lumki balog'at yoshiga yetayotgan har bir qiz oila muhitida amal qiladigan axloq - odob me'yorlarini ko'rib, unga rioya qilib voyaga yetadi. Bu hol bevosita milliy urf – odatlar, muomala madaniyati zahirida amalga oshiriladi.

Bosh tizim-bu oiladan iborat	
Bosh tizimga mansub shaxslar	• Ota-ona • aka-uka, opa-singil • bobo-buvi • qarindoshlar (amma, xola, tog‘a, amakilar) • yaqin do‘stlar
Oila a‘zolarining milliy qadriyatlari -oiladagi avlodlar ana‘nalari -oiladagi udumga kirgan va qabul qilingan urf-odatlar -oiladagi o‘zaro nutqiy, tarbiyaviy, madaniy munosabatlar	
Yordamchi tizimga mansub ma’sullar	
-o‘smir qizlar ta’lim oladigan o‘quv yurti ma’muriyati rahbari (maktab, litsey, kollej) -o‘qituvchi, tarbiyachi, pedagog, psixolog, guruh rahbarlari -ta’lim maskanlarida tashkil etilgan turli to‘garaklar, kutubxona, xotin-qizlar kengashi, yoshlar bilan ishlash tashkiloti -sinfidan va maktabdan tashqari mustaqil tashkil etiladigan tadbir mutassadilari	

2.1-rasm. O‘smir qizlarning ma’naviy – ahloqiy dunyoqarashlarini shakllantirish tizimi.

Ajdodlarimizdan meros bo‘lgan insoniy fazilatlar miqyosi nihoyatda keng bo‘lib har bir shaxs yoshi, mavqei, qabul qilish davri ham turli-tuman ko‘rinishdan iboratdir.

Aytaylik, keksa va o‘rta yoshlilar uchun insoniy fazilatlarning me’yoriy o‘lchovi katta hayotiy tajriba asosida amalga oshirilsa, o‘smir yoshlilar uchun qat’iy me’yoriy tarbiya miqyosi keng bo‘lib ularni o‘rab turgan kattalarning sayi harakatiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, o‘smir qizlar uchun muhim bo‘lgan xislatlar - xushmuomalali, nazokatlilik, sertakalluf, hayoli, iboli, iffatli, bo‘lish ham ichki, ham tashqi ko‘rinishiga alohida husn bag‘ishlaydi. Bu fazilatlar oilada bolalikdan o‘rgatilib boriladi. Ya’ni atrofdagilarga mehribon bo‘lish, yordam qo‘lini cho‘zish,

kattalarning soʻzlariga odob bilan quloq solish, tavoze bilan javob berish, ularga eshikni ochib oldin oʻtkazish, kuzatib qoʻyish oddiy hodisa boʻlsada milliy insoniy munosabatlar madaniyati va odobiga kiradi.

Qizlar uchun yana bir muhim xulqli munosabat bu oʻzidan katta yoki kichiklarga hurmat va ehtirom koʻrsatish belgisidir. Bu belgi oddiy soʻzlardan iborat boʻlib, “Salomat boʻling”, “Xush kelibsiz”, “marhamat”, “uzr”, “baraka toping”, “rahmat”, “kechiring” kabi muomala asnosida ishlatiladi va yuksak madaniyat belgisi hisoblanadi.

Shuningdek, keksalarga joy berish, ulardan keyin oʻtirish, ovqatga ulardan keyin qoʻl urish, ertalab yuvingandan soʻng salom berish, katta yoshlilar suhbatiga aralashmaslik kabi oddiy, ammo muhim milliy odatlarimizdan sanaladi.

Yuqorida eʼtirof etilgan odob - axloq meʼyorlari jadvalda aks etilgan bosh tizimga yaʼni oilaga aloqadordir boʻlib, har bir oilaga yaqin boʻlgan kishilar vositasida muttasil amalga oshirilib boriladi

Yordamchi tizimga tegishli boʻlgan meʼyoriy qoidalari doirasi esa bir muncha keng boʻlib, bu hol bevosita taʼlim maskanlari xodimlarining masʼulligi bilan bogʻliqdir.

Demak, har bir taʼlim maskanlarida faoliyat olib boradigan oʻqituvchi pedagog, psixolog tarbiyachi, xotin-qizlar tashkiloti, yoshlar bilan ishlash tashkiloti, toʻgarak rahbarlari oʻsmir qizlar shaxsiyatini tarbiyalashga masʼul shaxslar sanaladi. Ular uchun dasturilamal vazifasini oʻtovchi manba bu buyuk mutaffakirlarimizning barkamol shaxs haqidagi gʻoyalari, fikrlari va xalq pedagogikasi imkoniyatlaridan samarali foydalanish, bevosita kitobxonlikka jalb etish orqali maqsadga erishish mumkinligi tajribada sinalgandir.

Aslida, qizlarni kitobxonlikka jalb etishdan oldin, ularda mutolaa madaniyatini shakllantirish, oʻqilgan asarlar asosida fikr, mulohaza yuritish koʻnikmasini hosil qilish muhim ahamiyatga egadir. Aslida bu masala bilan maktab, akademik liseyda faoliyat olib borayotgan adabiyot va boshqa fan oʻqituvchilari qisman boʻlsada shugʻullanib kelmoqdalar.

Ta'lim maskanlarida targ'ibot qilinayotgan kitobxonlik masalasi, birinchidan bevosita o'quv dasturlari asosida amalga oshirilsa, ikkinchidan o'smir qizlarning o'zlari tanlagan mustaqil kitobxonlikka jalb etish masalasi har ikkala targ'ibotning o'zaro uzviy bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Mustaqil mutolaa bu kitobxonga tanlab o'qish, o'ziga ma'qul asarlarni qidirib topish imkoniyatini beradi.

Asosan, balog'at yoshidagi qizlarni hissiyotli, she'riy matnlar, o'z tengdoshlari ishtirok etgan qahramonlar, ularning his-tuyg'ulari hatti-harakati, nutqi bilan ifoda etgan fikr mulohazalari mavjud bo'lgan asarlar qiziqtiradi. Shuningdek, sarguzasht fantastik asarlar, ayniqsa, ular asosida ishlangan badiiy filmlar o'smir qizlar e'tiborini tortib keladi.

O'smir qizlar muomalasi uchun kitob tanlashning o'ziga xos tamoyillari mavjud bo'lib, ularning tarbiyaviy-ma'rifiy maqsadlarini amalga oshirish ko'zda tutiladi. Ayniqsa, tanlangan kitobning o'smir qizlar saviyasiga, qiziqishiga mos bo'lishi, mustaqil kitobxonlikka qiziqishi bilan bog'liq bo'lishi lozim.

Hozirgi kunda yoshlarning diqqat - e'tiborini o'ziga jalb etayotgan axborot kutubxona markazlarida tashkil etilgan xizmat turlaridan unumli foydalanish, veb - internet sahifalarida reklama qilinayotgan yangi kitoblar targ'ibotida foydalanishda oila, ota-onalarning e'tibori muhim ahamiyatga egadir. Chunki, bu mutolaa turi bevosita interfaol xizmatlarga tegishli bo'lib, undan unumli foydalanish, ayniqsa, o'smir qizlarni vaqtlarini behuda o'tkazmaslikka katta yordam beradi.

Qachonki, o'smir qizlar mustaqil o'qigan kitoblari ularning didiga, dunyoqarashiga mos bo'lsa, ular yozuvchining bildirgan fikr-mulohazalarini qabul qiladi va kitob o'qishga rag'bat oshib boradi.

O'smir qizlar tarbiyasi tabiiyki xalqimizning qadriyatlari bilan uzviy bog'liqdir. Ular o'z millati, elati haqida muayyan tasavvurga ega bo'lishlari uchun, aynan qadriyatlar qalamga olingan asarlarni o'qishlari, ularda avlodlarimizning azaliy bayramlariga va an'alariga umum- insoniy qadriyatlariga qiziqish va muhabbat uyg'onadi. Shuningdek, kitobxonlikka jalb qilish orqali Sharq

mutaffakurlarining tarbiyaviy-axloqiy qarashlarini o‘ziga jamlagan asarlarni tanlash va ularni o‘qishga tavsiya etish muhim ahamiyatga egadir.

Tanlangan asarlarning mavzu doirasi va ularni o‘z asarlarida aks ettirgan shoir va yozuvchilarning asarlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

2.1- jadval

O‘smir qizlarga o‘qish uchun tavsiya etiladigan asarlar.

Mutafakkirlar qalamiga mansub	O‘zbek adabiyoti namunalarida
1. Sharq allomalari merosi va xalq pedagogikasi g‘oyalarining o‘smir qizlar ma’naviy-madaniyati va taffakkurini shakllantiruvchi asarlar	Alisher Navoiy va Bobur asarlari X.Sultonov “Boburning tushlari”, Ahmad Yassaviy hikmatlari, P.Shermuhammedov “Yaxshilar bahori” yoxud Mahmud Zamaxshariy dahosi, Mirkarim Osimning “To‘maris”, Nosiriddin Rabg‘uziyning “Qissai Rabg‘uziy”, Hadislar
2. O‘zbek xalqining madaniy an‘analarini aks ettiruvchi asarlar	Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar”, “Mexrobdan chayon”, Cho‘lponning “Kecha va kunduz”, Oybekning “Qutlug‘ qon”, A.Qahhorning hikoyalari, T.Malikning pandnoma asarlari
3. Xalq og‘zaki ijodi namunalarida o‘smir qizlar axloqiga doir dostonlar, hikoya va rivoyatlar	“Go‘ro‘g‘li”, “Alpomish”, “Aziz momo” asotir “Alibobo va qirq qaroqchi”, O‘zbek xalq maqollari, afsona va rivoyatlari, ertaklari.
4. Xalq pedagogikasi va milliy marosimlar aks etgan asarlar	Asqad Muxtorning “El yurt kerak ekan odamga”, Nazar Eshonqulning “Yalpiz hidi”, T.Malikning “Beklar va bekajonlar”, O‘tkir Xoshimovning “Dunyoning ishlari”, Abdulla Qahhor hikoyatlari va qissalari
5. Ajdodlarimiz merosida o‘smir qizlar tarbiyasiga oid asarlar	Kaykovusning “Qobusnoma”, “Ajdodlar o‘giti”, Alisher Navoiyning, Farobiy, Beruniy, Ibn Sinoning ta’lim-tarbiyaga oid asarlari
6. Kitob va kitobxonlik haqidagi ma’rifiy asarlar	Temur Malik, T.Sodiqova, M.Ismoil, Marhabo Karimova

Insoniyat tarixida har bir zamonning yoshlarini ilmiy qilish, ma’naviy yuksaltirish masalasi asriy qadriyat ekanligi ma’lum jarayondir. Bu qadriyat har bir hududning turmush tarzida, madaniyatida, ilmiy-ma’rifiy tafakkurida o‘z aksini topadi.

Eng muhimi, ajdodlarimizning yaratgan eng bebaho xazinasini bu kitoblar bo‘lib, ular o‘z zamonasining muxlislariga, ilmga ishtiyoqmand ma’rifatparvarlarga atab yaratilgan. Keyinchalik bu bebaho xazina o‘z

qimmatining yuksakligi bois, keyingi avlodlarga ham beminnat xizmat qila boshladi.

O'zbek xalqi uzoq yillik tarixga va boy madaniy merosga ega bo'lgan qadimgi turkiy xalqlardan biridir. Xalqimizning qadimiy yozuvida yozib qoldirgan yodgorliklari toshlarga, terilarga, yog'ochlarga yozilgan bo'lsa-da, ular buyuk xoqonlar sha'nini ifodalagan matnlardan iborat bo'lgan.

Bular asosan, xorazm, sug'd (oromiy), o'rxun-enasoy va uyg'ur yozuvlari bo'lib, ular keyinchalik tanazzulga yuz tutgan yozuvlardir. Garchi bu yozuvlar iste'moldan chiqqan bo'lsada, kitob deb atalmish bebaho xazinaning yaratilishiga asos bo'lgan deb atashimiz mumkin. Har bir davrning komil insoni uchun zaruriy ehtiyojga javob, dastlab og'zaki tarzda hikmat va pandu-nasihat holida bayon etilgan bo'lsa, keyinchalik hayotiy tajribaga tayanilgan yozma asarlar yaratila boshlandi. Dastlabki, yaratilgan islom ahlining muqaddas kitobi Qur'oni Karimni, alohida e'tirof etish lozim. Uning ilm-ma'rifat targ'ibotidagi o'rni beqiyosdir.

Qur'oni Karim klassik arab tiliga xos murakkab uslub va tilda, nasriy sa'j shaklida yozilgan bebaho xazinadir. Asar VII asrning birinchi yarmida nozil bo'lgan bo'lib, u o'z tarixiy, madaniy, ma'naviy-axloqiy ahamiyati bilan butun Sharq xalqlarining taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Shu bos, mazkur muqaddas kitobga sharhlar yozish turli tillarga tarjima qilish avj oldi. Insoniyatga kitob tushunchasini hadya etgan, uning ta'siri qator falsafiy pandnoma ruhidagi yozma adabiyot maydonga kela boshladi. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" (1069-1070), Mahmud Qashg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar"i, Ahmad Yugnakiyning "Hibbatul haqoyiq", "O'g'uznoma", Nasriddin Rabg'uziyning "Qissasul anbiyo", "Tafsir" kabi asarlari shular jumlasidandir.

Bu kitoblarda donishmand, hakim, davlat arboblari tilidan aytilgan hikmatli so'zlar, hikoyatlar, adolat, saxiylik, mardlik haqidagi qimmatli fikrlar insonni kitobga yaqin muxlis qilib qo'ydi.

Ayniqsa hadislarning xalq orasida keng tarqalishi, kitob shakliga keltirilishi natijasidan dastlab masjidlarda va boshqa jasoat joylarda ilohiyotga oid masalalar sharhlab berilgan va targ'ib qilingan. Keyinchalik esa ilk dunyoviy ilmlarning

taraqqiy etishi natijasida alohida o'quv muassasalariga ehtiyoj tug'ilgan va shu tariqa maktab va madrasalar paydo bo'la boshlagan.

Tabiiyki, ta'lim maskanlarini darslik va o'quv qo'llanmalar, zaruriy adabiyotlar bilan ta'minlashga e'tibor qilingan. Natijada, eng muhim kam nusxadagi asarlarni kitobat holiga keltirish uchun hattotlar xizmati vujudga kelgan. Ularning beminnat xizmatlari vositasida bebaho asarlarning nusxalari ko'paya borgan. Shu tariqa, ajdodlarimiz yaratgan bebaho asarlar dunyoga tarqala boshlagan.

1902 yilda O'rta Osiyoga safar qilgan rus sharqshunos olimi V.V.Bartold yurtimizda ma'lum bo'lgan qo'lyozma manbaalar bilan tanishar ekan ularni ko'pligidan hayratlanadi va tarixan turkiy xalqlarning kitobxonlikka yuqori darajada ekanligini e'tirof etadi. Olimning bu e'tirofi, xalqimizning kitobga bo'lgan muhru-muhabbatidan, kitobxonligidan tasdiqlaydi.

Davrlar o'tishi bilan xon saroylarida, amaldorlar, kitob muxlislari xonadonlarida kutubxonalar tashkil etila boshlaydi. Bu haqda ko'plab ma'lumotlar mavjud. Shu o'rinda qomusiy olim Ibn Sinoning kitob mutolaasi tufayli qator ilmiy asarlar va kashfiyotlar yaratganligini eslashimiz kifoyadir. U 16 yoshidayoq ko'zga ko'ringan tabib sifatida shuhrat qozongan. Uning tarjimai holida kitob mutolaasi bilan bog'liq muhim ma'lumot saqlanib qolgan. Kunlardan bir kuni, Ibn Sino Buxoro amiri Nuh ibn Mansurning kasalini davolash uchun saroyga chaqiriladi. U amirni davolaydi. Unga qimmatbaho hadyalar taklif etishadi. Ammo, u o'zining xizmati evaziga saroy kutubxonasidan foydalanishni so'raydi. Chunki, bo'lajak olim saroy kutubxonasida nodir kitoblar mavjudligini yaxshi bilgan. Ruxsat olgandan so'ng, Ibn Sino bu kutubxonadagi ko'plab kitoblarni mutolaa qiladi. Bu ma'lumotdan ko'rinadiki, Ibn Sino har qanday moddiy boylikdan kitobni ustun qo'ygan. Shunga o'xshash ma'lumotlar yurtimizda yetishib chiqqan mashhur olimlardan Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu RAYxon Beruniy, Umar Xayyom Alisher Navoiy va boshqa allomalar hayotida ham uchraydi. Ular hatto nodir kitoblarning qaysi yurtda mavjudligining daragini topsa, o'sha yurtga

poyu-piyoda axtarib borganligi haqida ma'lumotlarni uchratish mumkin. Bir so'z bilan aytganda, kitobga mehr, tashnalik bizga ajdodlarimizdan qolgan bebaho ma'naviy merosdir. O'lis tarixning zarvaraqlarida kitob, kitobxonlik bilan bog'liq alohida ilm sohasi vaqt o'tishi bilan takomillashib, shakllanib bora boshlaydi.

Taniqli olim Erkin Oxunjonov kutubxonachilik va uning bibliografiyasi tarixi bilan uzoq yillar davomida shug'ullanib kelmoqda. U fan sohalariga oid kitoblar tasnifi xususida quyidagi ma'lumotni keltiradi. "Ayni kitob fanning turli tarmoqlarida erishilgan ilmiy darajasini o'zida mujassam etib fan differensiyalashuvini o'zining tasnifiga ham olib kirishda moddiy asosga aylangan. Shunday qilib, fan sohalarining xulosalari ma'lum tartib bilan ko'chirilib kitob matniga aylana borgan" [33].

Avlod-ajdodlarimizning kitobga bo'lgan qiziqishlari natijasida xattotlarga bo'lgan ehtiyoj kuchaya boradi. Ular vositasida shoiru olimlar o'z asarlarini kitobxonlarga yetkazish maqsadida, mashhur xattotlarga bir necha nusxada ko'chirtirganlar. Maxsus xattotlar o'z xusnixatlarini chiroyli chiqishi uchun har bir harfga sayqal berishga intilganlar. Ular faqat kitoblarni ko'chirish bilangina shug'ullanib qolmay, balki kitobni bezash, oltin suvi yugurtirib zarhal harflarga naqsh berish odat tusiga kirgan. Bu kitoblar sovg'a sifatida podshohlarga taqdim qilingan.

Shu o'rinda, 1834 yilda yurtimizga tashrif buyurgan rus sharqshunos olimlaridan X.D.Fren, A.S.Kun, N.Xannikov, V.L.Vyatkin tomonidan asosan xon saroylari kutubxonalarida amir-amaldorlarning shaxsiy xonadonida saqlanayotgan noyob asarlarni Rossiyaga jo'natishda jonbozlik ko'rsatgan. Hatto yig'ib olingan noyob asarlar Sank-Peterburg kutubxonalariga tekin topshirilmay, kilingan xizmat evaziga katta mablag' va mukofotlar bilan taqdirlangan. Masalan, Volchenskiy nomli shaxs 24 ta noyob Sharq qo'lyozma asarlarini imperator kutubxonasiga katta mukofot evaziga taqdim etgan. Yoki Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufman topshirig'iga binoan sharqshunos A.L.Kun Xiva xoni saroyi kutubxonasidan 300 dona qo'lyozma asar, 18 ta Qur'oni Karimni musodara qilgan. Kitoblarning ko'p nusxada tarqalishida xattotlar bilan bir qatorda muxlislarning, madrasa

talabalarining o'zni muhim vosita hisoblagan. Shu bois, madrasa hujralarida, xonadonlarda kitobxonliklar jamoa bo'lib o'qilgan, bahsu munozaralar o'tkazilgan. Kitobxonlikka bo'lgan ishtiyoq har qanday og'ir sharoitlarda, madadkor taskin manbai sifatida ham xizmat qilgan. Ayniqsa, qahatchilik, urush, ziddiyatli zamonlarda bardosh, chidam, sabr kabi insoniy tuyg'ularni kitobdan o'rganganlar desak xato bo'lmaydi. Shu o'rinda yozuvchi Odil Yoqubovning bolalik xotirasida shunday yozadi: "To'rt-besh yoshlarimda qahraton qish kunlari uyimizda bo'lib turadigan kitobxonlikni eslayman. Turli yoshdagi muhlislar tancha atrofida o'tirib, dadam o'qib bergan kitobni diqqat bilan tinglaganlarini ko'rganman. Hatto ayrim hollarda ularning ko'zlarida yosh tomchilarini ham ko'rganman". Aslida, shunga o'xshash xotiralar deyarli barcha katta avlod yozuvchilarining tarjimai holida uchraydi. Eng muhimi, bolalikda kitobning qadr-qimmatini anglash, bolalik shuuri bilan anglaganliklarini alohida ta'kidlaydilar. Albatta, yozuvchi va san'atkor bo'lish uchun tug'ma iste'dod bo'lishi lozim. Lekin bu iste'dodni ro'yobga chiqarishda adabiyotga, kitobga bo'lgan mehr orqali erishiladi. Gap faqat yozuvchi va shoirlarning kitobxonligi haqida bo'lmay, balki, balki yoshlar qaysi sohani tanlamasin, u o'z sohasini puxta egallashi uchun uning hamkori bu kitob ekanligini unutmasligi lozim.

Shu o'rinda Alisher Navoiyning o'smir qizlar uchun tanish bo'lgan, umum - ta'lim maktablarining darsliklariga kiritilgan. "Farhod va Shirin" dostonidagi Shirin timsolida qizlar tarbiyasiga oid fikrlarni olib ko'raylik.

Shoir dostonida qizlar tarbiyasiga oid fikrlarini bayon qilar ekan, "Quruq jasadga nafis naqshli ipak matolardan kiyim kiydirilgani bilan, "Zarbof zebo surati"dan boshqa xech nima ko'zga tashlanmaydi", - deb ta'kidlaydi. Shu o'rinda o'z fikrini yanada aniqroq bayon qilishda Shirinning xulq - atvorini ochib berish vositasi orqali yanada to'ldiriladi. Dostonida ta'riflanishicha Shirin Arman mamlakatining malikalaridan biri, u yuqorida shoir aytganidek zarbof kiyimlar kiyib yuradigan oliy darajadagi davralarda voyaga yetayotgan qiz hisoblanadi. Ammo u erka tantiq qiz emas, u o'z go'zalligiga monand ma'naviy jihatdan o'ta tarbiyali bo'lish bilan birga tadbirli, odil va donishmand davlat arbobi hamdir.

Farhodning muhabbatiga erishishida uning oqila va fozila, latofati asosiy sabab sifatida tasvirlanadi. U o'z yurti ravnaqi uchun faol harakat qiladi. O'z shijoatini insonparvarlik fazilati bilan uyg'un olib borganligi tufayli o'rnak bo'ladi. Shuning uchun Alisher Navoiy Shirin obrazini alohida muhabbat bilan tasvirlaydi.

Yana, o'smir balog'at yoshidagi qizlarga insoniy fazilatlardan eng muhimi mehrli bo'lishni anglatishdir. Mehr oddiygina so'z bo'lishiga qaramay unda olam-olam ma'no mujassamlangan. Mehr degani olijanoblik, odamiylik, insonparvarlik, sahovat deganidir. Shuningdek, mehr kishi xulqining ziynati va oliy bir ko'rinishidir.

Xalqimizda: "Yaratganga mehr qo'ya olmagan, boshqalarga ham mehr qo'ya olmaydi" degan naql bor. Tabiiyki boshqalar bu ota-ona, yaqinlari, ustozlari, vatani va boshqa narsalardan iborat deganidir. Quroni Karimda va Hadisi shariflarda ota-onalarning hurmati, qarindosh urug'larining e'zosi, ularga bo'lgan mehr to'g'risida juda ko'p oyatlar, hadislar mavjud.

Bir so'z bilan aytganda xech qanday moddiy boylikni mehr bilan almashtirib bo'lmaydi. Shuning uchun yoshlarimizga xususan o'smir qizlarimizga mehrli bo'lishni, o'zidan kattalarning hurmatini joyiga qo'yishni, ota-ona va yaqinlarining mehnatini qadrlashni o'rgatib borishimiz biz kattalarning zimmasiga yuklatilgan muqaddas burchdir.

Ayniqsa, ota - onani hurmatlash har bir farzandning vijdoniy burchidir. Ular ota-ona yuziga tik qaramasligi, so'zlarini ikki qilmasligi lozim. Ayniqsa ota - ona keksayganda ularga mehr bilan qarash farzand uchun ham farz, ham qarzdur.

Mehr va muhabbat bilan bog'liq qadim zamonlardan buyon mehrjon bayrami o'tkazilgan. Bu bayram mazmunida juda katta ramziy ma'no bor. Bu bayramga keksalar bilan bir qatorda yoshlar ham taklif qilingan. Bu bayram yoshlarimiz uchun pand – nasihat, o'git berish tadbiridir. Unda rahm-shafqat, mehr-muhabbat, saxovat, o'zaro yordam xislatlari ulug'langan. Mehr bermoq muruvvat ko'rsatmoq xalqimizning azaliy istagi, orzusi bo'lgan. Yoshlarni ulardan bahramand qilish bugungi kunda muhim bo'lgan ehtiyojlardan biridir.

E'tibor beradigan bo'lsak Mehrjon bayrami milliy g'ururni ham namoyish etuvchi milliy tadbir bo'lib, unda balog'atga yetgan - qizlarimiz do'ppi va atlas ko'ylaklar kiyib, sochlarini mayda o'rib o'z milliy g'ururlarini namoyon etganlar. Tabiiyki g'urur bilan kibrlanishni bir narsa deb tushunmaslik kerak. Yoshlarda kibrlanish tuyg'usini paydo bo'lishi keyinchalik ularning hayotida salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Kibr va manmanlikning zarari haqida "Arastuning Iskandarga nasihati"da juda ma'noli fikrlar keltirilgan; "Mag'rurlanib ketishdan va gerdayishdan saqlangil, chunki u nimadan va qayerdan paydo bo'lganligini o'zing bilasan va qayerga borishingni ham yaxshi tushunasan" [82]. deydi.

Haqiqatdan ham kibr va manmanlik illati haqidagi yuqoridagi fikrlar bugungi yoshlarimiz uchun ham taalluqlidir. Ayrim hollarda, o'ziga to'q xonadonlarda tarbiya topgan yigit - qizlarimiz xulqida bu illatlar uchrab turadi. Ular birga o'qiydigan tengdoshini mensimaslikka, oddiyroq kiyingan kamsuqum dugonasini pisand qilmaslikga harakat qiladilar. Ayrim hollarda jismoniy kamchiligi bo'lgan tengdoshlarini masxara qilishdan ham toymaydilar.

Tabiiyki, bu illat o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki oiladagi kattalarda mavjud bo'lgan kibr, manmanlik yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va o'z tengdoshlariga bo'lgan munosabatda takrorlaydilar. Bunday oila yoshlarini tarbiyalash, kibrlanish, atrofdagilarni mensimaslik kabi tuyog'ularini oldini olish bir muncha qiyinchilik bilan amalga oshiriladi. Bu illatni oldini olish, avvalo oila muhitida amalga oshirilishi lozim. Tajribadan kuzatilgan holatga ko'ra kibrli, o'zlariga bino qo'ygan oila a'zolarida, qolaversa, oila muhitida odat tusiga kirib qolgan bu illatni tushuntirishning o'zi murakkab bir jarayonni tashkil qiladi.

Ish o'ringa maktab, liqey, kollejlarda tahsil olayotgan yuqorida aytilgan illatlarga ega bo'lgan yoshlarni kitobxonlik vositasi bilan tarbiyalashning muqobil usullaridan foydalanish ijobiy natijalar berishi mumkin.

Bu o'rinda, ular uchun o'zlariga o'xshash boy xonadonda tarbiya topgan, ammo o'zlarining xulqi, kamtarona hatti – harakati, xulqi va odobi bilan atrofidagilarning hurmatini qozongan qizlar obrazlari ishtirok etgan asarlarni

tanlab olish, va o'qishga tavsiya etish maqsadga muvofiqdir. Ijobiy qahramon sifatida ishtirok etgan obraz qisman bo'lsada, o'smir qizlarda shakllanayotgan kibr va manmanlikni oldini olish salbiy oqibatlarini tushunish uchun xizmat qilishi mumkin.

Bu o'rinda Abdulla Qodiriyning tarixiy romanlari "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon"da ishtirok etgan qahramonlar talqini o'smir yoshidagi qizlar uchun ibrat va namuna vazifasini bajara oladi[79].

Yozuvchining bu romanlari umumta'lim maktablarining adabiyot o'quv dasturiga kiritilgan va ular asosida badiiy filmlar, spektakllar yaratilgan. Shu bois, yoshlar bu asarlar haqida muayyan tasavvurga ega bo'lganligi sababli, ulardan ibrat o'g'itni, tushuntirish va ijobiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Ma'lumki, asarlardagi bosh qahramonlar Kumush va Ra'nolar ishtirok etgan lavhalar tasviri, ularda qalamga olingan sevgi iztiroblari, his-tuyg'ulari, o'smir qizlar uchun tanish va yaqin bo'lgan tuyg'ulardir.

Bu tasvirlarni yozuvchi katta mahorat bilan yoritadi va o'quvchining diqqat e'tiborini o'ziga tortadi. Romanlar tarixiy mavzuda bo'lganligi uchun, yozuvchi o'z qahramonlariga sharqona tarbiya mezonlarini qo'llaydi.

Shu o'rinda, "O'tkan kunlar" asaridagi Kumush obrazi yozuvchi talqinidagi lavhalarga e'tibor beraylik.

Kumush ichkari tashqari hovlili, o'ziga to'q xonadon sohibi Mirzakarimboyning yakkayu yagona farzandi. Ammo, u tantiq, erka emasligini yozuvchi imo - ishoralar bilangina bayon etadi. Shuning barobarida, uning go'zalligi haqida hikoya qilar ekan ma'naviy dunyosi bilan tashqi qiyofasi o'rtasidagi uyg'unlikni katta hurmat bilan tasvirlaydi. Kumush haqida yozilgan satrlar Qodiriyga xos jo'shqin va latif musiqiy ohangi bilan kishiga ruh beradi [79].

U ziyrak va aqlli, nuqtadon adabiyotga havasmand, bo'sh vaqtlarini kitob mutolaasi bilan o'tkazadi. Yoki, "Mehrobdan chayon" romanidagi o'smir qiz timsolidagi Ra'no obrazini olib ko'raylik. Romandagi eng murakkab obrazlardan biri Solih Mahmudning qizi. Maxdum bir tomondan qaraganda ijobiy xislatlarga ega shaxs sifatida ham namoyon bo'ladi. U o'z davrining o'qimishli kishilaridan

biri, maktabdor domla talabalariga diniy ta'lim berish bilan birga o'zbek va fors, tojik adabiyotidan, "Arab nahv va harfi"dan morfologiya va sintaksis saboq beradi. Ularni sharq allomalari Navoiy, Fuzuliy, Xo'ja Hofiz Sheroziy, Mirzo Bedil, Shayx Sa'diy kabilarning asarlaridan bahramand qiladi.

Xotini Nigor oyim, qizi Ra'no ham Solih Mahdumning talabalariga beriladigan saboqlaridan xabardor. Ular ham imkon qadar qizlarni savodxon, ilmi, bilimli qilishga intilgan muallimalardir.

Abdulla Qodiriyning mahorati shundaki, u ijobiy fazilatlarni, qahramonlarning fe'li, xarakter-xususiyatlariga mos ravishda tanlaydi. Ularni so'zlatish, xatlar yozdirish orqali nodon suhbatdoshiga qiyoslab, o'rni - o'rni bilan go'zal insoniy fazilatlarini ochib beradi.

Muallif o'zining har ikkala tarixiy romanidagi Kumush va Ra'nodagi tabiatni hadya etgan jismoniy go'zalligini alohida zavq bilan tasvirlasa ularning aql zakovatini, ilmini ikkinchi ma'naviy go'zallik sifatida tasvirlaydi. Masalan, "Mehrobdan chayon" romani qahramonlari bilan bog'liq shunday lavha bor. Ra'no Anvar bilan bo'lgan she'riy bayt-barak aytishuvida o'zining zukkoligi bilan bahsda g'olib bo'ladi. Bu she'riy bahsdan uning she'r yozish san'atidan, aruz ilmidan yaxshigina xabardor ekanligi ko'zga tashlanadi. Ra'no diniy kitoblardan tashqari fors-tojik namunalarini qunt bilan mutolaa qiladi. O'zi ham pinhona she'rlar mashq qilib turganligi haqidagi ishoralar o'quvchilarga o'rni bilan berib boriladi. Yozuvchi uning maktabdorlik ishlarida onasiga yordamchi bo'lib qizlarni o'qitganligini quyidagicha tasvirlaydi: "... qizlar saboqlarini bilmasalar arazlab, ularni o'qitmay tashlab ketgan chog'lari, arzimagan gapdan tez muttasir bo'lgan kezlari ko'p bo'ladi", - deydi.

Yozuvchi Nigor oyim obraziga alohida xayrixohlik bilan yondashadi va uning maktabdorlik faoliyatini alohida e'tibor bilan yoritib beradi. Chunki, Ra'no o'sha xonadonda voyaga yetgan, o'smir qiz, uning ismi jismiga monand bo'lishida onasining xizmati katta ekanligini yozuvchi asarning asosiy o'rinlarida mahorat bilan tasvirlaydi.

Yozuvchi uning portretini chizar ekan, bisotidagi yaxshi badiiy bo‘yoqlarini saxiylik bilan ishlatadi. Ra‘nodagi “ilmi - odob, fazlu-kamol”dan “she‘riy bir husn” egasi ekanligining sabablarini ota - onasidagi “fazl - zakovat” dan deb biladi, natijada Ra‘no Gulshan aro gullarning Ra‘nosi”ga aylangan. U o‘z davrining ma‘rifatli, ilg‘or fikrli, adabiyotga ixlosmand shaxs darajasiga erishgan siymolaridan biridir. Yozuvchi bir o‘rinda, uni “qiz suratidagi malakdir” deya ataydi.

Yozuvchi Tohir Malik o‘zining ta’limiy-tarbiyaviy masalalardagi fikr mulohazalarini o‘smir qizlar uchun ko‘plab o‘git-pandlarini ham mahorat bilan qahramonlar tilidan bayon eta bilgan yozuvchidir. Shunday, ibratli asarlaridan biri “Beklar va Bekajonlar” nomli ta’limiy asaridir. Yozuvchi bu asarida oila, ularda bo‘lib turadigan shodlik va musibatlar haqida so‘z yuritar ekan, o‘smir qizlar tarbiyasi, odobi, axloqi, ma‘naviyati, ma‘rifatiga bag‘ishlab “Qizlar daftariga” oid ruknni kiritgan. O‘smir qizlar tarbiyasiga oid fikr-mulohazalarini Saodat buvi tilidan nabirasi Tursunoyga qarata aytish uslubidan foydalanadi.

Yozuvchi o‘smir qizlarning sodda va samimiy xislatlarini ochib berar ekan keksa va donishmand Saodat buvi tilidan ifodalaydi. U bir o‘rinda “Ko‘z dil sandig‘iga qulflog‘liq yotgan sirni oshkor qilib qo‘yadi. Ko‘z shunaqa bamisoli oyna ichingdagi narsani ko‘rsatib qo‘yadi, ayniqsa ishqni... Ana tiling aytmaganini ko‘zing aytib qo‘yadiyu”, [95]. - deydi-yu”. Keltirilgan bu misol orqali yozuvchi o‘smir qizlarning o‘zgaruvchan holatlarini zukkolik bilan kuzatish lozimligini ota-ona va buvijonlarga uqtiradi.

Yoki yozuvchi o‘smir qizlarning diqqat e’tiborini hayot haqiqatini anglatishida Saodat buvi pand-o‘gitlari vositasidan foydalaniladi. Ya’ni, nabirasiga hayot haqida, qizlarning zimmasidagi vazifalari haqida so‘z yuritar ekan xonasidagi kitoblardan foydalanadi. Ayrim o‘rinlarda ulardan parchalar o‘qib berib aytayotgan fikrlarni to‘ldirib boradi. O‘zi aytmoqchi bo‘lgan fikrlarni o‘zbek xalq maqollaridan, hikmatli gaplardan keltirgan misollar bilan bezaydi.

Iste'dodli yozuvchi O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi romantik ruhda yozilgan bo'lib ona haqidagi, ona qalbining cheksiz sahovati to'g'risidagi o'ziga xos qasidadir. Yozuvchi bu asarni yozar ekan, bolalik bilan bog'liq xotiralari bilan birga ota-onasiga zamondosh bo'lgan, balog'at yoshidagi qizlar ularning axloq - odobi, o'zlarini tutishlarini ham qalamga olgan. Ulardan birini singlisi qatori ko'rsa birini opasi sifatida tasvirlaydi. Ularning yashagan oilalari, aka-ukalari, qarindosh - urug'lari haqida qisqa ma'lumot berib o'tadi. Yozuvchining bolaligi o'tgan urush yillarining keyingi davrlari, ularda yashagan ayollar, qizlarning axloq - odobi haqidagi xotiralari, tabiiyki, bugungi kun yoshlari hayotidan keskin farq qiladi [90].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugungi jamiyatda yoshlarning har tomonlama rivojlanishi uchun kitoblarning roli va ahamiyati juda katta. Kitob inson hayotida juda katta va eng muhim rol o'ynaydi. Qadimgi darlarda kitob bebaho ma'lumot manbai, bilimlarning uzatishning eng qadimiy usuli bo'lgan. Ammo hozirda kitoblar kamroq ommalashmoqda, chunki ko'plab boshqa manbalarning paydo bo'lishi tufayli ma'lumotlarni topish ancha osonlashdi va odamlar kitoblarning mavjudligini unitishni boshladilar, ammo baribir axborot dunyosi va texnologiyalar kitoblarni almashtira olmaydi va bekor qila olmaydi.

Kitob-ma'lumot, g'oyalar, tasvirlar va bilimlarni saqlash va tarqatish, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, estetik qarashlarni shakllantirish, bilim, san'at, fan, ijtimoiy adabiyotni targ'ib qilish va tarbiyalash vositasidir. Xalqaro statistikada, YUNESKO tavsiyasiga binoan 48 sahifadan kam bo'lmagan davriy nashrni kitob sifatida chaqirish qabul qilinadi.

Kitob insoniyatning qadimgi tarixidagi eng katta mo'jizasi va ixtirosi bo'lib, u insonning aqliy yetukligi va ma'naviy yetuklik darajasiga ko'tarilishiga yordam beradi va har birimiz kitobdagi bilim manbalari orqali ma'naviy ozuqa olamiz. Shuning uchun kitob bilim, ma'naviyat, madaniyat va ma'rifat manbaidir. Insonni ulug'laydigan, unda ma'naviyat va ma'rifat poydevorini shakllantirgan, uni komil inson qilib tarbiyalaydigan kuch bu dunyo va bu dunyoni bilish manbaidir. Biz

kitoblar orqali o'zimiz, dunyo, koinot va insoniy munosabatlar haqida bilib olamiz. O'qishni sharxlar ekan, buyuk allomalar adabiyoti bilan tanishgan odamda yaxshilik va yaxshilik doim hamroh bo'ladi, deganlar. Kitob o'tmish, hozirgi va kelajak o'rtasidagi noyob ko'prikdir. Shu sababli, kitob ma'naviy meros, bitmas-tuganmas xazina deb nomlanishi bejiz emas va faqat haqiqiy kitobni qadrlaydiganlar uning qadrini anglaydilar.

“Odamlar o'qishni to'xtatganda, o'ylashni to'xtatadilar”, deb yozgan D.Didro. Va shubhasiz, u haq edi. Darhaqiqat, o'qish tufayli shaxsning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan xayoliy fikrlash shakllanadi. Kitob madaniyatini o'rgatadi, chuqur tafakkurni rivojlantiradi, diqqat va xotirani rivojlantiradi. Albatta, bugungi adabiyotning mashhurligini yelliginchi, oltmishinchi, yetmishinchi va saksoninchi yillardagi o'qishlar bilan taqqoslab bo'lmaydi, ammo buning mantiqiy izoxi bor.

Zamonaviy texnikalar bizga keng imkoniyatlarni taklif etadi, ammo hayotingizni kitobsiz tasavvur qila olasizmi? Natijada, ma'lumotni faqat o'qituvchining tushuntirishlariga asoslanib olish juda qiyin va ba'zan imkonsizdir. Shuning uchun kitobning inson xayotidagi o'rnini juda muhim va noyobdir. Uning yordami bilan inson xayotidagi qiziqarli suhbatdosh o'z sohasining malakali mutaxassisiga aylanadi.

Shunday qilib, yangi texnologiyalar paydo bo'lishiga qaramay, javonda turgan har kim kitob topishi mumkin, chunki bu bizning hayotimizdagi eng muhim o'qituvchi. Birinchidan, har bir ota-ona bolani ertak va she'rlardan boshlab kitob bilan tanishtiradi, keyin bolalar maktabda kitoblardan foydalanishni o'rganishda davom etadilar. Ular kitobga tayanib yangi bilimlarni kashf etadilar, eng qiyin muammolarni yechishda yordam beradilar va qiziqtirgan savollarga javob oladilar. Zamonaviy dunyomizning barcha sehlari va go'zalligini kashf etishingiz uchun kitoblar dunyosiga o'zingizni jalb qiling. Bu sizga nafaqat orqaga sayohat qilish, balki sayyoramizdan tashqarida sayohat qilish imkoniyatini beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi globallashayotgan dunyoda kitoblarning ahamiyatini oshirish va ularni odamlarning javonlariga qo'yish juda muhimdir. Internet, uyali telefonlar va mobil qurilmalar kabi aloqa vositalarining ko'payishiga qaramay, kitob o'zining jozibasi va kuchini saqlab qoladi.

2.2-§. O'smir qizlarning sharqona ma'naviy-axloqiy dunyoqarashlarini shakllantirishda urf-odatlar va xalq og'zaki ijodining shart-sharoitlari

Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida yoshlar tarbiyasi bilan bog'liq muhim mulohazalarni tilga olar ekan bir o'rinda: "...ajdodlarimizning boy madaniy merosini chuqur o'rganish asosida yoshlarning ongu tafakkurini shakllantirish muhim strategik ahamiyat kasb etadi", - deya alohida e'tirof etib o'tadi. Bu e'tirof bevosita alohida vazifa bo'lib, o'quvchilarni mustaqil mutolaa madaniyatini shakllantirish bilan bog'liq muammoni hal etilishiga qaratilgandir.

Aslida, bu muammoning asosiy poydevori alloma ijodkorlarimizning asarlarida, xalq og'zaki ijodi namunalarida bebaho xazina sifatida mujassamdirlar.

Bu manbalarda yoshlar ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy qarashlarini shakllantirish bilan bir qatorda, eng nozik masala o'smir qizlar tarbiyasi bilan bog'liq tarixiy, sharqona, milliy urf-odatlar zahirida mavjud fazilatlar xususida ham mulohazalar keltirilgan.

Xalq urf-odatlari orasida o'smir qizlar tarbiyasi bilan bog'liq sharqona pand va nasihatlar har qadamda uchraydi. Olaylik, oddiy salomlashish odobidan tortib, o'zini toza-ozoda tutish, sarmjon-sarishta bo'lish, mehmondorchilik madaniyatiga qadar bo'lgan masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Har bir xonodoning qizi, mehmondo'stlik udumini yaxshi bilishi kerak. Xalqimizda "Mehmon oz o'tirar, ko'p o'tirar", ya'ni har qanday mehmon o'tirgan yerida hamma yoqqa ko'z yugirtirib o'tiradi va xonadon egalariga, ayniqsa, qiz-ayollarning batartib, besaronjomligi haqida baho berib ketadi. Bu xalqimiz tarixidagi azaliy udumlarimizdan biridir.

Eng qadimgi manbalardan biri, zardo'shtiylarning muqaddas kitobi, "Avesto", "Urxon – enasoy bitliklari" dan tortib, xalq og'zaki ijodining turli janrlarida qizlarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Ayniqsa, xalq og'zaki ijodi namunalari avlodlarimizning asriy hayotiy dunyoqarashlarini, urf-odatlarini singdirganligi bilan diqqatga sazovardir.

Xalq og'zaki ijodi janrlari orasida maqol o'zining ixcham, sermazmun, ta'limiy, axloqiy, tarbiyaviy ahamiyati bilan alohida ajralib turadi. Ulardagi ma'lum bir tarbiyaviy tushunchalarni o'rni bilan joylashtirilsa, chinakam ma'noda pedagogik qo'llanma vujudga keladi.

Har bir maqol, hikmatli so'zlar keng tarzda izohlanar ekan, ularning tarixiy ildizlari, to'g'ri ma'noda yoki ko'chma ma'noda ifodalanishiga qarab mantiq qatlami yanada yorqinroq oydinlashadi. Ma'lumki, har qanday farzand hoh o'g'il yoki qiz bo'lsin, ota-onaga orzu-umid, katta quvonch, shodlik baxshida etadi. O'g'il farzand-belning quvvati bo'lsa, qizi borning baxti bor deydi dono xalqimiz.

Shu bois, avlodlarimiz qizni ham o'g'il kabi to'laqonli farzand hisoblaganlar, qizlarning o'ziga xos fazilatlarini og'zaki ijod namunalarida madh etganlar. Qiz ko'rgan ota-onalar kelajakda el-yurt o'rtasida qadrli va e'tiborli ekanliklarini e'tirof etganlar.

Ayniqsa, ular ko'zga ko'ringan sayin, orzu-o'ylari, mehr-muhabbatlari yanada ko'zga yaqqol tashlana boshlaydi. Eng muhimi, bu quvonch tuyg'usini el-yurt oldida, yaqinlari ishtirokida baham ko'rishni niyat qiladi. Aslida bu tuyg'u bugun paydo bo'lgan tasodifiy hodisa emas, balki asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelgan milliy-ma'naviy, axloqiy qadriyatdir.

Masalaning nozik, ammo muhim tomoni shundaki farzandlaridan kutish lozim bo'lgan orzu-o'ylarni risoladagidek amalga oshirish uchun, ularning tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan nimalarga ota-ona qat'iy e'tibor bermog'i lozim. Avlod-ajdodlarimiz bu nozik masalani qanday uddalashgan, ularning asriy tajribalari qanday ijobiy natijalar bergan? Bugun shu tajribalardan qay biriga

ehtiyoj sezilmoqda? Ayni kunlarda bu tajribalarni amalda qo'llash imkoni bormi? Eng avvalo, ushbu savollarga javob berish uchun xalqimizning boy, milliy, madaniy-tarixiy an'analarini, urf-odatlarini hamda umumbashariy qadriyatlarini yaxshi o'rganish lozim. Bu masala bevosita milliy g'oya, milliy mafkura bilan bog'liq bo'lib, muqaddas an'analar, o'zlikni anglash tuyg'usi bilan chambarchas bog'liqdir. Ana shu anglash ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularni bugun amalga oshirish imkonini beradi. Chunki, xalq o'z kelajak avlodiga insoniyat tarixidagi eng ibratli fazilatlarini meros qilib qoldirishga intilgan.

Pedagoglar, bu tuyg'uni asosan kattalarning so'zini, holatini bolalar juda yoshlikdan seza oladilar, ayrim taassurotlarni xotiralarida saqlab qoladilar deb hisoblashadi. Buning uchun bu oilaviy qadriyatlarni bo'lajak onalarga, o'smir qizlarga singdirish sharqona tarbiyaning dastlabki qadami sifatida baholash mumkin.

Aslida, g'oyaviy tarbiya, ruhiy-ma'naviy tarbiya oilada amalga oshirilgani bois, xalqimiz barcha tarbiya turlarini bir maqolda, ya'ni "Qush uyasida ko'rganini qiladi" tarzida qisqa va ma'nili qilib ifodalab bergan.

Ayniqsa, o'smir qizlar aksariyat hollarda ukalariga qarashi, ovutishi, ko'tarishi va o'ziga xos erkalovchi so'zlarni beixtiyor ishlatishlari ham, keyinchalik shaxsiy hayotlarida sezilarli iz qoldiradi.

O'smir qizlar ma'naviy-ma'rifiy qarashlarini sharqona ruhda shakllantirishda maqollar, matallar, hikmatli so'zlar, o'git, pand-nasihatlarning mazmun mohiyati bilan katta yordam beradigan xazinadir.

Chunki, ulardagi o'ziga xos ohangdorlik, o'tkir badiiy o'xshatishlar, ramz va istiora, qiyosiy solishtirishlar eshituvchini o'ziga rom qiladi, uning badiiy zavqini oshiradi. Ulardagi fikran teranlik yoshlarning irodasini mustahkamlaydi. Ularning ta'sir kuchining asosiy sababi, xalqimiz tomonidan yuz yillar davomida hayot tajribasi sinovlaridan o'tkazganligidadir. Qolaversa, har bir davr kishisi bu bebaho xazinadan o'ziga tegishli va zaruriy xulosa chiqarish imkoniyatini his etganligidadir.

Xalq ijodiyoti namunalarida ibrat bo‘ladigan, oilada, turmushda, yurish turishida, muomala madaniyatida, o‘zini tutishda va boshqa insoniy fazilatlarga tegishli bo‘lgan mavzular turi xilma-xildir.

Ma’lumki, bolalar qanday yoshda bo‘lmasin, ularning tarbiyasi o‘ta nozik, ma’suliyatli hayotiy imtihondir. Bolalar xuddi ota-onalari kabi, o‘zi yashagan muhitning azaliy an‘analari, urf-odatlarini ruhida voyaga yetadi va barcha qonun qoidalarga amal qiladi va bo‘ysinadi. Qolaversa, keng insoniy fazilatlarining shakllanishida axloq-odobdan saboq beradi.

Masalan, oilada ota-onalar, bobo-buvilar, amma-xolalar shunchaki suhbat asosida davralarda aytilgan maqol, masal, hikoyat, rivoyatlarni so‘zlar ekan, yonlarida yugirib yurgan bolalar, xizmatda bo‘lgan o‘smir qizlar ham eshitadilar. Chunki, bu xalq og‘zaki ijodi namunalari, o‘zining xalqona tilda aytilishi bilan, ixcham, sermazmunligi va ta’sirchanligi bilan tinglovchini diqqat e’tiborini o‘ziga tortadi. Eng muhimi, ular xalqimizning aql zakovati, orzu-o‘ylari, ruhiy kechinmalarining mahsulidir. Ota-bobolarimiz xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida, aytilgan fikrni yorqin, obrazli qilib ifodalaydi.

Bu xalq yaratgan ijod namunalari ulug‘ ajdodlarimiz an‘analarining, urf-odatlarini so‘z vositasida ifodalanishidir.

Ana shunday janrlardan biri bu bola ruhiyatiga, asab bilan bog‘liq irsiy shakllanishida muhim o‘rin tutgan bolaning go‘dakligida aytiladigan mayin, yoqimli, erkalamalardan iborat onalar allasidir. Ta’bir joiz bo‘lsa, go‘dagiga aytgan alla qo‘shig‘i ona qalbidagi mehrning bebaho xazinasini ifodalovchi ohang hamda ilk tarbiya maktabi deb atash ham mumkin.

Bu haqda Abu Ali Ibn Sino: “Bolaning mijozini kuchaytirish uchun, uxlatish uchun aytish odat bo‘lib qolgan musiqa va allalashlar bu bilan (bola) ruhi bilan musiqaga bo‘lgan iste’dodi hosil qilinadi”, [15]. -deydi. Demak, musiqa bevosita ona allasi matni bilan uzviy bog‘lanib, bolaning aqliy va axloqiy sifatlarini shakllantirib boradi.

Ular ilk bora ona tilining jozibasini, sharqona, milliy ruhning ilk kurtagini, onalarning erkalamalari, ovutmacholari vositasida his qiladi.

Yoshlikdagi yupanchim

alla-yo,
Qariganda suyanchim,
alla
Yiqilganda tayanchim
alla-yo,
Qo'chqor bolam alla-yo,
alla
Alla-yo bolam,
alla
Uxla ko'zim qorasi
Senga aytay bu
palla
Qo'shig'imning eng sarasin
alla-yo, alla

Vaqt o'tishi bilan qarabsizki, bolakaylar bog'cha yoshiga yetadi, maktabga boradi.

Odatda xalq bolalarga atalgan maqol, matal va ibrat-o'git so'zlarni ularning tarbiyasiga, yosh xususiyatlariga mos tarzda yaratadi. Ayrim hollarda kattalar, o'smir qizlar bilishi lozim bo'lgan hatti-harakatlarni, voqea-hodisalarni voqeaband ibratli so'zlar vositasida ham aytish hollari uchraydi. Masalan "Ishni o'zi bilib qilishda hikmat ko'p". Bu maqolning amaliy pedagogik ahamiyati katta bo'lib, uning zaminida hayotiy tajriba yotadi. Ya'ni oilada qiz bola qilishi lozim bo'lgan yumushlarni tartib bilan, o'rni bilan bajarish lozimligi nazarda tutilgan.

Ayniqsa o'smir qizlar tarbiyasi bilan bog'liq sharqona pand-o'gitlar, nasihatlar deyarli har bir xalq og'zaki ijod namunasida uchraydi. Faqat mazkur ijod namunalarini qizlar ruhiyatiga singdirishda yoshi ulug' momolarimizning ishtiroki katta ahamiyatga egadir. Chunki, musulmon dunyosiga xos bo'lgan hayot tarzi shunday aniq tasvirlar vositasida berilganki, uni o'smir qizlarga oddiy suhbat, maslahat tarzida yetkazishning imkoniyatlari kattadir. Masalan, oddiy, ammo qiz bola uchun muhim bo'lgan maishiy ishlardan biri ozodalik bilan bog'liq bo'lgan

quyidagi maqolni olib ko'raylik. Ovqatdan so'ng yuvilishi zarur bo'lgan idish-tovoqlarga tegishli bu maqol juda ibratlidir.

Darrov yuvsang, silab-silab yuvasan,
Ertasiga yuvsang tirnab-tirnab yuvasan!

Odatda bu o'git ota-onalar tomonidan qizlarga har doim takrorlanadigan yumushlardan biri bo'lib, oddiy topshiriq sifatida aytiladi. Ammo, maqol orqali, uni izohlash orqali aytilsa, tabiiyki o'smir qizlar xotirasida saqlanib qoladi va amalda uning natijasiga guvoh bo'ladi. Aynan shu o'gitning yana bir ko'rinishi xalq orasida keng qo'llaniladi: "Silasang sirt yalog'i, silamasang – it yalog'i". Bu maqol sirtdan qaraganda bu bir oz qo'pol ma'noda qo'llanilsada, aytilmoqchi bo'lgan fikr bir muncha keng ma'noni ifodalaydi[77], ya'ni: Uy-ro'zg'or asboblarini, idish-tovoqni ehtiyotlab, ozoda, pokiza tutib borsang, uni ichi tugul sirti ham pokiza bo'ladi degan ma'noda aytilgan.

Mana shu o'rinda o'smir qizlarga pokizalikning aksi bo'lgan holatni tushuntirish ham muhim ahamiyatga egadir. Ma'lumki, idish-tovoqni vaqtida yuvib, artib, tozalab turmasang, bora-bora iflos, irkit, jirkanch bo'lib, unga solingan narsani yeging, ichging kelmaydi u bora-bora it yalag'iday bo'lib qoladi deyiladi. Eng yomoni bi illatning oldi olinmasa, keyinchalik odat tusiga kirib qolishi va ko'nikma hosil qilishi mumkin.

Yoki, "Ota-onaning duosi, o'tga suvga botirmas", "Kosov uzun bo'lsa, qo'ling kuymas", "Erta bilan supursang el ko'radi, kech supursang shayton ko'radi", "Kattalarga hurmatda, kichikka izzatda bo'l" kabi maqollar bevosita sharqona tarbiya masalalariga qaratilgan bo'lib, qadim zamonlardan buyon o'smir qizlarni tarbiyalashda qo'llanilgan ibrat-o'gittir.

Eng avvalo, voyaga yetayotgan o'smir qizlarning tarbiyasi bilan bog'liq masalalardan tashqari yuksak badiiy didini tarbiyalashda ham xalq og'zaki ijodining ma'naviy-tarbiyaviy o'rni benihoya kattadir. Badiiy did, his – tuyg'ularning rivojlanishiga xizmat qiladigan eng muhim omillardan biri-bu kitobxonlikdir. Xalq og'zaki ijodi namunalari faqatgina badiiy didni tarbiyalabgina

qolmay, balki ota-bobolarimizning asriy urf-odatlarini, milliy qadriyatlarini, bosib o'tgan tarixiy yo'llari, sharqona ta'lim tarbiya usullari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Xalqimiz did, odat va farosat bir-biriga yaqin tushuncha deb hisoblaydi. Mazkur tushunchalar insonning hayotga bo'lgan ma'naviy munosabati va bu munosabatning ko'rinishini hamda chegarasini belgilaydi. Shunday ekan, har bir o'smir qizlarimiz o'zining did, farosati bilan o'qigan kitoblari, musiqa, tasviriy san'at, teatr, kino va boshqa san'at asarlaridan zaqlanish tuyg'usi orqali ifodalaydi.

Eng muhimi, xalqimiz o'zi yaratgan og'zaki ijod namunalarida o'smir yoshlarning didini, farosatini, ma'naviyatini tarbiyalashga qaratilgan misollar ko'plab uchraydi.

Shu o'rinda, keksalarimizning qalb qo'ridagi eng yaxshi, tabarruk, so'zlari ularning olqishlari va erkalashlaridir. Bu xalq og'zaki ijodida insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan mustaqil janr hisoblanadi.

Xalq olqishlarining inson hayotidagi qo'llanish dorasi xilma-xil, lekin ularning hammasida ham azaliy urf-odatlarimiz, milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz o'z aksini topgan. Masalan, buvijonlar o'z nabira qizlarini do'ndiqcham, qaqajon, qizalog'im, bibijonim, oppog'im kabi iborali sifatlar bilan erkalaydilar. Yoki, masalan, dasturxon atrofiga o'tirishdan avval qo'l yuvish xalqimiz uchun azaliy odat. Bu yumushni odatda yoshi kichikroq, o'smirlar keksa otaxon va onaxonlarning qo'llariga suv quyadilar. O'z navbatida ular suv quygan yoshlarga ezgu tilaklar tilab olqishlar aytadilar.

Agar suv quyayotgan shaxs qiz bola bo'lsa, olqishlar bilan bir qatorda "Baxtli bo'lg'in, bolam, ko'p yasha, borgan joyingdan unib-o'sib, baxtingni topgin", "Bo'ylaringga onang girg'itton bo'lsin" qabilida yaxshi tilaklar izhor qilinadi.

"Sharqona iqtidorga ega bo'lgan so'zga chechan yoshi ulug' otaxonlaru onaxonlar xalqimiz orasida bor, albatta. Ular ko'pincha olqish matniga ham

mazmun, ham shakl jihatidan turli tuman o'zgarishlar, ba'zi qo'shimchalar kiritgan holda ijro etadilar" [31].

Aslida, olqishlar eng ulug' donolikdan iborat so'zning soddagina ko'rinishidir. Ammo, unda ifodalangan tilak va istaklar butun-butun kitoblar mazmuniga teng keladigan fikrlar, nozik sezgilardan iboratdir. Ayrim hollarda, olqishlar o'zbek xalq maqollari naql, ibora hikmatlar bilan yo'g'rilgan bo'ladi.

Shu o'rinda yoshlar tarbiyasida muhim vosita sanalgan, tilimizga, nutqimizga ko'rk beradigan bu – xalq iboralaridir. Xalq iboralari ham tilimizning milliy madaniyatimizni namoyon etuvchi xazinalardan biridir.

Iboralar u yoki bu xalq yashayotgan joyning urf-odatlarini, milliy an'analarini asrlar osha avlodlardan avlodga yetkazuvchi til birligidir. U asosan og'zaki so'zlashuvda keng qo'llanilib, gapning ma'noli, fikrni aniq ifodalashda qo'llaniladi. Shu bois xalqimiz iboralarni nutqimiz ko'rki deb hisoblaydilar. Masalan, onalarimiz, bu balog'at yoshiga yetgan qizlarining qilgan ishlarini, orastaligini ko'rganda, beixtiyor "ko'nglim yorishdi", yoki bir necha yumushni bir yo'la bajarganda, "chaqqon qizim, bir o'q bilan ikki quyonni uribdida", "bo'yларingdan o'rgilay qizim", kabi iboralar ijobiy ma'no ifodalovchi olqishlar shaklidagi iboralardir. Bu iboralar ijobiy muamalani ifodalash bilan bir qatorda so'zlovchining zavq-shavqini ham ifodalaydi.

Adabiyotshunos olim Mahmud Sattor o'zining "O'zbekning gapi qiziq" kitobidagi fikrlarni millatning kenja bo'g'iniga bag'ishlaganini aytish barobarida, "Bo'y-bo'ylashmoq" iborasini quyidagicha ifodalaydi. Ya'ni, o'g'ilu-qiz bolalar yil sayin bir-biriga tenglashib o'sib boradi.. "Bo'yga yetmoq" qiz bolaning sochi bo'yi bilan teng bo'lishi, ekilgan niholning odam bo'yicha tenglashishi ya'ni balog'atga yetganiga ishora qilingan.

Bu ibora ham, bevosita millatimizga xos bo'lib, madaniy hayotimizni, milliy qadriyatimizni ifodalaydi.

Bolalar juda yoshligidanoq ertaklar, hikoyatlar, afsona va rivoyatlar eshitib katta bo'lishadi. Aslida, bu janrlar o'zining mazmun mohiyati bilan bolalar ruhiga

“nima yaxshi”, “nima yomon” degan tushunchani singdirishi bilan sharqona tarbiyaning asosini tashkil qiladi.

Chunki ularda inson hayotida ro‘y bergan ibratli voqealar hikoya qilinadi. Eng e‘tiborli tomoni shundaki, ertak aytuvchining tanlagan mavzusidan kutiladigan maqsad uning kasbi kori bilan uzviy bog‘liqdir. Masalan, ayollar haqidagi ertaklarni alohida hurmat bilan aytuvchilar chin tarbiya ko‘rgan, axloqli, odobli qizlarni bosh qahramon qilib tanlar ekan, alohida mehr va zavq aytadi. “Yoriltosh”, “Zumrad va Qimmat”, “Aqlli qiz”, “Guliqahqaha” singari ertaklar xalq orzu qilgan qizlar, ayollar haqidagi ertaklardir. Ularning har bir harakati fikriy dunyoqarashlarida asosan o‘smir qizlar uchun o‘rnak bo‘ladigan tarbiyaviy jihati, ertak eshituvchining diqqat e‘tiborini o‘ziga tortadi.

Ertak qahramoniga nisbatan o‘tkazilgan zulm va zo‘rlikka, adolatsizlikka nisbatan nafrat tuyg‘usini uyg‘otadi.

Ayniqsa, tez takrorlanadigan, hayajonlanadigan o‘smir qizlarga aytilgan qiziqarli har qanday ertak, shu janrga nisbatan qiziqish uyg‘otishi tabiiydir. Chunki, o‘zbek xalq ertaklari xalqimizning uzoq davrlardagi hayoti, urf-odatlarini, dunyoqarashlarini, o‘zbek tilining xususiyatlarini, boyligi va rang-barangligini yaqqol namoyish qiladi. Eng muhimi, ertak yakuni, an‘anaviy tarzda “murodu maqsadiga yetibdi” shaklida yakunlanadi. Bu yakuniy xulosa, ertak eshituvchining istagi hohishi bilan bog‘liq, har qanday yaxshilikni yomonlik ustidan g‘alaba qilishi bilan bog‘liq ibratli xotimadir.

Yoki, she‘riy va nasriy parchalardan iborat matndan tashkil topgan dostonlarda ham xalq ruhiyatini sharqona urf-odatlarini, ayollarning tarixiy o‘tmishi bilan bog‘liq muhim masalalarni qamrab olganligi bilan muhim manba hisoblanadi.

Shu bois bo‘lsa kerak xalq og‘zaki ijodi namunalarida ilgari surilgan g‘oyalar asrlar davomida yosh avlodni tarbiyalash vositasi bo‘lib kelgan.

Bugungi kunda ham yoshlarimizni milliy, sharqona mafkurasini shakllantirish va rivojlantirishda xalq og‘zaki ijodi namunalari munosib o‘ringa egadir.

Mana shu o'rinda, yana bir muloxazani aytib o'tish joiz deb o'ylaymiz. Ma'lumki, bugungi yoshlarimiz ommaviy axborot vositalari telegram, internet va boshqa texnik vositalardan keng foydalanib kelishmoqda.

Ular bu vositalar orqali xorijiy va boshqa o'lkalarning urf-odatlarini, mazkur xalqlarning bizning odatlarimizdan tubdan farq qiladigan turmush tarzlaridan xabardor bo'lib borayotganliklarini ko'rayotirmiz. Ayrim, xorijiy tillarni o'zlashtirgan iqtidorli yoshlarimiz, chet el gazeta, jurnal, badiiy adabiyotlarni o'qish orqali boshqa mamlakat va xalqlar hayoti bilan tanishib borayotganlari ham ko'zga tashlanmoqda.

Shu bois, bo'lsa kerak o'smir qizlarimizning orasida G'arb madaniyati udumlariga taqlid qilib kiyinishi, turli harakatlar qilishi, so'zlashuv nutqlarida xorijiy atamalardan foydalanish holatlari ko'zga tashlanmoqda. Aslida esa jaxon adabiyoti ham o'zbek adabiyoti tarixi singari boy, turli janrlarda yaratilgan asarlari orqali o'z yurti tarixi, madaniyati, tili, urf-odatlarini haqida ma'lumot beruvchi beqiyos manbadir.

Har bir adabiyotni umumlashtiruvchi adabiy janrlar mavjud bo'lib, ular roman, qissa, ertak, hikoya, rivoyat va afsonalarning mazmuni mohiyatidan ezgu insoniy xulosalar chiqariladi.

Ayniqsa, jahon xalq og'zaki ijodi namunalaridan ertak janri keng va ommaviy, o'quvchisining diqqat e'tiborini tortuvchiligi bilan alohida ajralib turadi.

Aslida, deyarli barcha xalq og'zaki ijodi namunalari "sayyor syujetlar"ining bir xalq og'zaki badiiy ijodidan boshqasiga "Ko'chib o'tishi" natijasida o'zaro o'xshash syujetga ega bo'lgan namunalar vujudga kelgan.

Ayniqsa, ertak janriga xos bo'lgan "ko'chib yuruvchi syujetlar"ning xalqlar orasida keng tarqalishi sabab bu janrga qiziqishiga o'quvchilarning diqqat e'tiborini tortishiga olib keladi.

Har bir xalq "ko'chib yuruvchi ertak janr"larini o'z hayoti, madaniyati, psixologiyasi, dunyoqarashi, urf-odatlarini, orzu-istaklari zaminida qayta ishlab chiqadi.

Balog‘at yoshidagi o‘smir qizlarning xalq og‘zaki ijodi namunasi bo‘lgan ertak janri qaysi millatning mulki bo‘lishidan qat’iy nazar, ularning hayoti dunyoqarashi, urf-odatları, milliy xususiyatlari va yashash tarzi haqida ma’lumot beradi.

Shu bois, boshqa millat va elatga tegishli bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi bilan tanishgan o‘quvchi, o‘z xalqi hayotiga solishtiradi va qiyoslaydi.

Masalan, yetim qiz yoki o‘gay qiz haqidagi ertaklarning o‘zbek xalq og‘zaki ijodida to‘qqiz xil syujeti mavjuddir. Bu mavzu jahon xalqlari xalq og‘zaki ijodida ham uchraydi. Ertaklarni o‘qigan o‘quvchi har ikkala xalq to‘qigan ertaklarni bir-biriga qiyoslashga harakat qiladi va o‘zbek xalq ertaklarining o‘ziga xos, o‘quvchi qalbiga yaqin farqli jihatlarini anglab oladi.

Yevropa xalq og‘zaki ijodida, o‘zbek xalq ertaklari orasida o‘smir qizlarning sevib o‘qiydigan “Zumrad va Qimmat”ga o‘xshash “O‘gay ona va o‘gay qiz” ko‘rinishidagi besh xil turi mavjud.

1. Quduqdan suv olayotgan yetim qiz bexosdan chelakni tushurib yuboradi. O‘gay onasining qahridan qo‘rqib, chelek axtarib yo‘lga tushadi. Yo‘lda sehgarga uchraydi va unga yaxshilik qiladi. Evaziga sehrgar unga bir sandiq tilla sovg‘a qiladi. O‘gay onaning qizi esa, o‘zining uquvsizligi tufayli olovda kuyib o‘ladi.

2. O‘rmonga adashtirib kelingan o‘gay qizni Ayozbobo uchratadi va sovg‘a beradi.

3. O‘rmonga adashtirib kelingan o‘gay qiz ayiqni uchratadi va do‘stlashib qoladi. Keyin ayiq unga katta yordam qiladi va baxtga erishadi.

4. O‘rmonga adashtirib kelingan o‘gay qizga mushuk, olma, beryoza daraxti va pechka yordam beradi.

5. O‘rmonga adashtirib kelingan o‘gay qiz shaytonni uchratadi va uni aldab tong ottiradi keyin qochib ketadi.

Yuqoridagi ertaklarning ayrimlarini o‘qigan o‘quvchi, beixtiyor “Zumrad va Qimmat” ertagini eslaydi va uni qiyoslab tahlil qiladi va o‘ziga xos milliy jihatlarini anglab oladi.

Folklorshunos olim Mamatqul Jo'rayev "O'gay qiz haqidagi turkum ertaklarini o'zbek folklorida to'qqiz xil syujet tipi mavjud" [74]. ekanligini aytib o'tadi. Olim aytgan to'qqiz xildagi mazkur mavzudagi ertaklar orasida jahon xalq ertaklari syujetidan sayyor turlari mavjud bo'lishi mumkin.

Eng muhimi, bu mavzuga doir ertaklarni o'qishning o'zi ularning o'ziga xos va farqli jihatlarini anglashga yordam beradi.

O'z yuritining hayot tarzi va urf-odatlarining ustun va betakror jihatlarini anglab oladi. Folklorshunos olim G'ayrat Jalolov o'zbek xalq ertaklarining boshqa millat va elatlariga tarqalishining ahamiyatini quyidagicha izohlaydi: "O'zbek xalq ertaklari syujetining xalqimiz hayoti, dunyoqarashi, urf-odati, milliy xususiyati va yashash sharoiti bilan chambarchas bog'liqligi uning o'ziga xos xususiyatlaridandir. Shuning uchun ham bu ertaklarning syujeti xalqaro ertak syujetiga monand bo'lishi, ko'chib yuruvchi syujyet deb nomlanishidan qa'tiy nazar, ular o'zbek xalqining uzoq asrli juda qadimiy madaniyati bilan bog'liq holda vujudga kelgan" [84].

Ko'rinadiki, xalq og'zaki ijodi-bu umumxalk ijodi. Shu sababli xalqimiz tabiati, uning ruhiyatini, betakror urf-odatlarini teran ifoda etuvchi xususiyatlarni aynan boshqa adabiy manbalarda uchratishi va topishi qiyin. Shunday ekan, o'zligimizni dunyo madaniyati va sivilizasiyasi tarixi, bugunidagi munosib o'rnimizni ko'rsatish folklorni o'rganish, targ'ib etish bilan chambarchas bog'liqdir.

Ayniqsa, o'smir qizlarni tarbiyalashda foydalanish, uning mohiyatini tushuntirish, jahon folklorshunoslik yetakchi maktablaridan farqi, uning o'ziga xos betakror tarixini anglatish katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Shuningdek, bu milliy, tarixiy xazina yoshlarimizga o'zligini anglash, teran mulohazalar yuritish, el-yurt yaqinlarining qadriga yetish, ulug'vor maqsadlarga yetish tuyg'usini tarbiyalaydi.

2.3-§. O'smir qizlarni sharqona ma'naviy-axloqiy qarashlarini shakllantirishda Sharq va G'arb pedagogikasining qiyosiy tahlili

Yoshlarning ahloqiy rivojlanishi, ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga O'zbekistonda katta e'tibor qaratilgan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan taklif etilgan mamlakatimizni rivojlantirish va uning mustaqilligini mustahkamlashning strategik vazifalarida ma'nan yetuk, barkamol avlodni va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash hamda ijtimoiy vazifalarni hal etishda jamiyatga yordam ko'rsata oladigan ko'ngilli, milliy g'urur hissi ustun bo'lgan yoshlarni tarbiyalash muhim vazifalardan biri sifatida belgilab berilgan. Bu vazifalarni amalga oshirishda "biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz" [12] va o'sib kelayotgan yosh avlodni Sharqona tarbiya asosiga qurilgan umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jamiyat oldiga ulkan ma'suliyat yuklamoqda. Mazkur belgilangan vazifalarni hal etishda esa, albatta, maktab ta'limining o'rni beqiyosdir. Davlatimiz rahbari bu borada maktab o'qituvchilarining oldiga o'smir-qizlarda milliy xususiyatlardan bo'lmish kitobxonlik madaniyatini shakllantirish masalasiga urg'u bermoqdalar.

Kitobxonlik haqida faylasuf va tarixchining inson ruhiyatini shakllantirishdagi o'rni haqida so'z borar ekan, yozuvchi Frensis Bekonning quyidagi so'zlari yodga tushadi. U "Kitoblar vaqt to'lqinlarida kezib, o'zining qimmatbaho yukini avloddan - avlodga tashib o'tayotgan tafakkur kemalaridir", - deydi.

Haqiqatdan ham, kitoblar yaratilgan ilk davrlardan boshlab, to hozirgi kunga qadar, inson tafakkur dunyosini boyitish uchun beminnat xizmat qilib kelmoqda.

XXI asrga kelib, jahon xalqlarining hayotida katta o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.", "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz",

“Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir” nomli nutq va ma’ruzalar to‘plamidan iborat bo‘lgan kitoblarda yangi sharoitda islohotlarni izchillik bilan amalga oshirishning tarixiy zaruriyat ekanligi, uni amalga oshirishning yangicha shakl, usul va vositalari ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan. Mustaqillik uchun ochiq yoki pinhona davom etgan kurashlardan so‘ng o‘zining haqiqiy mustaqilligiga erishgan o‘zbek xalqi ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy davlatni qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish orqali ozod va obod Vatanda erkin va farovon hayot kechirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Bu maqsadga erishish uchun odamlarning yangicha dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish, ya’ni ularni “tafakkur qilishi”dan ozod qilish masalasi eng dolzarb mavzulardan biriga aylandi.

Eng muhimi, taraqqiyotning umumiy ko‘lamida o‘zbek halqining o‘rmini ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz o‘qigan kitoblarning umumiy soni, miqdori bilan belgilanib kelingan. Shuning uchun bu bebaho xazina bizni minglab asr avval dunyodan o‘tgan odamlar bilan uchrashtiradi.

Bu avlodlarimiz kitoblarni oddiy sham yorug‘ida o‘qiganlarini bugungi yoshlar tasavvur ham qila olmaydi. Chunki, avlodlarimiz kitobga ustoz, bilim va ma’naviyat, qadriyat yuksalishga erishishning eng asosiy manbasi, xazinasi deb qaraganlar. Bu kitobga berilgan baho zamirida juda katta ma’no, tafakkur ziyosi mavjudligini isbotlab turibdi. Eng muhimi, hayotni o‘rgatuvchi murabbiy hisoblanadi. Ma’naviy barkamol inson bo‘lib yetishishning asosiy mezonini sanalgan axloqiy tarbiya kitob mutolaasi vositasida ham uzluksiz bo‘lmog‘i lozim. Chunki, har qanday millat, elatlarda birinchi navbatda mehr-oqibat, saxovat va muruvvat, do‘stlik va sadoqat, qanoat kabi insoniy xislatlar asosiy masala, mezon sanaladi.

Ma’naviy jasorat sohibi deb ardoqlangan atoqli adabiyotshunos olim va tarjimon Ozod Sharafiddinov dunyodagi yetti mo‘jizaga ta’rif berib: “... Yetti mo‘jiza inson aqlining, tafakkurining, qalbining otashin madhiyasi, inson dahosining ulug‘ligiga qo‘yilgan mangu obida bo‘lib kelmoqda. Biroq shunday

bo'lsa-da, olamda yana bir mo'jiza borki, uning buyukligi, muqaddasligi yetti mo'jizaning jamiki ulug'vorligi, go'zalligidan kamlik qilmaydi, bu mo'jiza – kitob. Kitobning mo'jiza, mo'jiza bo'lganda ham birinchi mo'jiza ekanligini ko'pgina buyuk olimlar qayd qilgan", - deb yozadi. Jumladan, yozuvchi va dramaturg S.Sveyg: "Qayerdagi kitob bor ekan, u yerda odam o'zi bilan o'zi uzlatda, o'z ko'lami doirasida qolib ketmaydi, u o'tmish va bugungi kunning barcha olamshumul yutuqlariga, butun insoniyatning fikr va tuyg'ulariga oshno bo'ladi", - deb yozadi.

Yozuvchi va faylasuf J.Svift: "Kitoblar aql farzandlaridir", - desa, pedagog va yozuvchi Ya.Komenskiy: "Kitoblar donishmandlikni yoyish qurolidir", – deydi. Shu tariqa buyuk allomalar, donishmandlar va yozuvchi-yu, olimlar kitobning mo'jizaga, nurga, tafakkur quvvati va ustuniga, mangulik va ma'naviyat timsoliga, bilim manbaiga, sodiq do'stga, davr ko'zgusiga o'xshatganlar, eng muhimi, kitob jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashda yengilmas kuchdir. Talaba – qizlar, yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish ko'pgina zararli illatlarning oldini olishga sabab bo'ladi. I.S.Zbarskiy shaxsda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning uch muhim komponenti bor ekanligini ta'kidlab o'tgan.

1) kognitiv komponent – talaba-qizlarda ma'naviy ongi, badiiy erudisiya, dunyoqarashining shakllanishi bilan tavsiflanadi;

2) emotsional komponent– talaba-qizlarda estetik hislar, emosional qadriyatlar tizimi, oliy hislarning shakllanishi bilan belgilanadi;

3) xulq-atvor komponenti – talaba-qizlarning ijtimoiy xulq me'yorlariga rioya etish ko'nikmasi, axloqiy dunyoqarashi tarbiyalanadi.

Olim I.S.Zbarskiydan shaxsda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish komponentlari.

2.3.1-jadval

Shaxsda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish komponentlari

1.	Kognitiv	O'smir qizlar ma'naviy ongi, badiiy eruditsiya,
----	----------	---

	komponent	dunyoqarashining shakllanishi bilan tavsiflanadi;
2.	Emotsional komponent	O'smir qizlarda estetik hislar, emosional qadriyatlar tizimi, oliy hislarning shakllanishi bilan belgilanadi;
3.	Xulq-atvor komponenti	O'smir qizlarning ijtimoiy xulq me'yorlariga rioya etish ko'nikmasi, axloqiy dunyoqarashi tarbiyalanadi.

Ko'hna toshbitiklardan boshlangan kitob va kitobnavislik insoniyat tamaddunining eng buyuk, oliy kashfiyoti va mo'jizasi sifatida bani bashar tarixida dunyo turguncha quyoshday porlab, charaqlab turmog'i muqarrar. Eng qadimgi turkiy toshbitiklardan tortib O'rxun – Enasoy yozuvlarigacha, Zarautsoy g'oridagi suratlar-u Afrosiyob naqshlari, qadim Baqtiriyaning qo'xna Kushon xatlaridan toki Oltoy tog'laridagi toshlarga bitilgan harflarga qadar butun bashariyat avlodiga xalqimiz tamaddunining, nasl-nasabimiz-u ma'rifatimiz tomirlarining naqadar qadimiyligi bilan buyukligidan darak bermaydimi?!

Eng qadim va donishmand noshir sifatida xalqimiz “Avesto” singari ulkan nashrni insoniyat tamadduni va tarixining kitob javonida hanuzga qadar saqlab kelmoqda.

“Temur tuzuklari” timsolida bizning ajdodlarimiz davlatchilik va sarkardalik, lashkar tutish va harbiy zarb yuritishning qomusiy tamoyillari va yo'riqlarini tuzganlarida, bugun dunyoga dag'dag'a solayotgan ayrim mamlakatlarning Yer yuzida nom-nishoni ham yo'q edi. Holbuki, ayni shu davlatlarning armiyasida Amir Temur bobomiz tuzuklaridagi lashkar tuzish, jang yuritish san'ati va uslublari harbiy taktika darslari sifatida hozirga qadar o'qitilib, o'rgatilib kelinmoqda.

Bobolarimiz butun ro'yi olamni-Yerni ham, samoni ham-bilim bilan, tafakkur va kitob bilan zabt etgan. Seryulduz osmon Mirzo Ulugbek bobomizning duraxshon kutubxonasiga o'xshaydi. Termiziylardan Buxoriylargacha, Ibn Sinolar-u Beruniylar, Ulugbeklar-u Farg'oniy bilan Xorazmiy bobolargacha jahonni aql-u zakovat, ilm-u hikmat bilan egallagan buyuk jahongirlar bo'lgan.

Buyuk adabiyot namoyandalari kitobga tafakkurning tolmas qanoti, deb ta'rif berganlarida, uning inson va ma'naviy olamini boyitishni nazarda tutganlar. Kitob vatanga muhabbat, yurtga sadoqat, odamlarga mehr – oqibat tuyg'ularini kamol toptirishning eng yaxshi vositasi sifatida qadrlanadi.

Ilm – fan, jamiyatning yutuqlari, taraqqiyoti kitob bilan yuzaga keladi. Kitob yoshlikda eng yaxshi murabbiy, qariganda esa undan yaxshiroq do'st yo'qligi xususidagi fikr va g'oyalarni juda ko'p eshitamiz. Kitobning inson hayoti, kishilik jamiyati ma'naviy taraqqiyotidagi beqiyos o'rni qadimdan ma'lum. U dunyoni tanish, bilim berish bilan birga go'zallikka muhabbat uyg'otish, undan zavqlanish, yovuzlikdan nafratlanish tuyg'usini rivojlantiradi. Kitob talaba-qizlarda dunyoni anglab olishga ko'mak berish bilan bir qatorda uning ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi, ijobiy xarakterni tarkib toptiradi, hayot va turmush ziddiyatlarini qanday qilib yechish yo'llarini o'rgatadi. Bu xislatlarni egallab olgan har bir talaba-qizlar yuksak ma'naviyatli shaxs bo'lib kamolga yetadi. Zero, kitob avlodlar zanjirini mustahkamlovchi ma'naviy merosdir. U inson ruhiga ta'sir etib, ularni ma'naviy-axloqiy kamolotga yetaklaydi, hissiyotiga ta'sir etadi va bilim berish bilan birga talaba-qizlarga zavq bag'ishlaydi hamda aqlni charxlab, uni tarbiyalaydi, adabiyotshunos Safo Matjonov ta'kidlaganidek, "Ilmiy asarlar g'aflat va jaholatdan qutqarsa, badiiy asarlar dag'allik va razolatdan xalos etadi. Unisi ham, bunisi ham kishilarning ma'rifatli, baxt-saodatli bo'lishi uchun bab-baravar foydali va zarurdir". Darhaqiqat, kitob o'zida rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi ulkan imkoniyatni saqlaydi, talaba-qizlarni insoniyatning ma'naviyat tajribasiga oshno etadi, uning aqlini rivojlantirib, his-tuyg'ularini yuksaltiradi. U yoki bu asar talaba-qizlar tomonidan qanchalik chuqur va to'liq qabul qilinsa, bu asar uning shaxsiga shunchalik katta ta'sir ko'rsatadiki, talaba-qizlar o'z oldiga buyuk maqsadlar qo'yib, yomon illatlardan o'zini saqlaydi. Shuning uchun ham ta'limning yetakchi vazifalaridan biri talaba-qizlarda kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni shakllantirish, ularni voqea va hodisalarni tahlil etishga o'rgatishdir.

Buning uchun, avvalom bor, har bir o'qituvchi u qaysi fandan dars berishidan qat'iy nazar, talaba-qizlarni kitob o'qishga qiziqtirish yo'llari, shart-sharoitlarini bilishi zarur [104].

Mamalakatimizning asrlar davomida shakllangan bayramlari, tantanasi sharoitlari bilan bog'liq urf-odatlar ham o'ziga xos xususiyatga egadir.

Ayniqsa, musulmon davlatlarida o'tkaziladigan motam marosimlari islom dini aqidalariga tayanilgan holda o'tkazilishida ham o'ziga xos odob-axloq qoidalari mavjuddir. Eng muhimi avlod-ajdodlarimiz o'sib kelayotgan yosh avlod qalbida o'tmish merosimizga sadoqat, ezgu tuyg'ularga muhabbat ruhida tarbiyalashga alohida e'ribor berilgan. Shuning barobarida halqimizning ommaviy hasharlarda, bayramlarda, to'y va azalar bilan bog'liq turli oilaviy marosimlarda yoshlarning ishtirokiga alohida diqqat qaratilgan. Ularnig faol ishtiroki kattalar oldida ko'rikdan o'tish vazifalarini ham bajargan.

Eng muhimi, bu tilga olingan milliy qadriyatlar har bir yigit va qiz qalbida o'z xalqi madaniyatining dunyo madaniyatida tutgan o'rnini anglashga, qadrlashga, milliy g'ururni o'stirishga xizmat qiladi.

Sharqda oila tushunchasi bilan bog'liq o'ziga xos qonuniyatlar mavjud. Birinchidan, o'zbek oilalari o'zining serfarzandligi bilan G'arb mamlakatlaridan tubdan farq qiladi. Sharqda avlodlar shajarasining davomiyligini ham bir necha avlod o'zaro birlashtirishini ham, katta oilani barpo etish orqali erishish mumkinligi haqidagi aqidaga amal qilganlar. Ya'ni, o'zbek oilalariga xos xususiyatlardan biri, bir necha oilaning bir xonadonda yashashidir. Aksariyat oilalar bobo va buvi, ota-ona, o'g'il, kelin, kuyovlar, chevaralardan iborat bo'ladi. Bunday xonadonlarda bobo va buvilar, ota-ona va boshqa oila vakillarining umumiy ta'lim-tarbiya usullari mavjud bo'lib har kim o'z imkoniyatidan kelib chiqib, turli yoshdagi bolalarni tarbiyalaydilar. Ularni nazorat qiladiganlarning soni ko'pligi sababli e'tiborsiz qolmaydilar. Katta oilada tarbiya ko'rgan o'g'il-qizlar eng avvalo ko'pchilik bilan muomala qilish madaniyatini o'rganadilar, o'zlari

mas'ul bo'lgan vazifalarni o'z o'rnida bajarishga harakat qiladilar, oilaviy me'yorga rioya qilish ko'nikmasi shakllantiriladi.

Eng muhimi, o'zidan kattalarni hurmat qilishni, qarindosh urug'lar bilan o'zaro munosabatlarda yaqin bo'lishni o'rganadilar. Salbiy xislatlar: yolg'on gapirish, chaqimchilik, o'g'rilik va boshqa tarbiya uchun zid bo'lgan harakatlar katta oila a'zolari oldida ishonchsizlik keltirishini, o'zaro totuvlikka ziyon keltirishini anglab yetadilar. Ayniqsa, o'smir qizlar tarbiyasi bilan bog'liq o'g'it-nasihatlar ko'pchilik tomonidan berilishi bevosita axloq ilmi bilan bog'liq bo'lib kelajakda turmush, uy-ro'zg'or, oilani boshqarish, biror hunarni o'rganish, kiyinish qoidalariga amal qilish va boshqa masalalar bilan bog'liqdir. Chunki, bu o'g'it-nasihatlar ularning katta xonadonda ko'rgan-bilganlari ertaga turmushda o'ziga to'g'ri yo'l tanlay bilishda katta yordam berishi mumkin.

Eng muhimi, jamoaviy oila tarbiyasini amalga oshirishda kattalar pand-nasihatlarining asosi bo'lgan kitobxonlik xususida ham so'z yuritiladi. Keyingi yillarda o'smir qizlar tarbiyasida ularning axloqi, odobi masalasida ommaviy axborot vositalari gazeta, jurnallar sahifalarida yuzaga kelgan muammolar va ularning yechimlariga doir suxbatlar, badiiy-ma'rifiy chiqishlar namoyish etilmoqda. Ayniqsa, milliy an'ana va urf-odatlar, qadriyatlarni targ'ib qilishga, shuning barobarida, ommaviy axborot vositalari sahifalarida, televideniya ko'rsatuvlarida ma'lumotlarning, bevosita telespektakllar va dramaturgiyaning turli ko'rinishlari vositasi orqali tashkil etadi. Oila davrasida kattalar mazkur namoyishlar xususida mulohazalar bildirar ekan, axloqiy - ma'naviy ahamiyatga alohida urg'u bergan holda badiiy asarlarda ilgari surilgan g'oyasi asosiy mohiyati muammolari xususida, dramaturglarning teatr saxnalarida namoyish qilingan ko'rinishi aktyorlarning mahoratlariga fikr bildirishlari odatiy holatdagi an'anadir.

Sharq xalqlarida odatiy, ammo, muhim bo'lgan salomlashish odobi ham g'arb mamalakatlaridagiga nisbatan keskin faqr qiladi. Dono xalqimiz "Bola boshidan, uning tarbiyasi beshikdan boshlanadi",- degan aqidaga amal qilib

keladilar. Shuning uchun ham xalqimiz bolalarni go‘dakligidanoq salom berishga o‘rgatadi. Insonga, do‘stga, keksalarga, ustoz-murabbiylarga, mehmonga beriladigan salom xalqimizning eng muhim xislatlari-hurmat-ehtiromini bildiradigan, mehr-oqibat ko‘prigi bo‘lib, odob-axloq qoidalari voyaga yetmagan qizlarga alohida uqtiriladi.

Sharq bilan G‘arbni o‘zaro taqqoslaganda turkiy xalqlar orasida o‘ziga xos mavqe’ga ega bo‘lgan o‘zbek xalqining ma’naviyati, boshqa millat va elatlarnikidan farq qiladi. Ayniqsa, urf-odatlar, an’analar kundalik hayotiy vaziyatda muomalasi, hatti - harakati bola uchun ibrat sanaladi. Barcha Sharq mamlakatlariga xos ota-onaning oilada tutgan o‘rni katta ahamiyatga egadir.

Salomlashish odobini ham o‘ziga xos sharqona tarixi bor: Salom berib alik olishda qo‘llaniladigan birikma arabcha ibora bo‘lib, u ikki shaklda aytiladi va ikki shaklda yoziladi. Agar birlik shaklida (bir kishiga) berilsa, Assalomu alayka-senga salomatlik tilayman deyiladi. Bunga javoban “Vaalayka-salom”, “Senga ham salomatlik tilayman”. Salom ko‘plik shaklida aytilsa, “Assalomu alaykum” - “Sizlarga salomatlik tilayman” va bunga javoban “Vaalaykum assalom”, - “Sizlarga ham salomatlik tilayman”, [35] -deyiladi.

Demak, bolalar tarbiyasida bevosita yurtimizda mahalla bo‘lib yashash, madaniy–ma’rifiy jabhalarda birdamlik, hamjihatlik mezonlariga amal qilish tuyg‘usi asosiy omillardan biri xisoblanadi. Yoshlar tarbiyasi mavzusi mahalla, ota-ona, qo‘ni-qo‘shni oldiga javobgarlik ruhini kuchaytiradi va har bir tadbir to‘y, bayram, turli yig‘inlarda milliylik ruhini hosil qiladi. Aslida, har bir xalqning ajdodlari va avlodlari o‘rtasida voriysiylik degan tushuncha bor. Lekin uni talqin qilish va qadriga yetish borasida G‘arb mamalakatlarida tafovut mavjud. Ushbu sohada o‘zbek milliy urf-odatlari, qadriyatlar andozasi, o‘ylaymizki, ko‘z-ko‘z qilishga, faxrlanishga arzigulik yo‘lni bosib o‘tgan. Bu yo‘l xilma-xil bo‘lib, eng muhimi yoshlar tarbiyasi bilan bog‘liq ma’naviyatni targ‘ib qilishda

kitobxonlikning o'rnini, ahvoliyatini ajdodlarimiz anglab yetganlar. Bu ma'rifat turi avlodlarimizdan qolgan vorisiy qadriyatdir.

“Vorislilik—maqsadlar, manfaatlar mushtarakligi, tarix tajribasi, ota—bobolarimiz bosib o'tgan murakkab va ma'suliyatli yo'lining izchil davomiyligidir. Uning sabablari hozirgi kun va kelajak uchun ahamiyatli bo'lgani sababli ham qadrlanadi” [29].

O'smir qizlar ruhiyatidagi ziddiyatlar haqida ma'lumki inson har kuni, har soat atrofdagilar bilan muloqatda bo'ladi. Ana shu muloqot yaxshi yoki yomonligi uning lutfida, so'zida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham sharqona tarbiyaga asos bo'ladigan masalani mutaffakirlarimizning qaysi birini ta'limiy-axloqiy asarlarini varaqlamaylik, milliy qadriyatlarning asosi sifatida muomala odobiga alohida diqqat qiladilar. Shuning barobarida bu insoniy fazilat ma'naviy barkamollik belgisi sifatida talqin qilingan.

“Zotan har bir so'z bilan do'st dushmanga, dushman do'stga aylanib qolishi mumkin. Tilni-millatimiz ruhiyatining oynasi desak bo'ladi. Haqiqatdan ham o'z ona tilida mazmunli, ravon, go'zal so'z yuritgan inson, uni tinglaganlarning ongi va shuuriga katta tasir ko'rsatadi. So'zlovchining bilish saviyasi, ruhiyati, ma'naviyati bo'ladi” [89]. Yuqoridagi fikrlarni mulohaza qilib turar ekanmiz, katta hayot ostonasida, yo'lida turgan o'smir qizlarning muomala madaniyatini qanday shakllantirish mumkin degan savol ko'ndalang bo'lib turadi. Agar oilaviy statistik ma'lumotlarga e'tibor berilsa, oilaviy ajrimlarga asosan yosh kelinlarning o'ta so'zamolligi, kattalar bilan muomala qilabilmasliklari “bilimdon” lik qilib, gap qaytarishlari sabab bo'layotganligi ko'zga tashlanadi. Albatta, so'zamollik ham mantiqiy mulohazali bo'lsa, fazilatlardan biri bo'lib, ba'zan muammolarni hal qilish zarurati uchun xizmat qilishi mumkin. Ammo, qayerda, kim bilan muloqot qilayotganini inobatga olib, so'z, gap tanlash me'yorini saqlay bilsa tarbiya odobini ko'rsata oladi. Bu masalani ayniqsa o'smir yoshdagi yigit-qizlarga tushuntirish, o'qituvchi, ota—ona, yoshi ulug' bobo-buvilar, mahalla va ular muloqot qilishi mumkin bo'lgan jamoatchilik tomonidan o'qitib borilishi muhim

ahamiyatga egadir. Chunki, og‘zaki nutq ham har bir shaxsning o‘zligini namoyish etuvchi vosita sanaladi.

Nutq madaniyati haqidagi umumiy targ‘ibotni kitob mutolaasiga bog‘lagan holda amalga oshirish yoshlar psixologiyasiga ijobiy ta’sir qiladi. Pedagogik va psixologik yondashuv bir-biri bilan uzviy bog‘liq. So‘nggi yillarda yoshlar, ayniqsa, o‘smir qizlar ruhiyatiga keskin ta’sir etayotgan, ommaviy axborot vositalarida globallashuv jarayoni sababli internet tarmoqlarida salbiy, milliy urf-odatlarimizga zid bo‘lgan holatlar, namoyishlar keskin o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Bu hol tabiiyki kitob mutolaasidan uzoqlashtirmoqda. Bu hol davr muammosi sifatida kun tartibiga chiqmoqda, muammoning yechimini izlash bu jarayonni keltirib chiqarayotgan sabablari aniqlangach muhim muammo ekanligi ko‘pchilikning diqqat e’tiborini tortmoqda. Bunday jiddiy o‘ylab qaralsa, bir tomondan zamonaviy axborot vositalari, televedeniya, internet tarmoqlari qaysidir ma’noda kitob mutolaasiga targ‘ib qilish mumkin bo‘lgan imkoniyatlardan biridir. Ammo bu imkoniyat va maqsadni to‘g‘ri belgilash muammosini hal qilinishi, muhim qadriyat bo‘lgan sharqona, axloqiy, ma’naviy tarbiyani singdirish orqali ulardan to‘g‘ri foydalanish masalasining asosiy tomonidir. Masalan, inson qaysi millatga mansub bo‘lishidan qat’iy nazar uning uchun eng aziz inson ona hisoblanadi. Ammo onaga farzandning burchi turlichadir. G‘arbda onalar farzandlarini balog‘atga yetgach, onasi oldidagi burchi, vazifasi onasi berganchalik darajada qaytmaydi. Bu hol ular uchun odatiy hol bo‘lib farzandlarning shaxsiy mustaqilligi ustun turadi. Ular alohida yashashganlari bois xabar olib turishlari, moddiy yordam berishlari, yordamga muhtoj bo‘lganlarida qarovchi-enaga yollashlari yoki qariyalar uylariga joylashtirishlari mumkin. Aytaylik, yuqorida G‘arb yoshlarining onalariga bildirilgan munosabat bayon etilgan hujjatli yoki badiiy filmni ko‘rgan balog‘at yoshidagi bizning qizlarimiz oila davrasida, bobosi, buvisi huzurida qanday xayollarga borar ekan? Aynan shu lahzada kattalar o‘zga yurt farzandlarining onalarga bo‘lgan munosabatlariga qarshi o‘laroq, sharqda, qolaversa yurtimizda onalar qanday qadrlanishiga oid qiyosiy misollar keltirsa

hayotiy voqealarni soʻzlab bersa, ommaviy axborot vositalarida namoyish etishga imkon tugʻiladi.

Axir, bizlarning milliy urf-odatlarimizda, qadriyatlarimizda ona siymosi oʻz farzandlari siymosi nazdida, nazarida juda yuksak qadrlanadi. Ular maʼrif tavsiflari tilga olinmagan birorta asar yoʻqdir. Aslida, dunyodagi hamma onalarning farzandiga boʻlgan muhabbati bir-biriga juda oʻxshaydi. Ona haqidagi, oʻziga hos qasidalar yaratilgan. Bizning milliy urf-odatlarimizda, ota-ona nima desa farzandlar diqqat bilan quloq soladi. Ular oʻtirgan joylaridan tursalar, u ham irgʻib turadi, chaqirsalar “labbay” deb javob beradi, ayniqsa oʻsmir qizlar uyining osoyishtaligi, uyiga kelgan mehmonlarga koʻrpacha soladilar, izzat - ikrom koʻrsatib muomala qiladilar. Oilada oʻsmir qizlarga, uy-hovli joylarni ozoda tutishi qoidasini oʻrgatib borish azaliy odatimizdir. Chunki, kutilmagan yoki chaqirilmaganda kirib keladigan mehmonlar ham boʻladi. Supurilmagan, ozoda boʻlamagan xonadonni koʻrgan mehmon oila aʼzolari, ayniqsa qizlari boʻlgan oilalar uyatli qarash bilan baho beradi va bu haqida turli mish-mishlar mahalla kuyga tez tarqaladi. Bizning sharq qizlarimiz oʻzining goʻzalligi bilan boshqa xalqlardan ajralib turadi. Agar oʻsha tashqi goʻzalligi bilan ichki goʻzalligi hamohang, yoqimli boʻlsa xulqli, muloyim muomalali, kamtar iffat va odobi bilan yanada chiroy ochadi. Oʻsmir yoshdagi qizlarning goʻzal maʼnaviy axloqi, uning madaniyatini namoyon etuvchi xazina kitob deb nomlangan moʻjizada jamlangan. Shuningdek, sharqona insoniy fazilatlar, xalqimizning takrorlanmas boy tajribasiga tayanilsa sezilarli natijalar beriladi. Tashqaridan qaraganda, oʻsmir qizlarni kitobxonlikka jalb qilish oddiy bir jarayonday tuyiladi. Ammo ularning dunyoqarashiga mos asarlarni tavsiya etish, sharqona tarbiya masalalarini oʻzida aks ettirgan asarlarni tavsiya etish, ularning nuqtai nazariga taʼsir etadigan asarlarni tanlash bir muncha murakkab bir jarayondir.

Sharqona maʼnaviy-axloqiy masalalarni aksariyat hollarda tarixiy mavzudagi asarlar oʻz ichiga oladi. Shu oʻrinda, Abdulla Qodiriyning “Oʻtgan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlari, oʻzbek xalq dostonlari, H.Nozir,

Mirmuhsin, Sh.Holmirzayev, S.Ahmad, M.Osim, Tohir Malik, A.Qahhor, S.Zunnunova, X.Sultonovning hikoya va romanlarini o‘qish uchun tavsiya etish mumkin. Keyingi yillarda yoshlarimizning sharqona tarbiyasiga oid pandnoma ruhidagi publisistik janrdagi asarlari yaratilmoqda. Ayniqsa yozuvchi Tohir Malikning, shoira va mohir suxandon Tursunoy Sodiqova, Marhabo Karimovanning aynan o‘smir qizlar tarbiyasiga oid asarlari va televedeniyaga chiqishlari diqqatga sazovordir. Jumladan, Shoira Farida Afruz, Qutlibeka Rahimboyeva, Zamira Ro‘ziyeva va boshqalarning qator publisistik maqolalari ham aynan shu masalaga bag‘ishlangan. G‘arb yoshlarining kitobxonlik darajalari bevosita shiddat bilan ilgarilab borayotgan zamonaviy qulay onlayn tizimlari tarmoqlari vositasida amalga oshirilmoqda. Yoshlarni qiziqtirgan asarlar maxsus saytlarga joylashtirilmoqda. Yana bir muhim holat, transport, metro jamoat joylarida dunyo adabiyoti qahramonlari siymosi merosi ko‘rinishida, vositasida kitob mutolaasi kitob targ‘iboti olib borilmoqda. Fransiyada esa bizning xalqimiz tarixidagi an‘anaga o‘xshash ayrim xonadonlarda ko‘pchilik bo‘lib, bolalarga kitob o‘qib berish yoki kattalarning mutolaa maktabi, qissaxonlik, g‘azalxonlik kechalariga o‘xshash an‘ana mavjuddir. Ya‘ni, ko‘chalarda kitob o‘qib berish xizmatlari joriy etilgan ekan. Bugunga kelib bizning yurtimizda ham, asarlar matnini electron pochta vositasida kitobxonlarga yetkazish xizmati yoshlar orasida keng tarqalib bormoqda. Ayrim holatlarda yoshlar kitob mutolaasini kuy, qo‘shiqlar uyg‘unligida olib borish va tinglash ham urfga aylanayotgani atrofdagi kishilarni ajablantirmay qo‘ydi. Ammo, o‘ta zamonaviy kitob o‘qish yo‘llarining amalda qo‘llanishi bir tomondan ijobiy natijalar bersada, bizning yoshlarimiz, xususan qizlarimizning dunyoqarashlarini g‘arbona shakllanishiga olib kelayotgani ham sir emas. G‘arb madaniyatining yoshlarimiz hayotiga shiddat bilan kirib kelayotganida, bevosita G‘arb televideniyasi, internet tarmoqlari, turli hujjatli va badiiy filmlar va ommaviy axborot vositalarining o‘rni sezilarli darajada ko‘zga tashlanmoqda. Bu ommaviy madaniyat niqobi ostida olib borilayotgan targ‘ibot yoshlarimizning ongi-shuuriga salbiy ta’sir etib kelayotgani tashvishli holatni

vujudga keltirmoqda. Bu hol asosan jamoat joylarida, oilada, yoshlarning turli bahonalar bilan to'planadigan davralarda ko'zga tashlanmoqda. Ayniqsa, G'arb modasiga bo'lgan qiziqish, bo'yanish, o'zini tutabilmaslik, madaniyatsizlik hollari keltirib chiqarilmoqda. To'g'ri, yoshlarimiz glaballashuv va "ommaviy madniyat" keng targ'ib qilinayotgan davrda o'qimoqda, voyaga yetmoqdalar. Ayrim hollarda milliy urf-odat va tarbiyaga zid, me'yor va chegara harakatlariga qarama-qarshi harakatlar ni ham amalga oshirmoqdalar.

Har bir narsani o'z nomi bilan atagan ma'qul. Buning uchun oqni-oq, qorani-qora deyishga to'g'ri keladi. Aslida, G'arbda odam tusiga kirib qolgan salbiy axloqiy me'yorlar aslida bir ruhiy hastalikka ham o'xshab ketadi. Bu kasallikni sharq xalqlariga xos emasligini anglagan holda, yosh avlodga yuqtirmaslikni, unga qarshi ma'naviy kurash olib borish har bir ota-onaning burchi bo'lib farzandlariga uqtirib, o'rgatib borishlarini davr taqozo etmoqda. Har qanday millat o'zining qadriyatlariga, milliy urf-odatlariga egadir. G'arbda esa, individuallik qoidasiga amal qiladi ya'ni, har bir shaxsning o'zini ko'rsatishi uchun har xil o'ziga xos, bir-biriga o'xshamagan karomatlar ko'rsatishiga harakat qiladi. Jamoaviylikda esa bir harakat ko'pchilikning diqqat e'tiborida bo'ladi. Farzandlarimizning xato-kamchiliklari el nazariga tushar ekan "el-yurt nima deydi, bizni ko'pchilik oldida uyaltirib qo'yding" qabilidagi so'zlar ota-onalar tomonidan aytiladi. G'arbliklar esa, bunday an'analarga e'tibor bermaydi. Ularning nazarida voyaga yetgan farzand erkin, mustaqil fikr yuritishi, alohida yashash ruhida tushuchasida tarbiya oladilar. Ular ko'pchilik jamoaviylik fikriga ko'pam amal qilmaydi. Faqat qonunlarga va ularga amal qilishi lozimligini e'tiborga oladilar.

Ammo, ayrim bizning yoshlarimiz diniy, ma'naviy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizdan xabardor bo'lsalarda ayrim masalalarda G'arbda keng bo'lgan zamonaviy madaniyatga taqlid qilish holatlari uchraydi. Ma'lumki nikoh to'yi marosimlari o'smir qizlarimizni hamisha diqqat e'tiborini tortib keladi. Har bir to'yda bir-biriga o'xshamagan zamonaviy hatti-harakatlarga qiziqish bilan qaraydilar. Masalan, to'y oldidan yigit va qiz to'y marosimlarida valsga tushushlari

uchun tayyorgarlik ko'radilar. Rostini aytganda valsni targ'ib qilayotganlarning bundan ko'zlagan mo'may daromadi bor. Chunki, to'ydan oldin kelin bilan kuyov necha dollar ham berib, buni mahsus kishilar qo'lida avval obdan o'rganadilar-da. Vals, avvalo, ana o'shalarga kerak, - deydi kuyunchaklik bilan adabiyotshunos olim, Sultonmurod Olim, - "milliy ma'naviyatimiz sarf xarajat kimdan ketayotgani bilan necha pullik ishi bor ularning?" [125]. Olim g'arb madaniyatini targ'ib qiluvchilarni nazarda tutar ekan. O'smir qizlarning aynan ana shu o'tish davrida aqli, atrof hodisalarni tahlil qilishi qobiliyati shakllanib borishini ular uchun mavhum bo'lgan, ammo ularda qiziqish uyg'otadigan hodisalarga diqqat qilishni e'tirof etadi. Chunki o'sha davrda o'smir yoshlarga xos o'ta ta'sirchanlik tez o'z fikrini o'zgartiruvchi bekorchilik belgilari ko'zga tashlana boshlaydi. Bunday paytda ularga o'zgaruvchan fe'l-atvoriga mos munosabatda bo'lishga to'g'ri keladi. Aytaylik G'arbda odatiy hodisa sifatida qabul qilingan o'sha valsga tushish holatini olib ko'raylik. Odatda o'smir qizlarning fikrlash faoliyatida ko'pincha donolikka, murakkab masalalarni yechishga oid mustaqil fikrlar sezila boshlaydi. Shuning barobarida xayolparastlik, yangiliklarga moyillik holatlari to'y marosimlarida ishtiroki natijasida katta qiziqish uyg'otadi. Shu bois o'smir qizlarda ko'zga tashlanadigan o'ziga bino qo'yish tuyg'usi hamisha ustun keladi. Vals-bizning milliy urf-odatlarimizga to'g'ri kelmasligi haqidagi fikrlarni, pand-nasihatlarini qabul qilishmaydilar. Chunki, ular ko'zlari bilan ko'rgan tashqi holatni to'g'ri deb hisoblaydilar. Shu bois bo'lsa kerak G'arb madaniyatiga hos bo'lgan ayrim ko'rinishlarni yoshlarimiz to'g'ridan-to'g'ri qabul qilishga odatlanmoqdalar. Ulardagi ko'pincha izchil bo'lmagan mayl va qobiliyatni hisobga olmay kuchli talablarga, ularning xohishlariga zid bo'lgan topshiriqlarga qarshilik bildirish tuyg'usi kuchli bo'ladi. Ayniqsa, o'smir qizlarda paydo bo'lgan ilk bolalik muhabbati jarayonida G'arbgacha xos qarashlarga ega bo'lsa, keyin ziddiyatli kechinmalarni vujudga keltiradi. Ya'ni "erkin muhabbat" tufayli erta farzandli bo'lish, kiyinishida, o'zini tutishida salbiy harakatlar qilish, o'zini

boshqaraolmaslik kabi holatlarga olib keladi. Albatta, bunday salbiy holatlarning vujudga kelishida asosan, ota-onaning, qarindosh-urug'larning, mahalla – kuyning o'smir qizlarga e'tibor qilmasligi yoki oiladagi notinchlik, urush-janjal, yoki ota-onalarning ichkilikka ruju qo'yishi, yengiltak ota-onalarning munosabatlari asosiy sabab bo'ladi.

Bunday holatlarda voyaga yetmagan qizlar oiladagi salbiy voqea-hodisalardan qutilish yo'llarini qidiradilar va mustaqillikka erishishga o'rganadilar. Ota-ona roziligisiz o'z bilganicha ish qilishga, boshqa shaharlarga borishni orzu qiladilar. Mana shu o'rinda, o'smir qizlarning yana bir jihatiga ta'sir qiluvchi omillardan biri taqlidchilikdir. Ular ayrim o'qigan asarlaridagi ayrim qahramonlarga, yoki biror bir kinodagi qahramonlarga, internet vositalarida namoyish qilingan ta'sirli voqea -hodisalarga, pornografik suratlarga taqlid qilishga harakat qiladilar. Chunki, mazkur kino internet tarmoqlarida tarqalayotgan voqea hodisalar, lavhalar asosan G'arb ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. O'smir qizlar ruhiyatiga tasir qilishda ular bilan yaqin munosabatda bo'lgan, o'zlari tengi dugonalarning ham sezilarli o'rni bor. Ayniqsa, ular orasida erkin oila farzandlari bo'lsa, ulardan o'rnak olishga bo'lgan moyillik tezda o'z ta'sirini ko'rsatadi. Chunki ularning oilasidagi shart-sharoitlar, tarbiya usullari o'smir qizlarga ta'sir qilishi ham asosiy omillardan biridir.

Balog'at yoshidagi qizlarning dunyoqarashini boyitishga hamisha ona ma'suldir. Chunki, bolaga onaning fe'l-atvori o'tadi. Demak, qizingiz o'jar, qaysar bo'lib qoldi. Siz zo'r berib atrofdagilarni, dugonalarini ayblaysiz "Dugonalaridan o'rnak olib shunday bo'lib qoldi" deysiz. Aslidachi, qizingizdagi bu o'zgarish oilangizdan boshlangan. Uni urib, o'rinsiz tanbeh beraverib uning asabini izdan chiqargansizlar. Yana qizingizni aka-uka, opa-singillari yonida birini maqtab, uni kamsitgan bo'lgandirsiz. Bu esa uning nafratini uyg'otgan. Bugungi yoshlar avvalgiday emas deb keksalarimiz ba'zan zamondan noliydilar. Aksincha ular tarbiya berayotgan kattalar ko'ngildagiday emas. O'zimiz tarbiyalayotgan qizimiz

o‘zimizga gap qaytarishi, odobsizligi uning guvohida qilgan xatolarimizga qaytarilgan javobdir. Onaning muhabbati, beg‘araz, beg‘ubor ekanligini sezgan qizlar ularga taqlid qiladilar. Onalarning o‘z qizlari bilan chin dildan samimiy muloqot qilishi ahloq-odob tarbiyasining muhim jihatlaridan biridir.

Qiz bola ota-onaga haqdan hadya etilgan jannatning gulidir. Uni avaylab asrab, yaxshi tarbiya berib o‘z egasiga topshirish uchun mas’ul shaxslar hisoblanadi. Bir so‘z bilan aytganda o‘smir qizlarning kitobxonlik asosida sharqona ma’naviy-axloqiy dunyoqarshlarini shakllantirish bilan bog‘liq pedagogik muammolar mavjudligidan ko‘z yumib bo‘lmaydi. Binobarin, yuqorida tilga olingan muammolarni hal qilish ota-ona, mahalla, o‘qituvchilar va jamoatchilik oldiga muhim vazifalarni yuklaydi. O‘smir qizlarni sharqona ruhda tarbiyalash, eng avval ular shaxsiga insonparvarlik nazaridan yondashish muhim tarbiyaviy omil ekanligini unutmaslikni talab qiladi.

Bu borada, avlodlarimizning yaratgan betakror asarlari, ularda ilgari surilgan insoniy qarashlar qimmatini so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydi. Shuningdek kitoblar hazilakam kitoblar emasligini, ularda el-ulus bilan halqni millatga, mamlakatni esa haqiqiy Vatanga aylantira olgan ma’ruza va maqolalar borligini bugungi avlod bilmog‘i, yuragida, fikr-u yodi bilan jism-u jonida olib yurmog‘i kerak. Millatning buyuk bir farzandi, matonatli, buyuk shaxsning bedor yuragi urib turgan bu asarlar to o‘zbek xalqi mavjud ekan, toki O‘zbekiston deb atalmish ozod Vatan paydo bo‘lgan ekan, hech qachon eskirmaydi, hamisha mardlik va shijoat, g‘urur va iftixorning chinakam tarjimai holi va sadoqatnomasi bo‘lib yashayveradi.

Mamlakatimizda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish yo‘nalishida keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Zero, “Kitob bizni yerdan ko‘kka ko‘taradigan, barkamollik sari yetaklaydigan, qalbgga yorug‘lik baxsh etadigan, oq bilan qora, yaxshilik bilan yomonlikni farqlashga o‘rgatadigan insoniyatning eng noyob kashfiyotidir”, - deydi Davlatimiz rahbari.

Yuqoridagi mulohazalardan ko‘rinadiki, hozirgi davrda jamiyatimizning barqaror ma’naviy rivojlanishi va ijtimoiy hayotning jadallashishi, ta’lim oluvchilarning bilimlarini muntazam oshirib borish va chuqurlashtirish, ularning fan va texnikaning so‘nggi yutuqlarini jadal yengillashi, hayot va faoliyatning barcha jabxalarida muvaffaqiyatga erishishga imkon beradigan yuqori raqobatbardoshlikka ega, ma’naviyati yuksak bo‘lgan, kitobxonlik madaniyati shakllangan avlodni shakllantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish lozim.

Mulohazalardan kelib chiqib Monografiyaning ilmiy tadqiqot shaklidagi modelini quyidagicha izohlash mumkin O‘smir qizlarni ma’naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash, eng muhimi kitobxonlikka jalb etishda, mukammal harakat modeli muhim ahamiyatga egadir. Mukammal harakat modelini amalda qo‘llashda pedagogik muammo shundan iboratki, o‘smir qizlarning ma’naviy-axloqiy qarashlarini shakllantirishda eng avvalo ularning xayotiy tafakkuriga ta’sir etish, keyingi bosqichda esa, xayotiy mushohadani amalda qo‘llashning to‘g‘ri yo‘lini tanlashdan iboratdir. Eng avvalo, o‘smir qizlar sharqona ma’naviy-axloqiy tushunchalarini anglashda sharq allomalarining asarlariga tayanilgan holda kerakli ma’lumotlarni to‘plash va undagi pand-nasihatlar va o‘gitlarga amal qilishda mahalla, oila, maktab, qo‘ni-qo‘shni, qarindosh urug‘lar ishtirokida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ya’ni, o‘smir qizlarning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashlarini zaruriy manbalarga tayanilgan holda shakllantirilishi, ularning mustaqil muloqotga kirishishiga undash, jamoaga tortish, eng muhimi, ma’naviy-axloqiy dunyoqarashlaridagi ijobiy o‘zgarishlarni baholash kabi qobiliyatlarini shakllantirish harakat modelining asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

O‘smir qizlar ma’naviy-axloqiy qarashlarini sharqona ruxda shakllantirishda oila, mahalla, ta’lim muassasalari hamkorligi quyidagi modelga asoslangan holda amalga oshirilishi lozim.

2.3.2-jadval

O‘smir qizlarning ma’naviy – axloqiy dunyoqarashini kitobxonlik asosida shakllantirish modeli Oila, maxalla, ta’lim muassalari hamkorligi modeli

Asosiy bosqichlar			
Qizlarga ma’naviy-ahloqiy tushunchalar berish	Ajdodlarimizning sharqona tarbiya usullari tarixi haqida ma’lumot berish	Sharqona ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid asarlar bilan tanishtirish	Qizlarda milliy fazilatlarni tarkib toptirishda kitobxonlikning o‘rnini anglatish
Yetakchi tamoyillar			
O‘smir qizlarning ma’naviy-ahloqiy qarashlarini milliy ruhda tarbiyalashni maqsadga yo‘naltirish, kitobxonlik, sharqona tarbiya usullarida allomalarning qarashlarining ahamiyati			
Asosiy hamkorlik yo‘nalishlari			
O‘smir qizlarning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashlarini shakllantirish ko‘nikmasini hosil qilish, oilaviy yevropacha madaniyatning salbiy oqibatlaridan himoya qilish, sharqona milliy qadriyatlar vositasida ulardan qarashlar, udumlar orqali sharqona tarbiya mezonlarini tarkib toptirish			
Ustivor vazifalar			
O‘smir qizlarning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashlarini sharqona ruhda shakllantirishda “Oila, mahalla, ta’lim muassasasi hamkorligi” konsepsiyasini ishlab chiqish; oila, mahalla, ta’lim muassasasi hamkorligini shakllantirishning chora-tadbirlarini ishlab chiqish			
Kutiladigan natijalar			
O‘smir qizlarda ma’naviy-axloqiy fazilatlar majmuasi haqida bilimga egalik, sharqona ma’naviy-axloqiy fazilatlardan foydalanish, iymonlilik, zukkolik, milliy ahloq-odob tushunchasiga ega bo‘lish, sharqona ma’naviy-axloqiy tarbiyaning ijobiy jixatlarini targ‘ib qilish. Sharq allomalarining asarlarini didaktik manba sifatida o‘smir qizlar ongiga estetik ta’siri va ijobiy natijalarini anglatish, milliy qadriyatlarni va an’analarga hurmat bilan qarash ko‘nikmasini hosil qilish.			

II bob bo'yicha xulosa

Tadqiqotning ikkinchi bobida qalamga olingan masalalar yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi.

1.O'smir qizlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini kitobxonlik asosida shakllantirishning o'ziga xos mazmun mohiyati, turli ko'rinishdagi shakllari va turli-tuman ko'rinishdagi usullari va ular avlod va ajdodlarimiz tomonidan kashf qilingan, asrlar davomida qo'llanilib kelinganligi asoslab berildi.

Kitobxonlik madaniyati takomili, uning targ'ibotini tashkil etishdan maqsad balog'at yoshidagi o'smir-qizlarning o'zligini anglash, intellektual imkoniyatlariga ishonish va namoyon qilish sifatlarini tarbiyalashdan iborat. Eng muhimi o'z imkoniyatlariga ishonch tuyg'usini tarbiyalaydi va atrofdagi voqea hodislarni baholash, ayrim hollarda tanqidiy munosabatlar bildirish va o'ziga bo'lgan talabchanlik, qiziqish tuyg'ularini tarbiyalaydi. Bu xislatlar yoshlarni ma'naviy-axloqiy dunyoqarashlarini shakllantirishning asosiy mazmunini tashkil etadi.

2.Kitobxonlik bilan bog'liq bo'lgan ma'naviy va milliy qarashlar haqidagi fikr-mulohazalar bugungi kunda paydo bo'lgan ma'rifiy hodisa bo'lmay, balki, asrlar davomida Sharq allomalari va mutafakkirlari tomonidan e'tirof etib kelingan.

Yoshlarni kitobxonlikka jalb qilish, ularning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashlarini shakllantirish g'oyasidan kutilgan maqsad, ularning shaxsiy dunyoqarashlarini ifoda etish ko'nikmasini hosil qilish, mustaqil va sog'lom tafakkurli, o'z maslagida sobit turish kabi insoniy fazilatlarga ega bo'lish tuyg'usini tarbiyalashdan iboratdir. Sharq allomalari insonning shaxs sifatida o'z-o'zini anglash lozimligini uqtirar ekan, bu fazilat bugungi kun yoshlari uchun ham muhim ehtiyoj sifatida zarurligini anglatadi. Yuqorida e'tirof etilgan mulohazalar ishning mazmunini boyitishni inobatga olib umumiyashtirildi.

3.O'smir, balog'at yoshidagi qizlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashlarini shakllantirishda xalqimizning asrlar davomida amal qilib kelgan urf-odat va udumlarining o'rni beqiyosdir.

Xalqimizning dunyoqarashini, ma'naviy-estetik didini o'ziga xos tarzda badiiy talqin qilaoladigan, millatimizga xos urf-odatlarni ifoda etgan xalq og'zaki ijodi namunalari g'oyat nodir manba hisoblanadi, shuningdek, xalqimizning turmush tarzi, orzu-intilishlari, marosim va an'alarini mukammal aks ettirganligi uchun ham qadrlidir. Asrlar davomida xalqimizni yuksak-ma'naviy komillik ruhida tarbiyalashdek ezgu maqsadga xizmat qilgan bu betakror xazina, bugungi yoshlar, mavzumiz bo'lgan o'smir qizlar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashlarini shakllantirishda ham xalq og'zaki ijodi namunalarining o'rni va ahamiyati xususida chiqarilgan xulosalar o'z tasdig'ini topdi.

4.Komil inson tarbiyasi, ularning ma'naviy-axloqiy qarashlarini tarbiyalash masalasi Sharq xalqlarining milliy pedagogikasida o'ziga xos uslub va tamoyillar ko'rinishida mavjud bo'lib, G'arb pedagogikasiga xos bo'lgan jihatlardan keskin farq qiladi. Mana shu o'rinda ikki mintaqaning milliy pedagogik yo'nalishlarini qisman solishtirib taqqoslash orqali yoshlar tarbiyasiga oid o'zaro o'xshashlik va farqli xususiyatlari ko'zga tashlandi. Ularning eng muhim jihatlari umumlashtirgan holda ijobiy jihatlarga e'tibor qaratildi.

Shuningdek, geografik o'rniga ko'ra bir-biridan olisda joylashgan, tili, madaniyati va turmush tarzi va urf-odatlari turlicha bo'lgan G'arb pedagogikasida mavjud bo'lgan mushtarak umumtarbiyaviy xususiyatlariga ega bo'lgan jihatlarga ijodiy yondashib, tahlil qilib, muqobil usullaridan o'smir qizlar tarbiyasi uchun muhim bo'lgan jihatlarga e'tibor berish va amaliyotda foydalanish masalalari inobatga olindi.

5.O'smir-qizlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashlarini kitobxonlik asosida shakllantirishning o'ziga xos usullari, pedagogik tadqiqot ishining o'ziga xos mezoniga amal qilishni talab qiladi.

Shu o‘rinda yoshlarning kitobxonlikka bo‘lgan qiziqishlari natijasida fikrlash saviyasi ham, dunyoqarashining kengligi ham, hatti-harakati ham, bir tizimga tushadi, bu hol esa, hayotiy xulosalar chiqarish imkoniyatini yaratadi.

Ayrim hollarda hayotida muammoga uchragan o‘smir-qizlar o‘z imkoniyatidan, o‘z bilimi darajasidan va hayotiy tajribalariga tayanib uni hal qilish yo‘llarini qidiradi. Tabiiyki, o‘smir-qizlar balog‘at yoshiga yetgunga qadar tarbiyaning dastlabki bosqichidayoq o‘ziga xos pedagogik tasavvurga ega bo‘ladi.

Bu hol qisman bo‘lsada, vazifalarni aniq belgilab olish va ularni bajarishga qa‘tiy rioya qilish orqali yo‘lga qo‘yilsa va ko‘nikma hosil qilinsa, hayotida uchrovchi muammolarni oson hal qilish imkoniyati tug‘iladi. Ya‘ni ma‘naviy-axloqiy dunyoqarashlarining kitobxonlik asosida yo‘lga qo‘yish, bolalikning har bir bosqichida amalga oshirish lozimligi masalasi pedagogik muammo sifatida ko‘zga tashlandi.

6.Monografiyada balog‘at yoshidagi o‘smir-qizlarning ma‘naviy-axloqiy dunyoqarashlarini shakllantirishda kitobxonlik va Sharq allomalarining fikrlariga tayangan holda asoslari va tarkibi aniqlashtirildi. Shuningdek, yoshlarda ma‘naviy-axloqiy tarbiya tizimida va ularning faoliyatida yetakchi o‘ringa ega bo‘lgan insoniy fazilatlarning ijtimoiy-tarixiy, kundalik asoslarini kitobxonlik ko‘rinishlari misollari asosida izohlab berildi.

III BOB. O‘SMIR QIZLAR MA’NAVIY-AHLOQIY DUNYOQARASHINI KITOBXONLIK ASOSIDA SHAKLLANTIRISHNING SAMARADORLIGI

3.1-§. O‘smir qizlar ma’naviy–axloqiy dunyoqarashini shakllantirish yuzasidan o‘tkazilgan tajriba–sinov ishlari mazmuni

O‘smir qizlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga yuksak ishonch ruhida tarbiyalashda va sifatining xalqaro talablarga muvofiqligini oshirish, huquqiy asoslarini takomillashtirish yuzasidan, yuksak ma’naviyatli, ma’rifatli yoshlarni tarbiyalash, fan va ishlab chiqarish integrasiyasiga tayanish, fan bo‘yicha egallangan malakalar darajasini nazorat qilish va baholashda yoshlarni mustaqil mutolaa madaniyati hamda badiiy-estetik tafakkurini shakllantirish masalasi bugungi kun oldidagi dolzarb vazifalardan biridir. Shu bois, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartida belgilangan “mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalariga asoslangan, ma’naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalash” [6; 120-b.], balog‘at yoshidagi bolalarning intellektual salohiyati, axloqiy-ma’naviy kamolotida muhim o‘rin tutuvchi kitobxonlik madaniyatini shakllantirish bilan bog‘liq samarador usullarni qo‘llashni taqozo etadi.

Shunga ko‘ra, o‘smir qizlarning mustaqil mutolaa madaniyatini va axloqiy-ma’naviy dunyoqarashlari shakllantirish yuzasidan o‘tkazilgan tadqiqotlar mazmuni DTS va dastur talablari asosida belgilanib, amaliyotga tatbq etildi. Tadqiqotga oid tajriba –sinov ishlarining birinchi bosqichi (2019-2020 yillar)da mavzuga daxldor ma’rifiy, falsafiy, psixologik, pedagogik va uslubiy adabiyotlar o‘rganildi.

Ikkinchi bosqich (2019-2020 yillar)da muammo yuzasidan Samarqand tibbiyot kollejida, shuningdek, Jizzax shahridagi Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabida, 2021-2022 o‘quv yilida Prezident ta’lim muassasalari

agentligi tizimidagi Halima Xudoyverdiyeva nomidagi ijod maktablarida 2022-2023 o'quv yilida Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumida tajriba-sinov ishlari olib borildi.

Tajriba guruhida o'smir qizlar mustaqil mutolaa madaniyatini shakllantirishga doir innovasion loyihalar, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari, multimediya vositalarini tatbiq etish yuzasidan metodik tizimga asoslangan tadqiqot ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlarining baholovchi-yakunlovchi-asoslovchi bosqichida foydalanilgan so'rovnoma, suhbatlar qayta o'tkazilib, tajriba avvali va so'ngidagi natijalar qiyosiy tahlil etildi.

Uchinchi bosqich (2022-2023 yillar)da ilmiy-tadqiqot ishlari umumlashtirildi va Monografiya holatida rasmiylashtirildi.

Dastlabki tajriba-sinov ishlari jarayonidagi suhbatlar, kuzatishlar, so'rovnomalar natijalaridan so'ng o'smir qizlar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashlarini shakllantirishda, kitobxonlik sharq allomalarining ijodidan foydalanish vositasi orqali amalga oshirilmaganligi, masalaga yetarlicha e'tibor qaratilmaganligi ko'zga tashlandi. Shuningdek, yoshlarni kitobxonlikka jalb etish targ'iboti amalga oshirilmaganligi aniqlandi.

Tajribalar davomida sinfdan tashqarida ishlar o'smir-qizlar o'rtasida kitobxonlik masalasi targ'ib qilinmas ekan, ularning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashlarini shakllantirishning imkoniyati cheklanishi mumkinligi ko'zga tashlandi. Bu masalada, Sharq allomalarining ma'naviy-axloqiy qarashlari va ulardan amaliyotda foydalanish ehtiyoji zarurligi aniqlandi.

Tadqiqot avvalida quyidagi anketa savollari asosida o'smir qizlarning va kitobxonlik ma'naviy-axloqiy dunyoqarashlarini shakllantirish ko'nikma ma malaka darajalari aniqlandi:

1. O'smir qizlar uchun muhim bo'lgan ibo-hayo, iffat kabi tushunchalarni qanday ifodalaysiz?
2. Qaysi shoir va yozuvchilarning asarlarini yoqtirib o'qiysiz?
3. Sizga tanish bo'lgan ma'naviy-axloqiy mavzudagi xalq og'zaki ijodi namunalaridan misollar keltira olasizmi?
4. Siz mustaqil o'qigan qaysi asarlarda milliy urf-odatlarimiz tasvirlangan?

5. Siz o‘qigan jahon adabiyoti namunalari ifodalangan G‘arb madaniyatiga o‘z munosabatingizni bildiring?

6. O‘smir qizlarimiz, ma’naviy-axloqiy dunyoqarash tushunchasini qanday ifodalaydi?

7. Ota-onangiz, bobo-buvingizning pand-nasihatlariga amal qilasizmi?

8. Maktabda, mahallada o‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy, milliy bayramlarda ishtirok etasizmi? Tasavvurlaringizni ifodalang?

9. O‘z dunyoqarashingizni shakllantirishda qanday ommaviy-axborot vositalaridan foydalanasiz, nomlarini izohlang?

10. Ta’lim-tarbiya xususida fikr-mulohazalar bildirgan Sharq allomalaridan kimlarni bilasiz?

Javoblardan quyidagilar ma’lum bo‘ldi:

-o‘smir qizlar axloq odob, ibo-iffat kabi tushunchalar haqida o‘rtacha tasavvurga ega;

-xalq og‘zaki ijodi namunalarini kattalardan eshitgan, ayrimlari kitoblarda o‘qigan;

-o‘zlari sevib takror-takror o‘qiydigan asarlar ro‘yxati faqat “Shum bola”, “Sariq devni minib”, “O‘tkan kunlar”, “Choliqushi”, “Anna Karenina” asarlari nomlari bilangina chegaralanishi o‘smir qizlarning faqat darslikdagi asarlar mutolaasi (unda to‘liq mutolaa amalga oshmagan, asar va film syujeti aralashtirib yuborilgan) bilan cheklanishini ko‘rsatdi.

Ularning javoblarida mustaqil o‘qilgan, hayot haqida mushohada qilishga yo‘naltiruvchi asarlar kam tilga olingan.

-aksariyat o‘smir qizlar ommaviy axborot vositalari, telefon, internet tarmoqlaridan va milliy va xorijiy televideniye ko‘rsatuvlaridan foydalanishar ekan;

-ota-bobolari va buvilarining pand-nasihati, o‘gitlariga ayrim hollarda amal qilishgan;

-xalqimizning milliy bayramlarida ishtiroki o‘rtacha bo‘lib, yoshlar diskoteka, turli klublarda zamonaviy ruhdagi musiqa va raqslarga qiziqishlarini aytishgan;

-o'smir qizlar Sharq allomalarining ma'naviy-axloqiy qarashlariga oid ma'lumotlardan xabarsiz ekanligi ma'lum bo'ldi;

-o'smir qizlarning o'zbek qizlariga xos axloq, odob, hayo, ibo haqidagi qarashlari ham cheklangan holda bayon qilingan;

-o'smir qizlar Sharq allomalari, ularning asarlari haqida juda kam ma'lumotga ega. Ayrim yoshlar ularning nomlarini sanashdan nariga o'tmadi.


Tadqiqot davomida o'smir qizlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashlarini shakllantirish yuzasidan belgilangan maqsad va vazifalar asosida quyidagi natijalarga erishildi:

O'smir qizlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va unga rahbarlik qilishiga doir mexanizm asosida mutolaa madaniyatini shakllantirish texnologiyasi ishlab chiqildi. Unda quyidagilar belgilandi:

Sinflar monitoringidan maktab o'quvchilarining kitobxonlik darajasi kelib chiqdi. Bunda o'quv yili davomida mutolaa qilingan va qilinmagan asarlar, ijodiy ishlarning bajarilish holati monitoring tajriba – sinovlarini o'tkazish jarayonida ijod maktablarda tahsil olayotgan o'smir qizlarning mustaqil o'qigan kitoblari asosida, ularning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashlarini aniqlash maqsadida yozma ish turlaridan insho, bayon, o'zaro aloqa vositasi bo'lgan maktub orqali yozma muloqot usuli qo'llanildi.

3.1.1-jadval

O'smir qizlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashlarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar



O'smir qizlarning kitobxonlik darajasi monitoringi (sifatida Jizzax shahridagi Hamid Olimjon va Zulfiya ijod maktabining bir sinf o'quvchilari faoliyati misolida tanlab olindi).

3.1.2–jadval

Jizzax shahar Xamid Olimjon va Zulfiya ijod maktabi 10 “A” sinfi misolida (o'quv yili)

Jizzax shahar Xamid Olimjon va Zulfiya ijod maktabi 10 “A” sinfi misolida (o'quv yili)						
№	O'quvchi (FISH)	Mutolaa qilingan asarlari (nomi, soni)	Mutolaa qilinmagan asarlari (nomi, soni)	Ijodiy ishlar (nomi, soni)	Monitoring natijasi (samaradorlik % hisobida)	Sinf bo'yicha o'rni
		A.Qahhor. “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”, A.Qodiriy “O'tgan kunlar”, she'riy to'plamlar	Jahon adabiyoti namunalari	O'quvchilarning ijod namunalari (she'r, hikoyalari)	83%	5

Shuningdek, ijod maktablari uchun muhim bo'lgan, mazkur ijodkorlarning turli janrdagi ijod namunalariga, taqriz, annotasiya yozish, tengdosh ijodkor do'stlarining yozgan ilk asarlari muhokamasiga oid tadbirlar o'tkazish kabi taklif va mulohazalar bildirildi.

O'smir qizlarni kitobxonlikka jalb qilish maqsadida "Mutolaa saboqlari", "Sharq allomalari asarlari ma'naviy-axloqiy manbaidir" kabi klublarini tashkil etish tavsiya etildi.

Klublar faoliyatida faol ishtirok etgan kitobxon, ijodkor qizlarning ijod maktablarida, mahallada, viloyat va tuman miqyosida taqdimotlar o'tkazish, ularning faoliyati bilan bog'liq slaydlar tayyorlash, kitob ko'rgazmalarini tashkil etish tadbirlari yoshlarni kitobxonlikka jalb etishning ko'rgazmali usuli hisoblanadi.

Turli bayram va tug'ilgan kunlarda o'smir qizlar bir-birlariga kitob sovg'a qilish, sevimli qahramonlari siymolari aks etgan suratlari, albomlar, video kassyetalar, ovozli o'qilgan asarlar namunalarini hadya qilishi ham qaysidir ma'noda yoshlarni kitobxonlikka jalb etadi.

Ma'lumki, o'smir qizlarning tarbiyasida milliy urf-odatlar, tarixiy an'analar katta ahamiyatga egadir.

Shuningdek, ular odobini namoyon etuvchi muomala madaniyati, oilada, jamoada, tengdoshlari davrasida o'zaro muloqotda namoyon bo'ladi. Yoki, ularning kiyinish odobi, milliy urf-odatlardan xabardorlik darajasi, o'zbeklarga xos pazandalik mahorati, orastalik, sarishtalik odatlari ham o'smir qizlarning muhim tarbiyaviy ahamiyatga molik ijobiy xislatlari sirasiga kiradi.

Tajriba-sinov jarayonida yuqorida tilga olingan, qizlar uchun muhim bo'lgan masalalarga ham e'tibor qaratildi. O'smir qizlarning ma'naviy-ahloqiy qarashlarini tarbiyalashda umumiy tarzda o'tkaziladigan tadbirlar, davra suhbatlarining ahamiyati kattadir. Masalan, "Orastalik go'zal xislat", "Otalar so'zi aqlning ko'zi", "Kiyinish- madaniyati deganda nimani tushunasiz?", "Ma'naviyat tushunchasini qanday izohlaysiz?" kabi tadbirlar yoshlarni fikr-mulohazalarini erkin va mustaqil ifodalash imkonini beradi.

Tadqiqot ishining asosiy mavzusi o'smir qizlarni kitobxonlikka jalb etish masalasiga qaratilgan

Tajriba-sinov jarayonida o‘smir qizlarning kitobxonlik darajalarini aniqlash maqsadida, tibbiyot kolleji, ijod maktablarining yuqori sinf o‘quvchilari o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazildi. So‘rovnoma yoshlarning maktab, mahalla, tuman, viloyat kutubxonalariga a‘zoliqi miqdori, kitobxonlikning tub mohiyatini anglash darajasi, oiladagi shaxsiy kutubxonaga ularning qo‘shgan hissalar, shaxsiy kutubxonadagi ular sevib o‘qiydigan asarlar miqdori, audio, video shaklidagi kitob matnlari yozilgan ovozli texnik vositalardan foydalanish, foydalanmasliklari haqida ma’lumotlar jamlandi.

O‘smir qizlarning mustaqil mutolaasini, madaniyatini shakllantirish darajasini aniqlash natijalaridan ma’lum bo‘ldiki, kitobxonlikni tizimli yo‘lga qo‘yishda ular uchun muhim bo‘lgan asarlarni o‘qishni tavsiya etish, asar matniga diqqat qilish, asardagi ilgari surilgan g‘oyalarni anglash kabi shakl va vositalar o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatgan.

Bu natijalarga oid diagnostika ma’lumotlari quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan.

Tajriba va nazorat guruhlaridagi har bir o‘smir qiz haqidagi tavsifnomalar umumlashtirildi. Sinov va nazorat guruhlarida so‘rovnomalar o‘tkazildi. Olingan natijalar esa o‘rganildi va umumlashtirildi.

3.1.3-jadval

O‘smir qizlarning ma’naviy-ahloqiy dunyoqarashlarini shakllantirishda kitobxonlikning tutgan o‘rni darajasini aniqlashning diagnostik dasturi

№	Kitobxonlik vositasida ma’naviy-axloqiy tushunchalarni anglash ko‘rsatgichlari	Ma’naviy-ahloqiy dunyoqarashlarining namoyon bo‘lish darajalari			
		Yaqqol namoyon bo‘lish darajasi	O‘rta namoyon bo‘lish darajasi	Sust namoyon bo‘lish darajasi	Namoyon bo‘lmaslik darajasi
1	Ma’naviy-axloqiy tushunchasi va uning mazmun	Ma’naviy-axloqiy tushunchasi	Umumiy tarzda tasavvurga	Chalkash, nazariy ma’lumotlar	Ma’naviy-axloqiy tushunchasi

	mohiyati xususida ma'lumotga egalilik	haqida tasavvurga ega bo'lish	ega bo'lish	yig'indisiga ega	haqida hech qanday ma'lumotga ega emas.
2	Milliy-qadriyatlar, urf-odatlar haqidagi ma'lumotlarni bilish miqyosi	Milliy-qadriyatlar, urf-odatlar haqida to'liq ma'lumotgaga ega	Ayrim qadriyatlar, urf-odatlarni tasavvur qiladi	Qisman tasavvurga ega, bo'lib, alohida-alohida izohlay olmaydi	Yevropalashgan, zamonaviy qadriyat va urf-odatlardan milliylikka xos bo'lgan jihatlarini ajrata olmaydi.
3	Sharq allomalarining asarlaridan xabardorlik darajasi	Kitobxon o'smir qizlarning xabardorlik darajasi yuqori	Ayrim allomalarining asarlarini o'qigan, yoshlar xabardor	Makktab dasturida tilga olingan allomalarining faqat nomlarini ayta oladi	Deyarli xabardor emas.
4	Yevropa va sharqona ma'naviy-axloqiy tushunchalarni farqlash darajasi	Ushbu tushunchalarni yaxshi farqlay oladi.	Ayrim yoshlar tushunchaga ega, ammo Yevropa madaniyatiga moyillik ko'zga tashlanadi	Yevropa madaniyatiga taqlid qilishni ma'qul ko'radi.	O'smir qizlar uchun umuman farqi yo'q.

3.1.4-jadval

Jizzax shahridagi Hamid Olimjon ijod maktabida tahsil olayotgan o'smir qizlar o'rtasida olib borilgan kitobxonlikka doir tajriba-sinovdan olingan natijalar darajasi

(Dastlabki bosqichda)

(75 ta o'smir qizlar soni)

№	Darajalar va guruhlar	Tajriba guruhi (% hisobida)		Nazorat guruhi (% hisobida)	
1	Quyi	46	22	53	26.5
2	O'rta	66	31	58	27.5
3	Yuqori	87	41.5	61	30.5

Ikkinchi bosqichda milliy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlar, o'tkazilgan tajriba-sinov jarayonida kitobxonlik darajasi ko'tarilganligini asoslovchi natijalar quyidagicha:

№	Darajalar va guruhlar	Darajalar	Quyi	O'rta	Yuqori
1	Tajriba guruhi	75 ta (o'smir qizlar soni)	25	48	71
2	Nazorat guruhi	75 ta (o'smir qizlar soni)	38	61	74

Shuningdek, har bir guruhda o'tkazilgan tadbirlar o'zini oqlaganligini ko'rsatdi va biz tavsiya etgan, muloqotlar ijobiy samara berishga ishonch hosil qilindi. Biz ishda yoritgan ilmiy farazlar o'zining ishonchliligi ko'zda tutilgan vazifalari, tuzilishlari, bosqichlari, davomiyligi va boshqa tavsiflarni tasdiqlaydi. Tajriba natijalarining ijobiyligi matematik-statistik ma'lumotlari bilan tasdiqlandi.

UMUMIY XULOSALAR

1.O'smir qizlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida, ularda yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishda milliy va umumbashariy g'oyalar yetakchilik qilgan xalq og'zaki ijodi, badiiy, ijtimoiy, pedagogik, psixologik asarlarning o'ziga xos o'rni, didaktik xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi.

2.O'smir qizlar tahsil olayotgan ta'lim maskanlarida, mahalla va tashkilotlarda tashkil etiladigan, ma'rifiy-ma'naviy tadbirlarda o'zlari o'qigan eng sara asarlar namunalari o'rganganliklarini namoyish qilish orqali milliy ruhiyati va qarashlari boyiydi. Xalqimizning milliy urf-odatlar va qadriyatlarini bilib oladilar. Shuningdek, ma'naviy-axloqiy mezonlarga daxldor yuksak insoniy fazilatlarni o'zlarining kelajakdagi o'z faoliyatlariga singdiradilar. Eng muhimi, bu borada tegishli bilim, ko'nikma va malakalarni egallab boradilar

3.Xalq og'zaki ijodi namunalari va turli mavzudagi badiiy, didaktik asarlar muhim manba sifatida o'smir qizlar ongiga estetik ta'sir etib, shuuri va ruhiyatida vatanga mehr-muhabbat hissini tarbiyalaydi. Ota-bobolarimiz meros qilib

qoldirgan ma'naviy-ma'rifiy saboqlarini hurmat qilishga, milliy qadriyatlar va an'analarni qadrlashga o'rganadi. Mazkur xalqimizning bebaho xazinasini bo'lgan kitoblarni xalq odobnomasidan yetarli darajada bilim va saboq bera oladi.

4.O'smir qizlar psixologiyasi o'ziga xos individual xususiyatga ega bo'lib, ularning hayot tarzi, fe'l-atvorlari kuzatilganda G'arbga xos yangi madaniyatga moyillik, ularga taqlid qilish hollari uchraydi. Bu o'rinda, ularga mustaqil fikrlash tuyg'usini beruvchi kitoblarni tavsiya etish xalqimiz tomonidan amalda qo'llanilib kelinayotgan urf-odatlar va milliy tadbirlar bayramlarida ularning ishtirokini tashkil qilish katta ma'rifiy ahamiyatga ega ekanligi tajribada sinalgan.

5.O'smir qizlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda, o'qituvchi, tarbiyachi, pedagog-psixologlarning umumhamkorligi muhim ahamiyatga egadir. Bu hamkorlik o'smir qizlar uchun muhim bo'lgan har qanday faoliyat samarador bo'lib, ular shaxsini insoniy komillik ruhida tarbiyalashda asosiy mezon hisoblanadi. Shuningdek, mustaqil fikr qiluvchi, o'z ma'naviy qiyofasini shakllantiruvchi shaxs kamolga yetadi.

6.O'smir qizlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda, ular o'qigan asarlardagi qahramonlar talqiniga bir yoqlama qarash, ularni ijobiy yoki salbiy obraz, yoki jonsiz badiiy qahramon deb emas, balki ularga inson ko'zi bilan qarash ko'nikmasini hosil qilish mas'uliyati asosan adabiyot o'qituvchisining e'tiborida bo'lishi muhim ahamiyatga egadir. Asardagi qahramonlarni to'g'ri talqin qila bilish, ularda tilga olingan mavzuning mohiyatini to'g'ri anglatish ham yoshlarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

7. O'smir qizlarni ma'naviy-axloqiy qarashlarini shakllantirish bilan bog'liq har qanday tadbir, urf-odatlar, mustaqil tarzda o'qigan asarlarning bosh maqsadi sog'lom, ma'naviyatli, axloqli insonni tarbiyalashga qaratilishi lozim bo'lib, muhim didaktik ahamiyatga egadir. Bu didaktik mezon o'smir qizlarni erkin fikr, mustaqil mulohaza yuritish, atrofdagilarga nisbatan hurmat bilan qarash, o'z mulohazalarini erkin bayon qila bilish imkoniyatini beradi.

8. Tadqiqotni olib borish jarayonida o'smir qizlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashlarini shakllantirishga daxldor bo'lgan badiiyati jihatidan yuksak talablarga javob beradigan, sof didaktik xarakterdagi asarlarni tanlash, ularni o'qishga tavsiya etish muhim ma'rifiy ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda yoshlarni kitobxonlikka jalb etish, bu masalaning ilmiy-nazariy va pedagogik asoslarini ishlab chiqish, ularni kundalik hayotga tatbiq etish, xalqimiz ijodkorlari tomonidan yaratilgan eng sara asarlarni yoshlarga tavsiya etish muhim ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biridir.

9. O'smir qizlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini kitobxonlik asosida va Sharq allomalari asarlari misolida shakllantirish borasida, zaruriy uslubiy qo'llanmalar yaratish, shuningdek, umummilliy qadriyatlar va urf-odatlar, udumlar, ma'naviy-axloqiy tarbiya tarixiga oid tadqiqotlar olib borish, mazkur mavzularni qamrab olgan badiiy, ma'rifiy, tarbiviy asarlarni chop ettirish va yoshlarga tavsiya etish maqsadga muvofiq masalalardan biridir.

TAVSIYALAR

1. "Tarbiya" fani darsligini o'smir qizlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi sharq allomalarining asarlari haqidagi ma'lumotlar bilan boyitilsa;

2. O'smir qizlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashlarini shakllantirish maqsadida ta'lim muassasalarida "Sharq allomalari ma'naviyat xazinasi" nomli to'g'arak faoliyatini tashkil qilinsa;

3. O'smir qizlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashlarini shakllantirishga oid o'ziga xos sharqona tarbiya me'zonlari yoritilgan badiiy asarlar ro'yxati shakllantirilib, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish jarayoniga tavsiya qilinsa;

4. O'smir qizlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashlarini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarida namoyon qilinayotgan sharq allomalari hayotiga oid ilmiy, badiiy filmlarni, teatr spektakllarining g'oyaviy mazmunini anglab olishga yo'naltirilgan tarbiyaviy sharhlarni tashkil etilsa;

5. O'smir qizlar tabiatan ijodkor, hissiyotga tez beriluvchan bo'lib, o'z fikrlarini hayajon va pok tuyg'ular shaklida namoyon etadi. Ularning atrofidagi yaqin kishilari ota-onasi, bobo-buvisi, qolaversa, o'qituvchi, pedagog-psixologlar o'smirning ijodkorlikka xos, unga moyillik bo'lgan xislatlarini sezar ekan, ularning o'z nuqtai nazaridagi orzusini kamol toptirishga bo'lgan intilishlariga ko'mak berilsa, rag'batlantirilsa bu ijodkorlik ruhi, o'smir qizlarni asarlar yaratishlariga, tengdoshlari va yaqinlariga o'rnak bo'lishlariga sabab bo'lishi mumkin.

Bu ijodkorlikka asos bo'lgan manba, ularning ma'naviy-axloqiy tarbiyalariga daxldor bo'lib, milliy va umumbashariy g'oyalar, qadriyat va urf-odatlar, xalqona tarbiya usullari, ota-bobolarning pand-nasihat o'gitlariga amal qilish mahsuli bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Me'yoriy – huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyoti strategiyasi to'g'risida”gi PF 60–son. 2022 yil 28 yanvar

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarda Yangi O'zbekistonni yanada rivojlantirishning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 14 sentyabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi PQ-406 son Qarori

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3271-son Qarori

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyundagi “O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” PQ – 3808- sonli qarori

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida”gi F-4789-sonli farmoyishi

7. “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida”gi Prezident Farmoyishi.// Ma'rifat gazetasi. – Toshkent, 2017. № 4 (8965).

8. “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora – tadbirlar dasturi to'g'risida”gi Prezident Qarori. // Ma'rifat gazetasi. – Toshkent, 2017. № 74 (9035).

9. “Xotin – qizlarni qo‘llab – quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi PF – 5325 2018 2 fevral Farmoni.

10.“Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori 2020 yil 16 aprel.

11. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: O‘zbekiston. 2016. 97-b

12. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”NMIU, 2017. 488 b.

II. Ilmiy nazariy adabiyotlar

1) Milliy nashrlar

13. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent, O‘qituvchi, 1992. 16-bet.

14. Abdullo Avloniy. Turkiy guliston yohud ahloq. -T.: O‘qituvchi. 1992.

15. Abu Ali Ibn Sino. Tib qonunlari. 1-kitob. 2-nashr. -T.: Fan, 1959. 56-b

16. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. -T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi. 1993. 78-b

17. Abu Nasr Farobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. – Toshkent: “Yozuvchi”. 2002. – B. 12.

18. Burxoniddin Marg‘inoniy. Abdulxakim Shar‘iy Jo‘zjoniy. Buyuk yurt allomalari. – B. 101-102.

19. “Tib qonunlari”. O‘zR FA ShI qo‘lyozma fondida saqlanadi. (№3316. 97 85)

20. Hadislarda odob-axloq masalalari va ularning bugungi ta'lim-tarbiyadagi o‘rni. <https://kzref.org/kategoriyapedagogika>.

21. Ahmad Donish. Navodir ul-vaqoe T.: Fan, 1964.- 411b

22. Alimova N., Saidxo‘jayeva N. Axborot – kutubxona muassasalarining rasmiy veb-saytlarida innovasion loyihalarni qo‘llash. //Kutubxona.uz. – T.: 2016 № 3. – B. 25-27.

23. Aliqulov X. Karamatov H. Arastuning Iskandarga nasihati. “Sharq mash'ali”, 1993. 1-3- sonlari.
24. Alisher Navoiy. Xamsa. Qisqartirib nashrga tayyorlovchi A.Hojiahmedov. – T.: Yangi asr avlodi, 2013. 428 b.
25. Bahodir Karim. Abdulla Qodiriy va germeneytik tafakkur. -T.: Akadem nashr, 2014. 63-b
26. Dolimov U. Milliy uygʻonish pedagogikasi. T.: Nashr 2012. 74-b
27. Fayziyeva M., Sayfurov D. Barcha taʼlim yoʻnalishlari uchun “Virtual taʼlim texnologiyasi” moduli boʻyicha oʻquv-uslubiy majmua. –T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2016. -155 b.
28. Gʻoziyev E.Gʻ. Psixologiya. –T.: Oʻqituvchi, 2008. -352 b
29. Gʻoyibnazarov Sh. Ommaviy madaniyat. T.: Oʻzbekiston 2012. 86-b
30. Hasanboyeva O. Hasanboyev J. Homidov X. Pedagogika tarixi. -T.: “Oʻqituvchi”, 1993. 189-b.
31. Husanboyeva Q. Adabiyot – maʼnaviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. –T.: “Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti”, 2009. – 368 b.
32. Imom Ismoil Al Buxoriy. Al - adab al – mufrad. –T.: Oʻzbekiston 1990. 201-b
33. Jabbarova M., Abbasova Sh. Milliy gʻoya va milliy manfaatlar (Ilmiy – maʼrifiy adabiyot). -T.: Sano – standart. 2011. 254-b
34. Jaxon adiblari adabiyot haqida.–T.: Maʼnaviyat, 2010. -/392 b.
35. Jumanazarov U. Tarix haqiqati va xalq ijodi badiyati. Toshkent. Yelmuzpress-media. 2007. 89-b
36. Jurayev M. Folklorshunoslik asoslari. -T.: Fan. 2009. 251-b
37. Oxunjonov E. Kutubxonachilik va bibliografiya ishlari madaniyati. –T.: Bilim 1994 189-b
38. Kaykovus Qobusnoma. –T.: Oʻqituvchi 1973. 59-b
39. Mahkamov U. Axloq – odob saboqlari. –T.: Fan 1994. 112-b

40. Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. – T.: Fan, 2006. 112- b.
41. Nosruddin Burxonuddin Rabg'uziy. Qissasi Rabg'uziy. – T.: Yozuvchi, 1990. – 240 b.
42. O'zbek bolalar adabiyoti antologiyasi. II. Nasr. –T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2006. -480 b.
43. Qodirova M. Dilshod (Hayoti va ijodi) –T.: Fan. 1971. 14-b
44. Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. –T.: Kamalak, 2016. -/306 b.
45. Qulbek Ergo'bek. Yozuvchi ijodxonasi. – Turkiston: Turon, 2007. - 472 b.
46. Rajabova I. Adabiyot darslarini interfaol usullarda tashkil etish. – T.: Tamaddun, 2010. – 112 b.
47. Raxmonova S. Tarbiyaviy ishlarda o'zbek milliy urf-odatlar va an'analaridan foydalanish.- T.: O'qituvchi – 1993 78-b
48. Safo Matjon. Kitob o'qishni bilasizmi? – T.: O'qituvchi 1993. – 114 b.
49. To'lanova G. Axborot-kutubxona muassasalarida interfaol xizmatlardan foydalanishning yangi imkoniyatlari. //Kutubxona.uz. – T.: 2015, -/№ 2. 21-23.
50. Tuxtasin Jalolov. Qizlar qasidasi. –T.: Fan 1977. 139-b
51. Ulug'bek Dolimov. Milliy uyg'onish pedagogikasi. Toshkent, nashriyoti 2012, 34-35 betlar.
52. Umarov A.O. Mutolaa madaniyati: shaxs, jamiyat, taraqqiyot, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi; A.Qodiriy nom. Toshkent Davlat madaniyat ins-ti. – T.: Fan, 2004. 194 b.
53. Yangilish Egamova. Muhabbat farzandi. –T.: Akadem-nashr. 2016. 207-b
54. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: Fan va texnologiya, 2008. – 132 b.
55. Ziyomuhammadov B. Komillikka eltuvchi kitob. – T.: "TURON - IQBOL", 2008. – 352 b.

56. Arapbayeva D.K., Arapbayeva V.K. Sharq mutafakkirlarining oila va tarbiya haqidagi qarashlari. Jurnal Zamonaviy ta'lim. 2015. №7., – B. 66.
57. Uvatov U. Imom al-Buxoriy. Buyuk yurt allomalari. – Toshkent, 2016. – B. 13-14.
58. Uvatov U. Al-Hakim at-Termiziy. Buyuk yurt allomalari. – Toshkent. 2016. – B. 53
59. Uvatov U. Al-Hakim at-Termiziy. Buyuk yurt allomalari. – Toshkent. 2016. – B. 54.
60. A.Abdullayev. Abu-l-Lays as-Samarqandiy. Buyuk yurt allomalari. – B. 62
61. Komilov M. Alouddin as-Samarqandiy. – Toshkent, 2016 y. – B. 238.
62. Raximov K. Xoja Bahouddin Naqshband. – Toshkent, 2016. – B. 294.

2) Xorijiy nashrlar

63. Amari F. IT – literature for language teachers: should it include computer programming, Sustem, Volume 28, Isse 1, 2000. – P. 77-84.
64. Applebee Arthur N. et al. Ms Dougal little literature. World literature. Holt Ms Dougal, USA: 2008. –P. 1615
65. Baldauf I. XX asr o‘zbek adabiyotiga chizgilar. -T.: Ma’naviyat 2001. 114-b
66. Bars, M. and Cork, V. The reader in the Writer. London, 2001. Benton, P. Conflicting cultures: reflections on the reading and viewing of secondary school pupils. Oxford Review of Education, 1995.
67. Benton, P. Conflicting cultures: reflections on the reading and viewing of secondary school pupils. Oxford Review of Education, 1995.
68. Clark C. and Foster, A. (2005). Children’s and young people’s reading habits and preferences: 2010 (Available at http://www.literacytrust.org.uk/assets/Reading_Connects_2005.pdf (accessed 2010).
69. Cliff Hodges, G. Children as readers. London: Education, 2009.

70. Dekusheva R.A. Optimizatsiya prosessa razvitiya kultury chteniya uchashixsya karachayevskix shkol v sisteme fakultativnykh i vneklassnykh zanyatiy russkoy literaturoy. AKD.pyednauk. – M.: 1992. -/ 22-s.
71. Demetriadis S. et. al. “Cultures in negotiation”: teachers asseptance/resistanse attitudenes concidering the of technology into schools, Compyuters and Edication, Volume 41, Isse 1, 2003. –P. 19-37.
72. Hardner Howard. Multiple inteligense: New Horizons in Theory and Praktice. Ingram Publisher Services. USA, 2006.
73. Hirsch, E.D. Reading Comprehension Requires Knowledge – of Words and the World. American Educator, Spring, 2003.
74. Kozlenko A.G. Virtualnyye raboty v prepodovanii yestestvennykh nauk. –M.: 2009. 69-s
75. Leontyev A.A. Chteniye kak ponimaniye. –M.: Voronej, 2001. –S. 246-253.
76. Lipson, A., and Wixson, K. Assesment and Instruction of Reading Disability: An Interactive Approach New York, NY: HarperCollins, 1991.
77. Patner R. Novyye tendensii i povыshenii prestija chteniya sredi uchashyeysya molodyoji. // Kutubxona.uz. – T, 2014,-/ № 2. -/S. 9-12
78. Sesiliya S.L. Vertual realitu and environments. Frist published April, 2012. Printed in Croatia. Published by In tech. –P. 27-32.
79. Sklyarevskiy Ye. Pochemu ya ne chitayu knigu. //Kutubxona.uz. – T. -/ 2014, -/№ 1. 37-40
80. Smetannikova N.N. Strategialnyy podxod k obucheniyu chteniyu (mejdissiplinarnyye problemy chteniya i gramotnosti). – M., 2005. -/S 5-146.

III. Diniy manbalar, adabiyotlar

81. Qur’oni karim. O‘zbekcha izohli tarjima (Alouddin Mansur tarjimasi) – Bishkek, 2001

V. Lugʻatlar

82. Islom Ensiklopediya: A-H / Z.Husniddinov tahriri ostida.- T.:Oʻzbek milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2003.-313 b
83. Oila ensiklopediyasi – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashri, 2019. 87-b
84. Mahmudov N. Saidqulov Z. Satimov F. Komillik kaliti maʼnaviyatidan oʻzbekcha, ruscha, inglizcha lugʻat. -T.: Maʼnaviyat 2006.146-b.
85. Mamatov A. Nutq madaniyati va til normasiga oid terminlar va tushunchalar izohi. –T.: Bayozb 2012. 60-b
86. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 5 jildli. 2-jild. –T.: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. -680 b.
87. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. 12 jildli. 5-jild. –T.: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. -704 b.
88. Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov, Hikmatlar. –T.: Oʻzbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi 1990. 122-b
89. XX asr Oʻzbek hikoyasi antologiyasi. – T.: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2016.-/ 624 b.

VII. Badiiy adabiyotlar

90. Abdulla Qodiriy Oʻtkan kunlar: Roman. – T.: Sharq, 2018-yil
91. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon: Roman. “Asr oshgan asarlar” turkumi. – T.: Sharq, 2012. 288 b.
92. Abdurauf Fitrat. Chin Sevish. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1996. 256 b.
93. Aliqulov J. Karamatov Arustuning Iskandarga haqiqati. Sharq maʼshali, T. 1993. 44-b
94. Aytmatov Ch. Togʻlar qulayotgan zamon (Abadiiy qalliq). – T.: Vektor – press, 2009. – 252 b
95. Jalolov Gʻ. Oʻzbek xalq ertaklari, poetikasi. -T.: Fan. 1976. 87-b
96. Maxmud Sattor. Oʻzbekning gapi qiziq. -T.: Fan. 1994. 86-b

97. Mirkarim Osim. To‘maris / Tarixiy qissalar. –T.: Yangi asr avlodi, 2012. 140 b.
98. Muxammad Huzariy. Nur-ul yaqin. -T.: Cho‘lpon. Kamalak. 1992. 59-b
99. Navro‘z. Tuzuvchilar T.Mirzayev, M.Jurayev. –T.: Fan, 1992. -100 b.
100. Nishonova S. Ezgulik yo‘li. –T.: Ma’naviyat 2001. 178-b
101. O‘tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. –T.: Bouk MEDIA 2019. 258-b
102. Pirmat Shermuhamedov. Xorazm malikasi yoxud Amir Temurning kelini. –T.: Fan 2006. 224-b
103. Qodirov P. Gavharshod begim: Tarihiy roman. –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. -208 b.
104. Razouddin Faxriddin o‘g‘li. Mashhur xotirlar. –T.: 2019. 107-b
105. To‘lqin Hayit. Vafo malikasi yohud Amir Temur va Uljoy aka qismati. –T.: O‘zbekiston 2018.
106. Tohir Malik. Beklar va bekajonlar. -T.: Sano-standart 2019. 88-b
107. Tursunova M. Madrasa barpo etgan malikalar. Toshkent. Zilol buloq. 2019.
108. Yoqubov O. Tanlangan asarlar. Ikkinchi jild. Ulug‘bek xazinas. - Toshkent: Sharq, 2007. – 352 b.
109. Zohiriy Samarqandiy. Xotinlar makri. -:T. G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matba birlashmasi 1992. 133-b

VIII. Monografiya va avtoreferatlar

110. Chiniyeva S.A. O‘zbek oilalarida kitobxonlik vositasida o‘smirlar ma’naviyatini shakllantirish. Ped.fan.nomz. ...diss. – Toshkent.: 2006. 148-b.
111. Fayziyev M.A. Talabalarining bilim va ko‘nikmalarini kompyuter axborot texnologiyalarini takomillashtirish”. Ped.fan.nomz.diss. - Samarqand, 2008. 137-b
112. G‘aniyeva D.A. O‘quv jarayonining metodik ta‘minotida kutubxonachi bilan o‘quv fanlari o‘qituvchilari hamkorligi (axborot – resurs markazlari misolida). Ped.fan.nomz. ...diss. – T.: 2008. 176-b.

113. Isroilova M.N. Lotin tilini o‘qitish jarayonida tibbiyot oliy ta’lim muassasasi talabalarini intellektual - madaniy rivojlantirishning didaktik asoslarini takomillashtirish. Ped.fan.bo‘y.falsafa dok.(PhD) aftoref. – T.: 2018. 50-b

114. Mahmudova M. Xalq pedagogikasi mazmuni asosida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash tizimi. Ped.fan.dokt.Monografiyasi.T., 2007. 250 b.

115. Matchanov S. Umumta’lim tizimida adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish. Ped.fan. d.ri...diss. – T, 1998. 308 b.

116. Mirqosimova M.M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari. Ped.fan. d.ri...diss. – T., 1995. 253 b.

117. Nigmatova M. Maktabgacha yoshdagi bolalar kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirishning ijtimoiy – pedagogik asoslari: kutubxonashunoslik va bib-shunoslik mutaxas.bo‘yicha ped.fan.nomz....diss. – T., 1995. 137 b.

118. Niyozmetova R.X. Uzluksiz ta’lim tizimida o‘zbek adabiyotini o‘rganishning nazariy va metodik asoslari (rus guruhlar misolida). Ped.fan.d.ri ...diss. – T., 2007. 242 b.

119. Safarova R.R. va boshqalar. O‘quvchi yoshlarni ommaviy madaniyat xurujlaridan himoya qilishning nazariy-metodologik asoslari. Monografiya. – T.: Tafakkur qanoti, 2017. 321-b

120. Safarova R.R., R.X.Djurayev va boshqalar. O‘qituvchi-yoshlarda “Ommaviy madaniyat”ga qarshi kurashchanlik ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari. Monografiya. – T: - Tafakkur qanoti. 2018.45 -b

121. Umarov A.A. Ijtimoiy – madaniy taraqqiyotni ta’minlash va komil inson shaxsini shakllantirishda mutolaaning roli. Sosiologiya fan.d.ri.diss. – Toshkent, 2005. – 274 b.

122. Xusanboyeva Q.P. Adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishning ilmiy – metodik asoslari. Ped.fan.nomz. ...diss. – T., 2006. 262-b.

123. Yo‘ldoshev Q. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta‘lim maktablarida adabiyot o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari. Ped.fan.d.ri...diss. – T.,1997. 306 b

IX. Ilmiy to‘plam, jurnal va gazetalardagi maqolalar

124. Djurayev R.X., Taylakov U.N. Elektron ta‘limda qo‘llaniladigan dasturiy pedagogik vositalar //Uzluksiz ta‘lim. 2013. 77-b.

125. Egamberdiyeva N. Texnologii formirovaniya chitatelskix umeniy u mladshix shkolkov, Adabiyot fanini zamonaviy o‘qitish masalalariga bag‘ishlangan Respublika ilmiy – nazariy konferensiya materiallari to‘plami. T.: ToshDO‘TAU – 2017. 8-13.

126.Ergashev Sh., Kalontarov A. Umumta‘lim maktablarida axborot–kommunikatsion muhitni shakllantirish va rivojlantirishda electron axborot –ta‘lim resurslarining o‘rni va ahamiyati. // Xalq ta‘limi. 2016. -/№ 4. 84 – 92.

127. Erkaxo‘jayeva Sh., Abdusamatov N., Jalolov H. Internet orqali bolalar adibi bilan suhbat. //Tarbiya jurnali –T.: 2012. -/№ 3 –B. 15-17.

128. Ko‘chimov U. Fantastik asarlarda badiiy psixologizm.// O‘zbek tili va adabiyoti jurnali 2012. 74-76

129. Mirzayeva Z. Adabiyot fanlarini o‘qitishda o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish. Gardnerning “Turfa zakovatlar” nazariyasi. Global ta‘lim va milliy metodika taraqqiyoti. // Respublika ilmiy – amaliy anjumani materiallari. – T: ToshDO‘TAU, 2018. 11-14

130.Muhammedova S.X., Yuldasheva Sh.Sh. Pedagogik dasturiy vositalar va til ta‘limi. O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Respublika ilmiy – nazariy anjumani materiallari. – T.: ToshDO‘TAU – 2016. 113-116

131.O‘rolov B., Boqi K. Xorijda kitobni qanday o‘qitishadi? //Ma‘rifat gazetasi 2017 yil 4 fevral. 11-b.

132.Oblaberdiyeva K. Axborot texnologiyalari vositalarini qo‘llashda interfaysdan foydalanish metodikasi. //Uzluksiz ta‘lim. – T 2011, -/№ 1. 7-11

133. Qurbonov M. va boshqalar. Oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkillashtirish. T.: Tafakkur, 2011. 57-b
134. Rustamov S. Innovasion texnologiyalar uyg'unligi. //Ma'rifat gazetasi. 2011 yil, 13 aprel.
135. Sharipov Sh. Pedagogik texnologiya hamda ta'lim metodi tushunchalarining o'zaro nisbati // Xalq ta'limi. – T./ 2004. -/№ 6. 26-27.
136. Sultonmurod Olim. To'y marosimlari va milliy ma'naviyat. –T.: Ma'naviyat 2014.-/ 93 b.
137. Tolipov O'. Tarbiya jarayoniga texnologik yondashuv va uni loyihalashtirish //Xalq ta'limi. – T.: 2004, -/№ 1. 35-37
138. Turdinova Sh. Sharq allomalari asarlarida ta'lim va tarbiya masalalari. // AndDU Ilmiy axborotnomasi. MAXSUS SON. 2019 № 8. 4-b
139. Tursunov J. O'quvchilarda kreativ qobiliyatlarni shakllantirishda evristik ta'lim metodlaridan foydalanish. //Maktab va xayot. – T.: 2013.-/ №3. 26-28.
140. Xoliqov A. O'qituvchining tarbiya texnologiyalari asosida faoliyat olib borishi //Xalq ta'limi. – T.: 2010. -/№ 2. 15-19.

X. Internet saytlari

141. <http://www.kitob.uz>
142. <http://www.lex.uz>
143. <http://www.mirznanii.com/a/179562/kognitivnye-metody-obucheniya>.